

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki



Moliyaviy barqarorlik sharhi

2025-yil

Moliyaviy barqarorlik sharhi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan yiliga ikki marta chop etiladi. Mazkur sharhda makromoliyaviy sharoitlar tahlili, tizimli xatarlarni aniqlash va ta’sirini baholash hamda makroprudensial siyosat masalalari qamrab olingan.

Mazkur sharh 2026-yil 1-yanvargacha bo‘lgan ma’lumotlar asosida tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Moliyaviy barqarorlik departamenti tomonidan tayyorlangan.

Sharh 2026-yil iyul oyida chop etilgan.

Fikr va mulohazalaringizni udjumanazarov@cbu.uz elektron manziliga yuborishingiz mumkin.

Qisqartmalar

XVJ	Xalqaro valyuta jamg'armasi
YaIM	Yalpi ichki mahsulot
BSSM	Bayesian state space model
CAR	Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsiyenti
CCA	Contingent claims analysis
CCoB	Kapitalning konservatsiya buferi
CCyB	Kontrsiklik kapital bufer
CET1	I darajali asosiy kapital
CoVaR	Conditional value at risk
D-SIB	Mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar
DSTI	Qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati
EVT	Ekstremal qiymatlar nazariyasi
GaR	Growth-at-Risk
GMM	Generalized method of moments
HaR	House price at risk
HH	Xerfindal-Xirshman
HP	Hodrick-Prescott
LCR	Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti
LGD	Loss given default
LTV	Kredit summasining garov summasiga nisbati
NSFR	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti
PD	Probability of default
pnCCyB	Ijobiy neytral kontrsiklik kapital buferi
ROA	Aktivlar rentabelligi
ROE	Kapital rentabelligi
SSM	State space model
SyRB	Tizimli xatar buferi
Tier 1	I darajali kapital
UCI	Uzbekistan Composite Index

2025-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhi

Mundarija

Umumiy xulosa	3
Erta ogohlantiruvchi ko'rsatkichlar xaritasi	6
I. Makromoliyaviy sharoitlar	9
1-havola. Yaqin Sharq mintaqasidagi holatning moliyaviy barqarorlikka ta'siri	18
II. Moliyaviy sektor	23
2.1. Bank sektori	23
2-havola. Valyuta xatarini baholashning ekstremal qiymatlar nazariyasiga asoslangan yondashuvi	44
3-havola. Tizimli xatarlar so'rovnomasi	46
2.2. Nobank moliya sektori	49
III. Nomoliyaviy sektor	57
3.1. Uy xo'jaligi sektori	57
4-havola. Aholi qarz yuki so'rovnomasi	72
3.2. Korporativ sektor	76
IV. Aktivlar bozori	80
4.1. Ko'chmas mulk bozori	80
5-havola. Uy-joylarning fundamental narxini aniqlash bo'yicha potensial talab modeli	91
4.2. Kapital bozori	93
V. Bank tizimi bo'yicha makro stress-test	99
5.1. Makroiqtisodiy ssenariylar	99
5.2. To'lov qobiliyati makro stress-testi	105
6-havola. Xatarlar sharoitida uy-joy narxlari	118
5.3. Likvidlilik makro stress-testi	120
VI. Makroprudensial siyosat	127
6.1. Makroprudensial siyosat vositalari	127
6.2. Xatarlar va yengillashtiruvchi choralar	133
7-havola. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moddiy xavflar	136
Ilovalar	145
Atamalar	188

Umumiy xulosa

O‘zbekiston moliyaviy sharoitlarida yengillashish kuzatildi. 2025-yil yakuniga kelib, global noaniqliklarning biroz pasayganligi, shuningdek bank sektori, valyuta bozori hamda makroiqtisodiy holatdagi ijobiy o‘zgarishlar mamlakat moliyaviy sharoitlarining yengillashishida o‘z aksini topdi. O‘zbekistonning kelgusi davrlardagi iqtisodiy o‘rishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xatarlar ko‘lami qisqargan va o‘rish sur’ati asosiy savdo hamkor davlatlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lishi kutilmoqda.

O‘zbekiston bank sektori moliyaviy barqaror va xatarlarga bardoshli shakllanmoqda. 2025-yilda bank tizimi moliyaviy stress holati o‘zining tarixiy eng pastki qiymatigacha tushgan. Banklar faoliyatida yuzaga kelgan yuqori daromadlilik, depozitlar portfelining kengayishi hamda kredit yo‘qotishlari ehtimolining pasayishi natijasida bank tizimining to‘lov qobiliyati yanada mustahkamlandi. Shu bilan birga, bank aktivlari tarkibida yuqori likvidli aktivlar miqdorining ortishi hamda depozit portfelida talab qilib olinguncha depozitlar ulushining qisqarishi bank tizimi likvidligining yanada yaxshilanishiga xizmat qildi. Shuningdek, moliyaviy stressning bank tizimiga tarqalishi bilan bog‘liq xavf darajasi kamaygan. Banklarning kredit va depozit portfeli bo‘yicha dollarlashuv darajasi pasaygan.

O‘zbekistonda makroprudensial siyosat vositalari Bazel III standartlari asosida tubdan takomillashtirildi. Xususan, kapital konservatsiya buferi (2,5 foiz), kontrsiklik kapital buferi (1,5 foiz) va tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi (1 foiz) amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, banklar kapitalining monandligiga qo‘yiladigan minimal talablar Bazel III standartlariga muvofiqlashtirildi. Bundan tashqari, qarzdorlarga yo‘naltirilgan makroprudensial vositalar, jumladan qarzga xizmat ko‘rsatishning daromadga nisbati, kreditning garovga nisbati hamda qarzning daromadga nisbati bo‘yicha bevosita talablar joriy etildi va takomillashtirildi. Kredit portfeli diversifikatsiyasini ta’minlash maqsadida ayrim kredit turlari bo‘yicha qo‘shimcha konsentratsiya talablari amaliyotga tatbiq etildi.

Banklar Bazel III standartlari asosida o‘rnatilgan minimal kapital monandlik va kapital bufer talablariga to‘liq javob bermoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, tizimli ahamiyatga molik banklarning I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti kapital buferlarini inobatga olgan holda o‘rnatilgan minimal 9,5 foizlik, boshqa banklarda esa 8,5 foizlik talabdan yuqori shakllandi. Shuningdek, 2026-yil boshida barcha banklarning jami reguliyativ kapital monandlik koeffitsiyenti 13 foizdan yuqori bo‘ldi.

Makroprudensial choralarning qat'iylashtirilishi va aholi daromadlarining o'sishi natijasida uy xo'jaligi sektorida ijobiy holat kuzatildi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka va avtokreditlar uchun kreditning garovga nisbati (LTV) bo'yicha bevosita cheklovlarning o'rnatilishi ushbu kreditlarni garov bilan ta'minlanganlik darajasini yaxshilanishida namoyon bo'ldi. Aholiga kredit ajratishda qarzдорlarga yo'naltirilgan vositalarning qat'iylashtirilishi uy xo'jaliklarining qarz yuki darajasini pasayishida o'z ifodasini topdi. Bunda, ipoteka va avtokredit segmentlarida qarz yukining tushish dinamikasi qayd etildi.

Chakana kreditlashda yuqori faollik saqlanib qolmoqda. Bitta qarz dorga to'g'ri keladigan mikroqarz shartnomalar soni ortib bormoqda. Mikroqarzlar bo'yicha muammoli kreditlarning sifat tarkibi yomonlashgan. 2025-yilda mikroqarzlar bo'yicha o'rtacha DSTI ko'rsatkichi 37 foizdan 40 foizgacha ko'tarildi. Shu bilan birga, mikroqarzlar bo'yicha konsentratsiya darajasi pasaymoqda.

Uy-joylarning bozor narxi fundamental narxlarning standart chetlanish oralig'iga qaytdi. Ko'chmas mulk bozorida uy-joy taklifining ortishi hamda bozor narxlarida kuzatilgan tuzatishlar sharoitida aholi daromadining ko'payishi hamda ipoteka kredit ajratish shartlarining yengillashishi natijasida aholining uy-joy xarid qilish qobiliyati yaxshilandi hamda faolligi ortdi. Bozor ishtirokchilari aktivlar narxining o'sishiga emas, balki barqaror ijara daromadiga tayanuvchi ehtiyotkorona sarmoyaga o'tmoqda.

To'lov qobiliyati makro stress-testi natijalariga ko'ra, xatarli ssenariy bo'yicha shoklarning banklar kapitaliga ta'siri vaqt tafovuti bilan namoyon bo'lishi mumkin. I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti xatarli ssenariy bo'yicha 2028-yil yakunida 5,6 foizgacha va bank tizimi jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyenti 6,8 foizgacha pasayishi mumkin. Bank defolti ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tarqalish xatarining ko'lami pastligicha qolmoqda. Uy-joy narxlari arzonlashishining ipoteka kreditlari bo'yicha yo'qotishga ta'siri juda past baholanmoqda.

Likvidlilik stress-testi natijalari xatarli ssenariy bo'yicha sof pul kirimi bank tizimi bo'yicha musbat holatda saqlanib qolishini ko'rsatdi. Bank tizimi bo'yicha aktivlar va majburiyatlarning muddatlari orasidagi nomutanosiblik darajasi yaxshilangan. Likvidlilik muammosi eng yuqori darajada kuzatilishi mumkin bo'lgan banklarda ham kutilayotgan manfiy sof pul kirimini qoplashga yetarli aktivlarining mavjudligi bank tizimi bo'yicha likvidlilik xatarini bartaraf eta oladi.


Moliyaviy barqarorlikka ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tashqi xatarlar uzoq muddatli, ichki xatarlar qisqa muddatli xususiyatga ega bo'lmoqda. Ushbu xatarlarga geosiyosiy beqarorliklar ta'sirida global moliyaviy sharoitlarning

qat'iy lashishi, mikroqarzl ar bo'yicha kredit xatari, kiber hamda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar kiradi.

Erta ogohlantiruvchi ko'rsatkichlar xaritasi

Ko'rsatkich	2019				2020				2021				2022				2023				2024				2025			
	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4
Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti																												
Milliy valyutadagi kreditlar va g'aznachilik obligatsiyalarning foiz stavkalari orasidagi farqi																												
Moliyaviy sharoitlar indeksi (FCI)																												
Jami kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti																												
Nominal YaIM tafovuti																												
Moliyaviy stress indeksi (FSI)																												
Kreditning YaIMga nisbati o'sish sur'ati																												
Joriy operatsiyalar hisobi balansining YaIMga nisbati																												
Moliyaviy sikl indeksi																												
Kreditning depozitga nisbati																												
Kapital rentabelligi (ROE)																												
Muammoli kreditlarning (NPL) o'sish sur'ati																												
Bank tizimi aktivlarining YaIMga nisbati																												
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR)																												
Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR)																												
Jami bank kreditlari qoldig'ining o'sishi (YoY)																												
Xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi																												
Aktivlar rentabelligi (ROA)																												
Leveraj koeffitsiyenti																												
I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti																												
Jami aktivlarda yuqori likvidli aktivlarning ulushi																												
Valyuta pozitsiyasi																												
Bank sektorining konsentratsiya darajasi (aktivlar bo'yicha)																												
Nobarqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti																												
Jami majburiyatlar tarkibida nobarqaror moliyalashtirishning ulushi																												
Uy xo'jaliklari kreditlari qoldig'ining o'sishi																												

Ko'rsatkich	2019				2020				2021				2022				2023				2024				2025			
	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1	Q2	Q3	Q4
Korporativ kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti																												
Uy xo'jaliklari kreditlarining YaIMga nisbati tafovuti																												
Jami kreditlar tarkibida korporativ kreditlarning ulushi																												
Korporativ kreditlarning o'sish sur'ati																												
Jami kreditlar tarkibida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ulushi																												
Jismoniy shaxslar bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati																												
Uy-joy narxining aholi ixtiyoridagi daromadga nisbati																												
Ipoteka kreditlarining o'sish sur'ati																												
Ipoteka kreditlari qoldig'i bo'yicha leveraj																												
Uy-joy narxlarining o'sish sur'ati																												
O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalar G-spredi																												



Erta ogohlantiruvchi ko'rsatkichlar xaritasi 2025-yilda valyuta xatarlariga nisbatan bank tizimi ta'sirchanligining ortganligi hamda kredit xatarlarining saqlanib qolganligini ko'rsatmoqda. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i o'sish sur'atining sekinlashishiga qaramay, bank kredit portfeli tarkibida chakana kreditlar ulushi ortib bormoqda (1-ilova).

Xorijiy valyutadagi bank tizimi aktivlari va majburiyatlarining miqdori orasidagi farqni kengayishi 2025-yil yakuni bo'yicha sof ochiq valyuta pozitsiyasining oshishida namoyon bo'ldi. Jumladan, uzun valyuta pozitsiyasining kuzatilishi bank tizimining valyuta kursiga ta'sirchanligini oshirdi.

Milliy valyutadagi kreditlar va g'aznachilik obligatsiyalari foiz stavkalari orasidagi farqning kengayishi kredit tavakkalchiligi mukofotining (credit risk premium) oshayotganligidan dalolat beradi. Xususan, g'aznachilik foiz stavkalariga nisbatan kreditlar foiz stavkasining sekinroq pasayishi banklarning kredit xatarini yuqoriroq baholayotganligini ko'rsatmoqda.

2025-yilda qarzdorlarga yo'naltirilgan makroprudensial siyosat vositalarining qat'iylashtirilishi jismoniy shaxslarning bank va bankdan tashqari jami majburiyatlarini inobatga olgan holdagi umumiy qarz yuki ko'rsatkichidagi ijobiy o'zgarishlarda o'z aksini topdi. Xususan, aholi qarz yuki holatining yaxshilanishi banklardagi jismoniy shaxslar kredit portfeli bo'yicha yo'qotishlar xavfini kamaytirdi.

Shu bilan birga, bank tizimining mamlakat iqtisodiyotidagi yuqori salmog'i banklarda yuzaga keladigan xatarlarning makroiqtisodiy oqibatlarining sezilarli bo'lishidan dalolat beradi.

I. Makromoliyaviy sharoitlar

2025-yil yakunida global moliyaviy sharoitlar yengillashdi. Savdo siyosati bo'yicha yuqori tariflar va noaniqliklarning salbiy ta'siri texnologiya bilan bog'liq investitsiyalarning ortishi hamda yengillashgan moliyaviy sharoitlar orqali qoplandi¹. Shuningdek, qulay moliyalashtirish sharoitlari va valyuta o'zgaruvchanligining pasayishi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlarga portfel investitsiyalar oqimini qo'llab-quvvatladi. Shu bilan birga, milliy valyutadagi qarz bozorlariga barqaror kapital kirib kelishi kuzatildi².

Global noaniqliklar biroz pasaygan. 2025-yilning I yarmida kuzatilgan savdo siyosatiga oid yuqori xavotirlarning ikkinchi yarim yillikda nisbatan yengillashganligi savdo siyosati noaniqlik indeksining (Trade Policy Uncertainty (TPU) Index)³ pasayishida o'z ifodasini topdi. Shuningdek, xalqaro miqyosda iqtisodchilarning noaniqliklar to'g'risidagi xavotirlari biroz pasaygan. Bunda, jahon noaniqlik (World Uncertainty Index, WUI)⁴ indeksining 2025-yil yakunida pasayish fazasiga o'tgan. Iqtisodiy siyosat bo'yicha global noaniqliklarning qisqarganiga qaramay, 2025-yilda jahonda geosiyosiy holat bo'yicha xavotirlarning saqlanib turganligi geosiyosiy xatar (Geopolitical Risk (GPR) Index)⁵ indeksidagi tebranishlarda namoyon bo'ldi.

¹ International Monetary Fund. (2026, April). World Economic Outlook.

² International Monetary Fund. (2026, January). World Economic Outlook.

³ Matteo Iacoviello. (2026). Trade Policy Uncertainty (TPU) Index.

Indeksda 7 ta yetakchi gazetalar inobatga olingan: Boston Globe, Chicago Tribune, Guardian, Los Angeles Times, New York Times, Wall Street Journal, Washington Post.


⁴ World Uncertainty Index. (2026). World Uncertainty Index (WUI): Global.

⁵ Matteo Iacoviello. (2026). Geopolitical Risk (GPR) Index.


Indeksda 10 ta yetakchi gazetalar inobatga olingan: Chicago Tribune, Daily Telegraph, Financial Times, Globe and Mail, Guardian, Los Angeles Times, New York Times, USA Today, Wall Street Journal, Washington Post.

1-chizma. Global noaniqliklar va xatar indekslari


Jahon noaniqlik indeksi*




Jahon iqtisodiy siyosat noaniqlik indeksi**



Savdo siyosati noaniqlik indeksi***



Geosiyosiy xatar indeksi****



Manbalar: Jahon noaniqlik indeksi, Jahon iqtisodiy siyosat noaniqlik indeksi va Matteo Iacoviello.

Izohlar: Indeksning yuqori qiymati noaniqliklar va xatarlar darajasining yuqoriligini, aksincha past qiymati noaniqliklar va xatarlar darajasining pastligini anglatadi.

*Jahon noaniqlik indeksi 143 ta mamlakatni qamrab olib, Economist Intelligence Unit tomonidan mamlakatlar bo'yicha chop etiladigan hisobotlarida qo'llanilgan "noaniqlik" (yoki uning variantlari) so'zlari sonining ushbu hisobotlarning jami so'zlaridagi ulushini 1 mln martaga ko'paytirilgan qiymati va mamlakatlar YaIMdan kelib chiqqan holda o'rtacha tortilgan qiymatini hisoblash orqali aniqlanadi.

**Jahon iqtisodiy siyosat noaniqlik indeksi 18 ta mamlakat bo'yicha hisoblangan ushbu indeks va mamlakatlar YaIMdan kelib chiqqan holda o'rtacha tortilgan qiymatini hisoblash orqali aniqlanadi. Har bir mamlakatda chop etiladigan gazetalardagi "iqtisodiyot", "siyosat" va "noaniqlik" so'zlariga aloqador jumlar ishtirok etgan maqolalarni ushbu gazetalarining jami maqolalardagi ulushi topiladi. So'ngra, ushbu nisbatlarning 1997–2015-yillardagi o'rtacha qiymatini 100 ga tenglashtirish orqali normallashtirilgan holda hisoblanadi.

***Savdo siyosati noaniqlik indeksini aniqlashda jami 7 ta yetakchi gazetalardagi savdo siyosatining noaniqligi muhokama qilinadigan maqolalar umumiy sonining jami maqolalar sonidagi ulushlari hisoblanadi. Yakuniy indeks qiymatini normallashtirilgan holda aniqlashda har bir foiz ulush 100 ga tenglashtiriladi.

****Geosiyosiy xatar indeksini aniqlashda jami 10 ta eng yetakchi gazetalardagi, jumladan AQShning 6 ta, Birlashgan Qirollikning 3 ta va Kanadaning 1 ta chop etiladigan gazetalardagi xatarli geosiyosiy voqealarga oid maqolalar sonining ushbu gazetalardagi jami maqolalar sonidagi ulushlari topiladi. Hisoblangan ulushlarning 1985–2019-yillardagi o'rtacha qiymatini 100 ga tenglash orqali yakuniy geosiyosiy xatar indeksi baholanadi.

Jahon fond bozorlarida ijobiy tendensiya kuzatildi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar hamda jahon Morgan Stanley Capital International (MSCI) indekslarining har biri bo'yicha 2025-yildagi o'rtacha ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 14 foizga oshdi. Jumladan, dunyodagi yetakchi markaziy banklar tomonidan monetar siyosatning yengillashtirilishi bilan bog'liq kutilmalar tufayli shakllangan investorlarning ijobiy munosabati yuqori aksiya narxlarini vujudga keltirdi⁶. Xususan, 2025-yilda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar bo'yicha MSCI indeksining o'rtacha ko'rsatkichi mos ravishda 4 010 va 1 225 AQSh dollarida shakllangan, jahon bo'yicha ushbu ko'rsatkich o'rtacha 915 AQSh dollarini tashkil etdi⁷. Shuningdek, MSCI indeksining ortishi xalqaro moliya bozorlarida investorlarning rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar korxonalari bo'yicha xatar kutilmalarining yaxshilanganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston moliyaviy sharoitlarida yengillashish kuzatildi. 2025-yil yakuniga kelib, tashqi moliyaviy sektorda kuzatilgan barqaror vaziyat, shuningdek bank sektori, valyuta bozori hamda makroiqtisodiy holatdagi ijobiy o'zgarishlar mamlakat moliyaviy sharoitlarining yengillashishida o'z aksini topdi. Xususan, xalqaro moliya bozorlarida investorlar kutilmalarini ifodalaydigan Chikago opsiyonlar birjasining o'zgaruvchanlik indeksi (VIX)⁸ 2025-yil yakunida oylik o'rtacha 16 ko'rsatkichda shakllandi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 2 foizga kamaydi⁹. Shuningdek, 2025-yilda xorijiy valyutadagi O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalariga nisbatan investorlar tomonidan baholangan xatar darajasini o'zida aks ettiruvchi daromadlilik ko'rsatkichi benchmark obligatsiyalarga nisbatan pasaydi.


⁶ International Monetary Fund. (2026, January). World Economic Outlook.

⁷ Morgan Stanley Capital International. (2026). Real Time Index Data Search.


⁸ VIX indeksi – CBOE (Chicago Board Options Exchange) o'zgaruvchanlik indeksi bo'lib, fond bozoridagi stress darajasini ifodalaydi. VIX indeksining qanchalik yuqori bo'lishi bozordagi stress va noaniqliklar darajasining shunchalik yuqori ekanligidan dalolat beradi.

⁹ Federal Reserve Bank of St. Louis. (2026). CBOE Volatility Index: VIX.

2-chizma. MSCI indekslari*, AQSh dollari



3-chizma. Chikago opsionlar birjasining o'zgaruvchanlik indeksi (VIX)**



Manbalar: Morgan Stanley Capital International va Federal Reserve Bank of St. Louis.

Izohlar: *MSCI indekslari 23 ta rivojlangan va 24 ta bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlardagi yirik korxonalarning aksiyalari narxlarini qamrab olgan jahon fond bozoridagi vaziyatni aks ettiruvchi indekslar hisoblanadi. Ushbu indekslar qiymatining ortishi jahon qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalar narxida ijobiy o'zgarish kuzatilganligini anglatadi.

**Chikago opsionlar birjasining o'zgaruvchanlik indeksining (VIX) yuqori bo'lishi bozordagi stress va noaniqliklar darajasining baland ekanligidan, aksincha past bo'lishi stress va noaniqliklarning kamayganidan dalolat beradi.


Ichki valyuta bozorida bosimning pasayishi mamlakat moliyaviy sharoitlari yengillashida namoyon bo'ldi. 2025-yil yakuni bo'yicha AQSh dollariga nisbatan milliy valyuta almashinuv kursi 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,9 foizga mustahkamlandi¹⁰. O'zbekistonning xalqaro rasmiy zaxira aktivlari 66,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Xususan, mamlakatning xalqaro rasmiy zaxira aktivlari 2025-yil davomida 61 foizga, oltinni inobatga olmaganda 23 foizga ko'paygan¹¹. Shuningdek, 2025-yil davomida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga sotilgan chet el valyutasiga qaraganda 9,7 mlrd AQSh dollari miqdorida ko'proq chet el valyutasi sotib olingan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga qaraganda 44 foizga oshgan¹².

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Valyutalar kurslari arxivi.


¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari.

¹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.

3-chizma. O'zbekiston moliyaviy sharoitlar indeksi*



4-chizma. 2026-yilda real YaIM o'sish sur'ati bo'yicha GaR modeli natijalari



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izohlar: *Moliyaviy sharoitlar indeksining¹³ musbat qiymatlari moliyaviy sharoitlarning qat'iyilashishini, manfiy qiymatlari moliyaviy sharoitlarning yengillashini anglatadi.

**Ehtimollik zichlik funksiyasi tasodifiy miqdorning ma'lum oraliqdagi ehtimollik zichligini¹⁴ ifodalaydi.

***Kumulyativ taqsimot funksiyasi tasodifiy miqdorning ma'lum bir qiymatni qabul qilish ehtimollik darajasini¹⁵ ifodalaydi va ehtimollik zichlik funksiyasidan integral olish orqali aniqlanadi.

¹³ O'zbekiston moliyaviy sharoitlar indeksini hisoblash metodologiyasi Markaziy bank tadqiqotlarida keltirilgan.

¹⁴ Ehtimollik zichligi – belgilangan oraliq birligiga to'g'ri keladigan tasodifiy miqdorning sodir bo'lish ehtimolligi. Ehtimollik zichligi 0 dan kichik bo'lmagan qiymatlarga ega bo'ladi.

¹⁵ Ehtimollik darajasi – sodir bo'lish imkonining miqdoriy ko'rsatkichi. Ehtimollik darajasi 0 va 1 oralig'ida shakllanadi.

O‘zbekistonning kelgusi davrlardagi iqtisodiy o‘shiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xatarlar ko‘lami qisqardi. 2025-yil yakuni bo‘yicha xatarlar sharoitidagi iqtisodiy o‘sh (Growth at Risk, GaR)¹⁶ modeli natijasiga ko‘ra, 5 foiz ehtimollik bilan xatarlar sharoitida mamlakat real YaIM o‘sh sur’ati keyingi bir yilda 6,9 foizda shakllanishi mumkin. 2025-yil mamlakatda xatarlar ko‘laminin qisqarganligi hamda moliyaviy sharoitlarning yengillashganligi hisobiga mazkur ko‘rsatkich 2024-yil yakunida baholangan darajasiga nisbatan 1 foiz bandga yuqori bo‘ldi.

Yakuniy iste’mol xarajatlari hisobiga ichki talabning ortishi mamlakat iqtisodiy o‘shiga hissa qo‘shmoqda. 2025-yilda O‘zbekiston YaIMning yillik real o‘sh sur’ati 7,7 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 1 foiz bandga ortdi¹⁷. Xususan, 2025-yilda sof eksport manfiy saldosi kengayishining real YaIM o‘shiga salbiy ta’siri mamlakatda ichki talabning ortishi hisobiga qoplandi. 2025-yilda ichki talabning real YaIM o‘sh sur’atiga ta’siri ijobiy 5,3 foiz bandni, sof eksport manfiy saldosi salbiy 2,2 foiz bandni tashkil etdi. Ichki talabning yuqori shakllanishida uy xo‘jaliklari yakuniy iste’mol xarajatlarining doimiy narxlarda yillik 9,5 foizga¹⁸ o‘shishi asosiy omil bo‘ldi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sh sur’atlari asosiy savdo hamkor davlatlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lishi kutilmoqda. XVJning prognozlariga ko‘ra, O‘zbekistonda real YaIM yillik o‘sh sur’ati 2026-yil va 2027-yilda mos ravishda 6,5 va 5,9 foizlarni¹⁹, Jahon banki prognozi bo‘yicha 6,4 va 6,7 foizlarni²⁰ tashkil etmoqda. Shuningdek, XVJ ma’lumotlari asosida hisoblangan O‘zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlari bo‘yicha o‘rtacha iqtisodiy o‘sh sur’atlari 2026-yilda 3,8 foiz, 2027-yilda 3,5 foiz darajasida bo‘lishi prognoz qilinmoqda.

¹⁶ Xatarlar sharoitidagi iqtisodiy o‘sh (Growth at Risk) modeli metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.


¹⁷ Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). Yalpi ichki mahsulot o‘sh sur’atlari (yakuniy iste’mol usulida, choraklik).

¹⁸ Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). Yakuniy iste’mol xarajatlarining o‘sh sur’atlari (choraklik).


¹⁹ International Monetary Fund. (2026, April). World Economic Outlook.

²⁰ World Bank. (2026, April). Industrial Policy. Europe and Central Asia Economic Update.


5-chizma. YaIM yillik o'sishining dekompozitsiyasi*, foiz band




6-chizma. O'zbekiston va asosiy savdo hamkor davlatlar iqtisodiyotining²¹ real o'sish sur'atlari, %**



7-chizma. Joriy operatsiyalar hisobi balansi, mlrd AQSh dollari



8-chizma. Joriy operatsiyalar hisobi balansi manfiy saldosinging YaIMga nisbati, %




Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi, XVJ va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izohlar: *Ichki talab yakuniy iste'mol xarajatlari va yalpi jamg'arishlar yig'indisidan iborat. YaIMni yakuniy iste'mol usulida hisoblashda yuzaga kelgan statistik tafovut chizmada aks ettirilmagan.


**Chizmadagi to'rtburchak shakl O'zbekiston va ma'lumotlari qo'llanilgan savdo-hamkor davlatlar uchun YaIMning o'rtacha tortilgan o'sish sur'atlari orasidagi farqni ko'rsatadi. O'sish sur'atlari o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, to'rtburchak shakli ham shunchalik uzun bo'ladi. Agarda O'zbekiston YaIMining o'sish darajasi o'rtacha tortilgan o'sish sur'atidan ortiq bo'lsa, to'rtburchakning ichki qismi to'liq bo'yalgan rangda va aksincha kichik bo'lsa, oq rangda bo'ladi. Vertikal qora chiziqning eng yuqori nuqtasi ma'lum bir yil uchun mazkur davlatlar orasida maksimum o'sish ko'rsatkichini, uning quyi nuqtasi esa minimum o'sish sur'atiga ega bo'lgan davlatning ko'rsatkichini bildiradi.

²¹ Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya, Xitoy va Qozog'iston davlatlari hisobga olingan.

9-chizma. O‘zbekiston tijorat banklarining sof tashqi aktivlari tarkibi, trln so‘m



10-chizma. O‘zbekiston banklarining norezidentlar oldidagi majburiyatlarining YaIMga nisbati, %



Manba: Milliy statistika qo‘mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Joriy operatsiyalar hisobi balansi manfiy saldosinging YaIMga nisbati qisqarmoqda. 2025-yilda YaIMga nisbatan joriy operatsiyalar hisobi balansi manfiy saldosi 3,9 foizni, 2024-yilda 4,7 foizni tashkil etgan²². Xususan, 2025-yildagi 19,9 mlrd AQSh dollari miqdoridagi savdo balansi taqchilligi birlamchi va ikkilamchi daromadlarning 14,1 mlrd AQSh dollarlik ijobiy saldosi²³ hisobiga qisman qoplandi. Shuningdek, XVJ tomonidan O‘zbekistonning joriy operatsiyalar hisobi balansi manfiy saldosinging YaIMga nisbati 2026 va 2027-yillarda mos ravishda 1,3 va 3,4 foizlarda bo‘lishi²⁴ prognoz qilinmoqda.

O‘zbekiston bank tizimining global makromoliyaviy sharoitlarga ta’sirchanligi saqlanib qolmoqda. 2025-yilda tijorat banklarining norezidentlar oldidagi majburiyatlari²⁵ 11 foizga, norezidentlarga bo‘lgan talablar²⁶ 29 foizga o‘sd. Tijorat banklarining sof tashqi aktivlari bo‘yicha manfiy saldosi 2025-yil

²² International Monetary Fund. (2026, April). World Economic Outlook.

²³ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansi (standart ko‘rinishi).

²⁴ International Monetary Fund. (2026, April). World Economic Outlook.

²⁵ Norezidentlar oldidagi majburiyatlar – tijorat banklari tomonidan norezidentlardan jalb qilingan depozitlar va kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlar, shuningdek subordinar qarzlarni ifodalaydi.

²⁶ Norezidentlarga bo‘lgan talablar – tijorat banklari kassalaridagi naqd chet el valyutasi, norezident banklarda ochilgan vakillik va depozit hisobvaraqlaridagi mablag‘lar hamda ularga hisoblangan foizlar, shuningdek norezidentlarga ajratilgan kreditlar, kiritilgan investitsiyalar hamda bo‘nak (avans) to‘lovlari aks ettiriladi.

yakunida 178,3 trln so‘mni tashkil etib, yillik hisobda 6 foizga ortgan²⁷. O‘z navbatida, bank tizimi bo‘yicha norezidentlar oldidagi majburiyatlar nominal YaIMga nisbatan sekinroq o‘tdi. Jumladan, tijorat banklarining norezidentlar oldidagi majburiyatlarining YaIMdagi ulushi 2025-yil yakunida 13 foizni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 1 foiz bandga kamaydi. Bank tizimining tashqi xatarlarga sezgirliги oshgan bo‘lsa-da, mamlakat iqtisodiyotining barqaror va yuqori o‘sishi banklarning global integratsiyalashuvi bilan bog‘liq xavotirlarni kamaytirmoqda.


²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.

1-havola. Yaqin Sharq mintaqasidagi holatning moliyaviy barqarorlikka ta'siri

Yaqin Sharqdagi geosiyosiy o'zgarishlar energiya narxlarining ortishi, global moliyaviy sharoitlarning qat'iylashishi va tashqi savdoning murakkablashuvi orqali O'zbekiston moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfi saqlanib qolmoqda.

Xususan, energiya narxlarining ortishi global inflyatsiyaning yuqorilashiga va yuqori foiz stavka muhitining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Global moliyaviy sharoitlarning qat'iylashishi dunyoning yetakchi markaziy banklari tomonidan asosiy foiz stavkalarining oshirilishi va suveren xalqaro obligatsiyalarga talabning pasayishi orqali O'zbekistonning tashqi moliyalashtirish xarajatlarini oshiradi. Bundan tashqari, tashqi savdo bilan bog'liq o'zgarishlar import mahsulotlari narxining ortishi va eksport tovarlari raqobatbardoshligining pasayishi hisobiga O'zbekiston savdo balansi manfiy saldosining kengayishiga sabab bo'lishi mumkin.

11-chizma. Yaqin Sharqdagi geosiyosiy o'zgarishlarning transmission kanallar orqali O'zbekiston moliyaviy barqarorligiga ta'siri



Manba: Markaziy bank.

2026-yil boshida global energiya narxlarining sezilarli darajada oʻsishi kuzatildi. Xalqaro valyuta jamgʻarmasining maʼlumotlariga koʻra, 2026-yilda global miqyosda neft narxi 22 foizga, tabiiy gaz narxi 17 foizga oshishi prognoz qilingan²⁸. Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy keskinliklar taʼsirida neft taʼminotidagi uzilishlar va savdo yoʻllaridagi cheklovlar global energiya narxlarining keskin oshishiga sabab boʻldi. Jumladan, Yaqin Sharqdagi beqarorlik fonida global miqyosda oʻrtacha neft va tabiiy gaz narxlari 2026-yil mart oyida fevral oyiga nisbatan mos ravishda 41 va 24 foizga oʻsdi²⁹. Global energiya narxlarining keskin ortishi transport va ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi, bu esa global inflyatsiya bosimini kuchaytiradi.

Geosiyosiy nobarqarorlik taʼsirida energiya narxlarining ortishi global inflyatsiya kutilmalarini oshirdi. Jumladan, Yaqin Sharqdagi geosiyosiy keskinliklar taʼsirida XVJ global inflyatsiya prognozlarini oshirdi. 2025-yil oktyabr oyidagi prognozlarda 2026-yildagi oʻrtacha global inflyatsiya darajasi 3,7 foizni tashkil etishi³⁰ belgilangan edi. 2026-yil aprel oyida global inflyatsiya kutilmalari qayta koʻrib chiqildi hamda 4,4 foizgacha oshirildi³¹. Inflyatsion kutilmalarning yuqori baholanishi xalqaro moliya bozorlarida foiz stavkalarining ortishida oʻz ifodasini topmoqda.

Global inflyatsion bosim yuqori foiz stavka muhitini yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan, global miqyosda asosiy stavkalar boʻyicha kutilmalar yoʻnalishi yuqoriga koʻtarildi, xususan baʼzi mamlakatlarda asosiy stavkalar kutilmasi pasayishdan ortish dinamikasiga oʻzgardi. Bu esa, narxlar oʻsishini moʻtadillashtirish uchun markaziy banklar tomonidan siyosatning qatʼiylashtirilishi investorlar kutilmalarida aks etmoqda³². Xususan, Yevropa Markaziy banki tomonidan yevro hudud uchun asosiy foiz stavka 2026-yilda 2 foizdan 2,5 foizgacha oshirilishi kutilmoqda³³.

Yuqori foiz stavka muhitining yuzaga kelishi tashqi moliyalashtirish xarajatlarini oshiradi. Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy keskinliklarning sodir boʻlishi investorlarning xatar kutilmalari ortishi sababli moliya bozorlarida foiz stavkalarining koʻtarilishiga taʼsir koʻrsatdi. Jumladan, 6 oylik EURIBOR foiz stavkasi 2026-yil aprel oyida oʻrtacha 2,5 foizgacha³⁴, 12 oylik EURIBOR foiz stavkasi 2026-yil boshiga nisbatan 0,5 foiz bandga ortib, 2,7 foizgacha koʻtarildi³⁵. Xalqaro moliya bozorlarida foiz stavkalarining ortishi moliya tizimi ishtirokchilari, xususan tijorat banklari uchun tashqi qarzlarga xizmat koʻrsatish xarajatlarini oshirishi mumkin.

²⁸ International Monetary Fund. (2026, April). World Economic Outlook.

²⁹ World bank. (2026). World Bank Commodities Price Data (The Pink Sheet).

³⁰ International Monetary Fund. (2025, October). World Economic Outlook.

³¹ International Monetary Fund. (2026, April). World Economic Outlook.


³² International Monetary Fund. (2026, April). Global Financial Stability Report.

³³ International Monetary Fund. (2026, April). World Economic Outlook.


³⁴ European Central Bank. (2026). Euribor 6-month - Historical close, average of observations through period, Euro area, Monthly.

³⁵ European Central Bank. (2026). Euribor 1-year - Historical close, average of observations through period, Euro area, Monthly.


12-chizma. Global energiya narxlarining yillik o'sish prognozi*, %




13-chizma. Global inflyatsiya prognozi, %**



14-chizma. Uzoq muddatli EURIBOR* foiz stavkasi dinamikasi, %**



15-chizma. Xorijiy valyutada joylashtirilgan O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalari joriy narxi**, %**



Manbalar: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, XVJ va Yevropa markaziy banki.

Izohlar: Global neft narxini hisoblashda Brent, Dubay va West Texas Intermediate markali neft narxlarini inobatga olingan. Shuningdek, tabiiy gaz narxi Yevropa, Yaponiya va AQSh tabiiy gaz narxlarini o'z ichiga oladi.


**Global inflyatsiya darajasi har bir mamlakat bo'yicha inflyatsiya ko'rsatkichi hamda xarid qobiliyati paritetiga asoslangan YaIM hajmidan kelib chiqib o'rtacha tortilgan qiymatini hisoblash orqali aniqlanadi. Global inflyatsiya darajasi sifatida o'rtacha iste'mol narxlarini o'zgarishi inobatga olingan.

***Euro Interbank Offered Rate (EURIBOR) – Yevropa tijorat banklarining bir-biriga kredit ajratishidagi o'rtacha foiz stavkasini ifodalaydi. Xususan, ushbu foiz stavkalar xalqaro pul bozorlarida kreditlar ajratishda benchmark foiz stavkasi sifatida foydalaniladi.


****O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalari joriy narxi obligatsiyalarning o'z nominal qiymatiga nisbatan o'zgarishini ifodalaydi.

Moliyaviy beqarorlik sharoitida investorlar o'z mablag'larini xavfsiz aktivlarga yo'naltirishga moyilligi kuchayadi. Jumladan, global noaniqliklar rivojlanayotgan mamlakatlarning suveren qarz instrumentlariga bo'lgan talabni kamaytirib, ushbu qimmatli qog'ozlar bozor narxining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, 2026-yil mart oyida O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalari bozor narxida pasayish kuzatilib, nisbatan pastroq foiz stavkada chiqarilgan obligatsiyalar bozor narxi nominal qiymatidan pastda shakllandi. Global noaniqliklarning davom etishi davlat qimmatli qog'ozlarini xalqaro moliya bozorlariga qo'shimcha joylashtirishda yuqori foiz stavkaning yuzaga kelishiga va natijada qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlarning ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

16-chizma. O'zbekistonning Yaqin Sharq mamlakatlari* bilan tashqi savdo aylanmasi



17-chizma. O'zbekistonning Erondan o'tuvchi temir yo'l savdo koridori orqali mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasi**



■ Tashqi savdo aylanmasi, mlrd AQSh dollari
— Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % (o'ng shkala)

Manba: Milliy statistika qo'mitasi.

Izohlar: *Jahon bankining Yaqin Sharq mamlakatlari guruhi bo'yicha Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari, Iroq, Isroil, Iordaniya, Livan, Misr, Saudiya Arabistoni, Suriya Arab Respublikasi, Ummon, Falastin, Eron, Yaman, Quvayt va Qatar davlatlari inobatga olingan.

**O'zbekiston Eron orqali o'tuvchi temir yo'l savdo koridoridan foydalangan holda Bangladesh, Birlashgan Arab Amirliklari, Vyetnam, Indoneziya, Pokiston, Malayziya, Ummon va Hindiston mamlakatlari bilan tashqi savdoni amalga oshiradi.

O'zbekiston tashqi savdosida Yaqin sharq mintaqasining ahamiyati ortib bormoqda. Jumladan, 2025-yilda O'zbekistonning Yaqin Sharq mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yilga nisbatan 52 foizga oshib, 2,2 mlrd AQSh dollariga³⁶ yetdi. Shu bilan birga, O'zbekistonning Fors ko'rfazi mamlakatlari³⁷, shuningdek Hindiston, Pokiston, Bangladesh hamda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari³⁸ bilan tashqi savdo munosabatlari Eron orqali o'tuvchi xalqaro transport koridoriga tayanadi³⁹. Xususan, O'zbekistonning Eron orqali o'tuvchi transport koridoridan foydalangan holda mamlakatlar bilan amalga oshiriladigan tashqi savdo aylanmasi 2025-yilda 3,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, mamlakat jami tashqi savdo aylanmasining qariyb 5 foiziga to'g'ri kelgan.

Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy keskinliklar O'zbekistonning tashqi savdo balansi manfiy saldosini kengayishga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, mintaqadagi geosiyosiy vaziyat oqibatida xalqaro savdo tranzit yo'llarida cheklovlarning vujudga kelishi, sug'urta va logistika xarajatlarining oshishi hamda yetkazib berish muddatlarining uzayishi tashqi savdo samaradorligini pasaytirishi mumkin. Ushbu sharoitda, import mahsulotlari narxining ortishi va eksport raqobatbardoshligining pasayishi natijasida mamlakatda tashqi savdo manfiy saldosining kengayishi kutiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda xorijiy valyuta taklifini qisqartirib, milliy valyuta kursiga bosimni yuzaga keltirishi mumkin.

Yaqin Sharq mintaqasidagi vaziyatning keskinlashuvi bank tizimi to'lov qobiliyati va likvidligini makro stress-test orqali baholash uchun ishlab chiqilgan xatarli ssenariyda inobatga olingan. Jumladan, xatarli ssenariy bo'yicha real YaIM o'sishini GaR modeli orqali baholashda tashqi geosiyosiy noaniqliklar ta'sirida yuqori xomashyo narxlari va ta'minot zanjiridagi uzilishlar natijasida ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi, mamlakatda yaratiladigan taklif hajmining qisqarishi kabi omillar hisobga olingan. Shuningdek, xatarli ssenariyni ishlab chiqishda iqtisodiy o'sishning pasayishi hamda global inflyatsion bosim ta'sirida yuqori foiz stavka muhitining yuzaga kelishi natijasida kredit xatarining ortishi inobatga olingan. Bundan tashqari, tashqi moliyalashtirish xarajatlarining yuqorilashi ta'sirida banklarning xorijiy valyutadagi sof foizli daromadida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy o'zgarishlar xatarli ssenariyda baholangan (V Bob).

³⁶ Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati (mamlakatlar kesimida, oylik).

³⁷ Fors ko'rfazi mamlakatlaridan Birlashgan Arab Amirliklari va Ummon bilan O'zbekiston tashqi savdosi amalga oshiriladi.

³⁸ Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari sifatida Tailand, Malayziya, Indoneziya va Vyetnam inobatga olingan.

³⁹ Transport vazirligi. (2019). O'zbekiston Respublikasining xalqaro transport yo'laklari.


II. Moliyaviy sektor

2.1. Bank sektori

O‘zbekiston bank sektori moliyaviy barqaror va xatarlarga bardoshli shakllanmoqda. 2025-yilda banklar faoliyatida yuzaga kelgan yuqori daromadlilik, depozitlar portfelining kengayishi hamda kredit yo‘qotishlari ehtimolining pasayishi natijasida bank tizimida to‘lov qobiliyati yanada mustahkamlandi. Shu bilan birga, bank aktivlari tarkibida yuqori likvidli aktivlar miqdorining ortishi, depozit portfelida talab qilib olinguncha depozitlar ulushining qisqarishi bank tizimi likvidligining yanada yaxshilanishiga xizmat qildi.

Bank tizimi moliyaviy stress holati o‘zining tarixiy eng pastki qiymatigacha tushdi. 2025-yil yakuni bo‘yicha ichki valyuta bozori hamda bank sektorida kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar, shuningdek pul bozoridagi holatning barqaror saqlanib qolganligi moliyaviy stress indeksining⁴⁰ o‘rtacha va bir standart chetlanishidan past shakllanishida o‘z ifodasini topdi.

18-chizma. O‘zbekiston moliyaviy stress indeksi




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Moliyaviy stress indeksining 1 ga yaqin bo‘lishi stress darajasining yuqoriligini, 0 ga yaqin bo‘lishi stress darajasining pastligini ko‘rsatadi.


⁴⁰ O‘zbekiston moliyaviy stress indeksini hisoblash metodologiyasi Markaziy bank tadqiqotlarida keltirilgan.

Banklarda likvidlilikning mustahkamlanishi hamda daromadlilikning ortishi moliyaviy stress indeksining pasayishiga xizmat qildi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bank tizimi bo'yicha so'ndirish muddati bir yildan yuqori depozitlar qoldig'i 156,7 trln so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 31 foizga o'sdi⁴¹. Uzoqroq muddatli depozitlar hajmining ortishi, shuningdek bank tizimi bo'yicha jami depozit qoldig'ining uzoq muddatli trendiga nisbatan yuqori shakllanishi banklar likvidligi holatining mustahkamlanishida o'z ifodasini topdi.

19-chizma. Banklar qirgimida ΔCoVaR



20-chizma. Bank tizimi uchun ΔCoVaR



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: ΔCoVaR ⁴² ko'rsatkichining o'sishi bank tizimida tizimli xatarlar oshayotganligini, pasayishi esa kamayayotganligini anglatadi.

Bank tizimi uchun ΔCoVaR ko'rsatkichi eksponensial harakatlanuvchi o'rtachasi orqali ko'rsatilgan⁴³.

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari.

⁴² Banklar qirgimida ΔCoVaR ko'rsatkichini hisoblashda kuzatuvlar davrida ma'lumotlarning uzoq vaqt qatori mavjudligi, shuningdek ma'lum bir bankning bank tizimi umumiy holatidan keskin farq qilmasligidan kelib chiqqan holda 33 ta bank inobatga olingan. Bank tizimi uchun ΔCoVaR ko'rsatkichi har bir bank bo'yicha ΔCoVaR ko'rsatkichi hamda bank kapitalining bank tizimi jami kapitalidagi ulushlarining o'zaro ko'paytmalari yig'indisini absolyut qiymatlari orqali hisoblangan.

Eksponensial harakatlanuvchi o'rtacha tasodifiy va qisqa muddatli tebranishlarni kamaytirish orqali ko'rsatkich qiymatini tekislash usuli hisoblanadi. Eksponensial harakatlanuvchi o'rtacha oddiy harakatlanuvchi o'rtachadan farqli ravishda, ko'rsatkichning so'nggi qiymatlariga yuqoriroq vazn berishi natijasida ko'rsatkich qiymatidagi joriy o'zgarishlar aniqroq ifodalanadi.

⁴³ Eksponensial harakatlanuvchi o'rtacha metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

Moliyaviy stressning bank tizimiga tarqalishi bilan bog‘liq xavf darajasi kamaygan. 2025-yilda banklar daromadining ortishi, likvidlilik va to‘lov qobiliyatining yaxshilanishi bank tizimi uchun xatar ostidagi yo‘qotishning shartli qiymati (Delta Conditional Value-at-Risk, ΔCoVaR)⁴⁴ ko‘rsatkichining pasayishida o‘z ifodasini topdi. Shuningdek, banklar qirqimidagi ΔCoVaR ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ushbu ijobiy tendensiya moliyaviy stressning bank tizimiga tarqalish xatari kamayganligidan dalolat bermoqda.

Tizimli ahamiyatga molik banklarning defolt ehtimoli pasaygan. Tizimli shartli talablar tahlili (Systemic Contingent Claims Analysis, Systemic CCA)⁴⁵ banklarda defoltgacha bo‘lgan masofa⁴⁶ 2025-yilda kengayganligini ko‘rsatdi. Tanlab olingan tizimli ahamiyatga molik banklar⁴⁷ kapitali bozor qiymatining o‘sishi, xatarsiz foiz stavkaning pasayishi defoltgacha bo‘lgan masofaning musbat darajada saqlanib qolishida o‘z ifodasini topdi. Tahlil qilingan banklarda defoltgacha bo‘lgan masofaning ortishi natijasida model asosida baholangan defolt ehtimolining oddiy arifmetik o‘rtacha qiymati 2025-yil davomida 4 foiz bandga pasayib, 46 foizda shakllandi.

Banklarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar ta’siridagi tarqalish xatari ko‘lami pasaygan. 2025-yilda tahlil qilingan tizimli ahamiyatga molik banklar aktivlari bo‘yicha kutilayotgan yo‘qotishlari umumiy miqdori 29 foizga kamaydi. O‘z navbatida, bank tizimi aktivlari bo‘yicha 5 foiz ehtimollikda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarning bank tizimi aktivlaridagi ulushi 2025-yilda 4 foiz bandga pasayib, yil yakunida 12 foizni tashkil etdi. Buning natijasida, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tarqalish xatari bo‘yicha baholangan jami ehtimoliy yo‘qotishlar miqdori qisqardi.


⁴⁴ Dinamik ΔCoVaR ni hisoblash metodologiyasi Markaziy bank tadqiqotlarida keltirilgan.

⁴⁵ Tizimli shartli talablar tahlili metodologiyasi bo‘yicha batafsil ma’lumot 2025-yil I yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.


⁴⁶ Defoltgacha bo‘lgan masofa baholangan aktivlar qiymatining belgilangan xatar chegarasidan uzoqda bo‘lgan standart og‘ishlar sonini ifodalovchi o‘lchov hisoblanadi.

⁴⁷ Tizimli shartli xatarlar tahlili yondashuvida banklarning aksiyalari fond birjasidan ro‘yxatdan o‘tganligi, aksiyalar narxining o‘zgaruvchanligi hamda vaqt qatorlari bo‘yicha ma’lumotlarning yetarliligi asosida tizimli ahamiyatga molik banklar tanlab olingan.


21-chizma. Defoltgacha masofa⁴⁸, standart og'ishlar soni




22-chizma. Defolt ehtimoli, %⁴⁹



23-chizma. Tizimli ahamiyatga molik banklar aktivlarining ehtimoliy yo'qotishlari, natural logarifm⁵⁰



24-chizma. Bank tizimi aktivlarining eng xatarli⁵¹ holatidagi yo'qotishlarning aktivlarga nisbati, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Defoltgacha bo'lgan masofaning 0 ga teng bo'lishi defolt ehtimolining 50 foizga tengligini, musbat qiymati defolt ehtimolining 50 foizdan kam ekanligini, aksincha manfiy qiymati defolt ehtimolining 50 foizdan yuqori ekanligini anglatadi.

⁴⁸ Defoltgacha bo'lgan masofa umumlashtirilgan defolt ehtimolidan kelib chiqqan holda teskari standart normal taqsimot yordamida aniqlanadi:

$$\Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^x e^{-\frac{t^2}{2}} dt$$

$$y = \Phi^{-1}(1 - x)$$

Bunda,

$\Phi(x)$ – standart normal taqsimotning kumulyativ taqsimot funksiyasi;

y – umumiy defoltgacha bo'lgan masofa;

x – umumiy defolt ehtimoli.

⁴⁹ Banklarning defolt ehtimoli arifmetik o'rtacha qiymatidan foydalanib umumlashtirilgan.

⁵⁰ Bank aktivlarining ehtimoliy yo'qotishlarini umumlashtirish maqsadida har bir tijorat banklarining ehtimoliy yo'qotishlari yig'indisi so'm birligidan natural logarifm ko'rinishida standartlashtirilgan.

⁵¹ Bank tizimi aktivlari bo'yicha eng xatarli holatidagi yo'qotishlari (Expected shortfall) tizimli ahamiyatga molik banklarning ehtimoliy yo'qotishlari hajmi hamda banklarning o'zaro bog'liqligi orqali aniqlanadi va aktivlardagi yo'qotishlarning $\text{VaR}(\alpha)=0,95$ darajasidan oshadigan moliyaviy zararlarni ehtimoliy qiymatini ifodalaydi.

Kredit bozori holati yaxshilangan. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, xususiyl sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati 28 foizni tashkil etib, 2025-yilning mos holatiga nisbatan deyarli o‘zgarishsiz shakllandi. Shuningdek, 2025-yilda foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti⁵² 20 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 8 foiz bandga oshdi. Bunda, 2025-yilda foizli xarajatlarning 2024-yilga nisbatan 15 foizga ortishiga qaramay, soliq to‘lagunga qadar sof foydani 1,9-martaga ko‘payganligi⁵³ hisobiga foizli xarajatlarning qoplanish darajasi mustahkamlandi.

Qarzga xizmat ko‘rsatuvchi daromadlarning ijobiy tendensiyasi kuzatilmoqda. Aholi depozitlari chakana kredit portfeliga nisbatan tezroq sur‘atlarda o‘smoqda. 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, jismoniy shaxslarning depozit qoldig‘i 169,1 trln so‘mni tashkil etib, yillik hisobda 30 foizga oshdi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan bank kreditlari qoldig‘i 24 foizga ko‘payib, 220,3 trln so‘mga yetdi⁵⁴. Shuningdek, 2025-yilda aholi daromadining ortishi hisobiga jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning aholi ixtiyoridagi daromadiga nisbati 17 foizga kamaydi.

Bank tizimi moliyaviy barqarorlik holati mustahkamlandi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, substandart va muammoli kreditlarning jami kredit portfelidagi ulushi 15 foizni tashkil etib, 2025-yilning mos holatiga nisbatan 6 foiz bandga kamaygan. Shuningdek, bank tizimi aktivlar rentabelligi 2025-yil davomida 1,4 foizdan 2,2 foizgacha oshdi⁵⁵. Banklarning likvidlilik va kapital monandlik ko‘rsatkichlari yaxshilandi.


⁵² Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti soliq to‘lagunga qadar sof foydani foizli xarajatlar miqdoriga bo‘lish orqali aniqlanadi.

⁵³ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.


⁵⁴ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.

25-chizma. Kredit bozori holati




26-chizma. Moliyaviy barqarorlik holati




Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Ko'rsatkichlarning 0 ga yaqin joylashishi holatning yaxshilanganligini, aksincha 1 ga yaqin joylashishi yomonlashganini ifodalaydi.

27-chizma. I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti, %





28-chizma. Kapital monandlik koeffitsiyenti, %



Interkvartil oralik
Bank tizimi
Mediana
Tizimli ahamiyatga molik banklar

29-chizma. Kapital monandlik koeffitsiyentlari o'zgarishining taqsimlanishi, %



Manba: Markaziy bank.

Banklar yetarlicha kapital bufer bilan ta'minlangan. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bank tizimi bo'yicha jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyenti 18,3 foizni tashkil etib, 2025-yilda 0,9 foiz bandga ortdi. Bunda, kapital miqdorining ortishi 3,1 foiz bandlik, tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligidagi o'zgarish 0,9 foiz bandlik ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyenti 17,9 foizda shakllandi. Shuningdek, kapital yetarlilik ko'rsatkichlari bo'yicha interkvartil oraliqlari⁵⁶ qisqarib, bank tizimi va tizimli ahamiyatga molik banklar ko'rsatkichlari mediana qiymatiga nisbatan biroz pastroqda joylashdi. Xususan, bank tizimi bo'yicha I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti 14,7 foizni, tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha 14,8 foizni tashkil etdi. 2026-yil 1-yanvardan e'tiboran tizimli ahamiyatga molik banklar uchun 1 foiz miqdorida qo'shimcha kapital buferining joriy etilishi⁵⁷ ushbu banklarning to'lov qobiliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bank tizimi aktivlari tarkibida investitsiya va qimmatli qog'ozlar ulushi ortgan. 2026-yil 1-yanvar holati bo'yicha bank tizimi jami aktivlari miqdori yillik hisobda 20 foizga ortib, 924,8 trln so'mga yetdi. Bank aktivlari tarkibida 63 foizi kreditlar, 11 foizi investitsiya va qimmatli qog'ozlar hissasiga to'g'ri keldi. Aktivlar tarkibida kreditlarning ulushi yuqori darajada saqlanib qolganiga qaramay, banklarning investitsion portfeli ortib bormoqda. Jumladan, 2025-yilda bank tizimi aktivlari tarkibidagi investitsiya va qimmatli qog'ozlarning sof miqdori 73 foizga ortib, 103 trln so'mni tashkil etdi.


Bank tizimi moliyalashtirish manbalari tarkibida depozitlar ko'lami tobora ortib bormoqda. 2025-yil yakuni bo'yicha bank tizimi moliyalashtirish manbalarining 45 foizi depozitlar, 27 foizi kreditlar hamda 15 foizi kapital hissasiga to'g'ri keldi. Bank majburiyatlari va kapitali tarkibida kreditlarning ulushi 4 foiz bandga qisqargan bo'lsa, depozitlarning ulushi 5 foiz bandga ortgan. Bunda, 2026-yil 1-yanvar holatiga depozitlarning qoldig'i 417,3 trln so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos holatiga nisbatan 35 foizga oshgan⁵⁸.

⁵⁶ Interkvartil oraliq – bu 25 va 75 kvantil chegaralari orasidagi oraliq.


⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktyabrdagi "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 21/6-sonli qarori.

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.


30-chizma. Bank aktivlarining dekompozitsiyasi, %




31-chizma. Bank manbalarining dekompozitsiyasi, %



32-chizma. Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR), %




33-chizma. Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR), %




Manba: Markaziy bank.

Bank tizimida likvidlilik holati barqaror shakllanmoqda. 2025-yil yakunida bank tizimi bo'yicha likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR)⁵⁹ 208 foizni, sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR)⁶⁰ 120 foizni tashkil etib, yillik hisobda mos ravishda 14 va 5 foiz bandga ortdi. Shuningdek, tizimli ahamiyatga molik banklarning LCR va NSFR ko'rsatkichlari bank tizimi mediana qiymatidan pastda shakllanib, mos ravishda 182 va 120 foizlarni tashkil etdi.

34-chizma. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda⁶¹ tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi, %



35-chizma. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda⁶² tavakkalchilikka tortilgan aktivlar rentabelligi, %



■ Interkvartil oraliq
— Mediana
— O'zbekiston

Manbalar: vakolatli davlat organlari va Markaziy bank hisob-kitobi.

⁵⁹ Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR) – yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati orqali aniqlanadi.

⁶⁰ Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR) – barqaror moliyalashtirishning mavjud summasining barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga nisbati orqali aniqlanadi.

⁶¹ XVJ tasnifining Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar (Emerging Market and Developing Economies) guruhi bo'yicha Albaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Bolgariya, Braziliya, Butan, Vengriya, Gvatemala, Gonduras, Gruziya, Dominikan, Zambiya, Kolumbiya, Kongo Demokratik Respublikasi, Lesoto, Mavrikiy, Malayziya, Maldiv orollari, Meksika, Moldova, Mo'g'uliston, Panama, Paragvay, Pokiston, Polsha, Ruminiya, Samoa, Seyshel orollari, Somali, Tailand, Tojikiston, Tonga, Trinidad va Tobago, Ukraina, Chernogoriya, Shimoliy Makedoniya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Quvayt va Hindiston davlatlari inobatga olingan.

⁶² XVJ tasnifining Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar (Emerging Market and Developing Economies) guruhi bo'yicha Albaniya, Braziliya, Vengriya, Gvatemala, Gonduras, Dominikan, Kolumbiya, Kongo Demokratik Respublikasi, Malayziya, Maldiv orollari, Meksika, Moldova, Panama, Paragvay, Pokiston, Seyshel orollari, Tonga, Shimoliy Makedoniya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Hindiston davlatlari inobatga olingan.

O‘zbekiston bank tizimida tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi⁶³ yuqoriligicha qolmoqda. 2025-yilda O‘zbekiston bank tizimi bo‘yicha tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi 93 foizdan 89 foizgacha pasaydi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlari interkvartil oralig‘i yuqori chegarasidan 20 foiz bandga balandroq shakllandi.

O‘zbekiston bank tizimining tavakkalchilikka tortilgan aktivlari rentabelligi nisbatan past shakllanmoqda. O‘zbekiston bo‘yicha tavakkalchilikka tortilgan aktivlar rentabelligi⁶⁴ 2025-yil yakunida 2,4 foizni tashkil etdi. Tavakkalchilikka tortilgan aktivlar rentabelligi bo‘yicha O‘zbekiston ko‘rsatkichi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarning interkvartil oralig‘idan pastda joylashgan.

Bank tizimida yuqori daromadlilik kuzatilgan. 2025-yilda bank tizimi bo‘yicha jami sof foyda⁶⁵ miqdori 15,5 trln so‘mda shakllanib, 2024-yilga qaraganda 2,2 barobarga ko‘paydi. Sof foydaning yuqori sur‘atlarda o‘lishi natijasida 2025-yilda banklarning kapital rentabelligi⁶⁶ 5,8 foiz bandga ortib, 2026-yil 1-yanvar holatiga 12,4 foiz miqdorida shakllandi.

Aktivlar rentabelligida⁶⁷ ijobiy tendensiya kuzatildi. 2025-yil yakuni bo‘yicha aktivlar rentabelligi 2,2 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 0,8 foiz bandga ortdi. 2025-yilda aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar miqdorining 2024-yilga nisbatan 4 foizga ortishi aktivlar rentabelligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Sof foizli daromadlar miqdorining 11 foizga hamda sof foizsiz daromadlarning 39 foizga ko‘payishi⁶⁸ hisobiga aktivlar rentabelligi oshdi.

⁶³ Tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning jami aktivlarga nisbati orqali topiladi. Ushbu ko‘rsatkich jami aktivlarning o‘rtacha tavakkalchilik darajasini ifodalaydi. Tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligining yuqori bo‘lishi bank aktivlari xatar darajasining yomonlashganini, aksincha kamayishi esa aktivlar xatar darajasi yaxshilanganini bildiradi.

⁶⁴ Tavakkalchilikka tortilgan aktivlar rentabelligi – yillik ko‘rinishga keltirilgan soliq to‘langunga qadar sof foydaning bank tizimi tavakkalchilikka tortilgan aktivlari o‘rtacha miqdoriga nisbati orqali aniqlanadi.


⁶⁵ Sof foyda – foyda solig‘i to‘langandan va foyda bo‘yicha tuzatishlar amalga oshirilgandan so‘ng moliyaviy faoliyatning natijalari bo‘yicha olingan sof foyda.

⁶⁶ Kapital rentabelligi (ROE) – yillik ko‘rinishga keltirilgan sof foydaning bank tizimi jami kapitali o‘rtacha miqdoriga nisbati orqali aniqlanadi.


⁶⁷ Aktivlar rentabelligi (ROA) – yillik ko‘rinishga keltirilgan soliq to‘langunga qadar sof foydaning bank tizimi jami aktivlarining o‘rtacha miqdoriga nisbati orqali aniqlanadi.

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.


36-chizma. Bank sektori bo'yicha sof foyda, trln so'm




37-chizma. Bank sektori rentabelligi, %



38-chizma. Aktivlar rentabelligi (ROA) dekompozitsiyasi, %



39-chizma. 2026-yil 1-yanvar holatiga likvidlilik ko'rsatkichlari, %



Manba: Markaziy bank.

Izoh: LCR va NSFR ko'rsatkichlari mos ravishda 400 hamda 180 foizdan yuqori bo'lgan banklar grafikda aks ettirilmagan.

Bank tizimi bo'yicha kredit portfeli sifati yaxshilangan. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, muammoli kreditlar miqdori yillik hisobda 15 foizga kamayib, 18,1 trln so'mni tashkil etdi⁶⁹. 2025-yilda kredit portfeli ortdi, muammoli kreditlar miqdori kamaydi. Buning natijasida, muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi bank tizimi bo'yicha 2025-yilda 1 foiz bandga pasayib, 3 foizga yetdi. Tizimli ahamiyatga molik banklarda kredit portfelining 3 foizini muammoli kreditlar tashkil qildi hamda 1,3 foiz bandga kamaydi. Shuningdek, O'zbekistonda muammoli kreditlarning ulushi yuqori daromadli mamlakatlarni inobatga olmagandagi Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari guruhi bo'yicha mediana ko'rsatkichiga yaqinlashdi. 2025-yil yakuniga ko'ra, muammoli kreditlar tarkibida "qoniqarsiz" va "shubhali" deb tasniflangan kreditlar ulushi mos ravishda 38 va 33 foizlarni tashkil etdi.

Kredit yo'qotishlarining banklar to'lov qobiliyatiga ta'siri kamaygan. 2025-yil yakunida maxsus zaxiralar chegirilgan holdagi muammoli kreditlarning bank tizimi regulyativ kapitaliga nisbati 6 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 4 foiz bandga pasaygan. Muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyenti⁷⁰ 7 foiz bandga oshib, 53 foizni tashkil etdi. Bu esa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit yo'qotishlariga nisbatan bank tizimi bardoshlilik ortganligidan dalolat beradi. Shuningdek, milliy valyuta almashinuv kursi muammoli kreditlar ulushining yillik o'zgarishiga deyarli ta'sir ko'rsatmadi.


Banklarda mavjud yuqori likvidli aktivlar miqdori ortgan. 2026-yil 1-yanvar holatiga jami bank aktivlari tarkibida yuqori likvidli aktivlarning ulushi 21 foizda shakllanib, 2025-yil boshiga nisbatan 4 foiz bandga oshdi. 2025-yil davomida yuqori likvidli aktivlar miqdori 42 foizga ortdi. Bunda, bank aktivlari tarkibidagi Markaziy bankdagi mablag'larining 27 foizga⁷¹, davlat qimmatli qog'ozlari hajmining 81 foizga ko'payishi asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan bo'ldi.

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.


⁷⁰ Muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyenti muammoli kreditlar bo'yicha yaratilgan maxsus zaxiralarning muammoli kreditlar hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.


40-chizma. Muammoli kreditlar hajmi va kredit qoldig'ining yillik o'sish sur'ati




41-chizma. Muammoli kreditlarning jami kreditlar tarkibidagi ulushi, %



42-chizma. Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari⁷² bo'yicha muammoli kreditlarning ulushi, %




43-chizma. Muammoli kreditlarning sifati bo'yicha tarkibi, %




Manbalar: Xalqaro valyuta jamg'armasi, vakolatli davlat organlari va Markaziy bank hisob-kitobi.

⁷² Jahon banki tasnifining Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari (yuqori daromadli mamlakatlar mustasno) guruhi bo'yicha Albaniya, Armaniston, Bosniya va Gersegovina, Gruziya, Kosovo, Moldova, Tojikiston, Turkiya, Ukraina, Chernogoriya, Shimoliy Makedoniya, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari inobatga olingan.


44-chizma. Muammoli kreditlar va ehtimoliy zararlarni qoplash zaxiralari, %




45-chizma. Muammoli kreditlar ulushining yillik o'zgarishi dekompozitsiyasi, %



46-chizma. Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati, %



47-chizma. Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining YaIMga nisbati, %



Manba: Markaziy bank.

Izoh: 2020-yil 1-iyundan boshlab yuqori likvidli aktivlar uchun 10 foizlik minimal talab o'rnatilgan.

Chakana kreditlashda yuqori faollik saqlanib qolmoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, banklar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i yillik hisobda 24 foizga oshib, 220,3 trln so'mni tashkil etdi. Yuridik shaxslarning kredit qoldig'i 383,7 trln so'mni tashkil etib, yillik hisobda 8 foizga o'sdi. 2025-yilda jismoniy shaxslar kreditlarining bank tizimi kredit portfelidagi ulushi 33 foizdan 36 foizgacha ortdi. Shuningdek, 2025-yil yakuniga ko'ra, jismoniy hamda yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining YaIMga nisbati mos ravishda 12 va 21 foizlarda shakllandi⁷³.


Banklarning kredit va depozit portfeli bo'yicha dollarlashuv darajasi pasaymoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, xorijiy valyutadagi kreditlar qoldig'i jami kredit portfelining 39 foizini tashkil etdi va 2025-yilda qariyb 4 foiz bandga kamaydi. Shuningdek, xorijiy valyutada jalb etilgan depozitlarning jami depozit portfelidagi ulushi 2025-yil davomida 25 foizdan 21 foizgacha pasaydi. Kreditlar bo'yicha dollarlashuvning qisqarishi valyuta kursi o'zgaruvchanligi hisobiga qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatidagi salbiy o'zgarishlar ta'sirida yuzaga keladigan kredit xatarlarini kamaytirmoqda.

O'zbekiston bank tizimida kreditlarning YaIMga nisbati pasayish tendensiyasini namoyon etdi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda banklar kredit portfelining YaIMga nisbati 33 foizni tashkil etib, yillik hisobda 2 foiz bandga kamaydi. O'zbekistonda kreditlarning YaIMga nisbati Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari interkvartil oralig'ining pastki chegarasida joylashgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarining medianasiga nisbatan O'zbekistonda kreditlarning YaIMga nisbati 7 foiz bandga balandroq shakllangan. Umuman olganda, O'zbekistonda kreditlarning YaIMga nisbati tendensiyasida kuzatilgan pasayish iqtisodiyotdagi umumiy qarz yuki darajasining kamayganligini ifodalaydi.


⁷³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.

48-chizma. Kreditning YaIMga nisbati, %

Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari⁷⁴




Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari⁷⁵




Interkvartil oralik Mediana O'zbekiston

49-chizma. Dollarlashuv darajasi, ulush %

Kredit qoldig'i bo'yicha



Depozit qoldig'i bo'yicha



Milliy valyuta


Xorijiy valyuta

Manbalar: XVJ, vakolatli davlat organlari, Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.


⁷⁴ Jahon banki tasnifining Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari guruhi bo'yicha Albaniya, Armaniston, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Gruziya, Ispaniya, Kosovo, Latviya, Moldova, Ozarbayjon, Polsha, Rossiya, Slovakiya, Tojikiston, Turkiya, Ukraina, Xorvatiya, Chernogoriya, Shvetsiya, Estoniya, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari inobatga olingan.

⁷⁵ XVJ tasnifining Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari guruhi bo'yicha Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari hisobga olingan.


50-chizma. Xorijiy valyutadagi depozitlarning yillik o'sish sur'ati, %




51-chizma. Xorijiy valyutadagi kreditlarning yillik o'sish sur'ati, %



52-chizma. Valyuta pozitsiyasi, trln so'm



53-chizma. Valyuta pozitsiyasining jami regulyativ kapitalga nisbati, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Xorijiy valyutadagi kredit va depozitlar qoldig'ining AQSh dollari ekvivalentidagi yillik o'sish sur'ati davr oxiridagi kredit va depozitlar qoldig'ining so'm ekvivalentidagi qiymati va mazkur kundagi valyuta almashinuv kursining o'zaro nisbati orqali aniqlangan.


Bank tizimining valyuta xatarlariga ta'sirchanligi biroz ortgan. 2025-yil yakuni bo'yicha xorijiy valyutadagi kreditlar va depozitlar qoldig'ining AQSh dollari ekvivalentidagi qiymati yillik hisobda mos ravishda 11 va 21 foizga o'sgan. Xususan, kreditlar qoldig'ining AQSh dollari ekvivalentida yillik o'sish sur'ati 2025-yilda 2024-yilga nisbatan 8 foiz bandga, depozitlar esa 19 foiz bandga tezlashgan. Jumladan, banklar balansida xorijiy valyutadagi depozitlar qoldig'ining ortishi O'zbekiston rezidentlarining xorijiy mamlakatlarga erkin investitsiya kiritish imkoniyati mavjud sharoitda⁷⁶ depozitorlar o'z mablag'larini tashqi aktivlarga yo'naltirish ehtimoli yuqoriligi tufayli banklarda likvidlilik xatarini oshiradi. Xorijiy valyutadagi kreditlarning ko'payishi natijasida valyuta kursi o'zgarishi ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit xatari ko'lami ortadi. Shu bilan birga, xorijiy valyutadagi bank tizimi talablari va majburiyatlari miqdori orasidagi farqning 2025-yil yakuni bo'yicha 4 trln so'mgacha⁷⁷ oshishi valyuta xatarlari ta'sirida yuzaga kelishi mumkin yo'qotishlarni ko'payishidan dalolat beradi. O'z o'rnida, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, sof ochiq valyuta pozitsiyasining jami regulyativ kapitalga nisbati 2,7 foizni⁷⁸ tashkil etib, belgilangan me'yoriy talablardan pastda shakllanishi valyuta xatarlari bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga bank tizimi to'lov qobiliyatining yetarli ekanligidan dalolat beradi.

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2026-yil 2-iyundagi "Kapital harakati bilan bog'liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 15/1-sonli qarori.


⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari.

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari.


54-chizma. Kreditning depozitga nisbati va ular orasidagi farq




55-chizma. Kreditlar va depozitlar konsentratsiyasi*, HH indeksi



56-chizma. Banklar qirqimida depozitlar va kreditlarning yillik o'sish sur'atlari, 2025-yil %**



57-chizma. Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarida depozitlar ulushi*, % 2026-yil 1-yanvar holatiga**



Manbalar: vakolatli davlat organlari va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: *Herfindahl-Hirschman Index (HHI) bank xizmatlari bozoridagi raqobat darajasiga ko'ra past darajada (1000 dan past), o'rta darajada (1000 dan 1800 gacha) va yuqori darajada konsentratsiyalashgan (1800 dan yuqori) guruhlariga bo'linadi. HH indeksi har bir bank bo'yicha depozit va kredit qoldig'ining jami bank tizimi depozit va kredit qoldig'idagi ulushi kvadratlari yig'indisi orqali ifodalangan.

**Chizmada yashil rang depozitlar hajmining o'sish sur'ati kreditlar hajmining o'sish sur'atidan yuqori, jigarrang kreditlar hajmining o'sish sur'atidan past bo'lgan banklarni ifodalaydi. Har bir bank bo'yicha bank aktivining jami aktivlardagi ulushi pufakchalar o'lchamida o'z aksini topgan.

***Har bir davlat bo'yicha jami bank aktivlarining mamlakat YaIMdagi ulushi pufakchalar o'lchamida o'z aksini topgan.

Bank tizimida kreditlar va depozitlar hajmi orasidagi tafovut qisqarmoqda. 2025-yil yakuniga ko‘ra, bank tizimi bo‘yicha kredit qoldig‘i yillik hisobda 13 foizga, depozitlar qoldig‘i 35 foizga o‘tdi. Buning natijasida, kreditlarning depozitlarga nisbati ko‘rsatkichi 2025-yilda 28 foiz bandga kamayib, 145 foizni tashkil etdi. Shuningdek, 2026-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi bo‘yicha kreditlar va depozitlar orasidagi tafovut 186,7 trln so‘mda shakllanib, 2025-yil boshiga nisbatan 17 foizga qisqardi.

Kreditlar va depozitlar qoldig‘i bo‘yicha past darajadagi konsentratsiya saqlanib qolmoqda. 2025-yilda bank kreditlari bo‘yicha HH indeksi 89 birlikka kamayib, 835 ni tashkil etdi. Bunda, yuridik shaxslar kreditlari bo‘yicha konsentratsiya darajasi 1120 ga, jismoniy shaxslar bo‘yicha esa 703 ga teng bo‘ldi. Shuningdek, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, bank depozitlari qoldig‘i bo‘yicha HH indeksi 606 gacha pasayib, past darajadagi konsentratsiyalashuv guruhida shakllandi.

O‘zbekiston bank tizimining majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga, jami depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlarning ulushi 31 foizni tashkil etib, 2025-yil boshiga nisbatan 3 foiz bandga kamaydi⁷⁹. O‘zbekistonda depozitlarning bank majburiyatlaridagi ulushi 53 foizni tashkil etib, 6 foiz bandga ortdi. O‘zbekiston bank tizimida jami majburiyatlar tarkibida depozitlarning ulushi ortib borishiga qaramay, 2025-yil yakuni bo‘yicha Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari ko‘rsatkichlariga nisbatan pastroq shakllandi.

⁷⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.

2-havola. Valyuta xatarini baholashning ekstremal qiymatlar nazariyasiga asoslangan yondashuvi

Geosiyosiy beqarorlik ta'sirida xalqaro logistikaning qiyinlashuvi natijasida savdo aylanmasining qisqarishi, xususan joriy hisob balansi manfiy saldosing saqlanib qolishi ichki valyuta bozorida bosimni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, xorijiy valyuta kursi tebranishi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan tizimli xatarlarni baholash zaruratini yanada oshiradi. An'anaviy statistik yondashuvlar, odatda taqsimotning markaziy qismiga tayanadi va xatarlarni o'rtacha dinamika asosida baholaydi. Moliyaviy inqirozlar ko'pincha yuzaga kelish ehtimoli past, ammo jiddiy yo'qotishlarga olib keladigan ekstremal tebranishlar bilan bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklari balansida xorijiy valyutadagi aktivlar ulushining yuqori bo'lishi ularning valyuta kursi tebranishlari natijasida yuzaga keladigan valyuta xatariga nisbatan ta'sirchanligini oshiradi. Xususan, milliy valyuta kursining ekstremal o'zgarishlari banklarda ochiq valyuta pozitsiyasi kuzatilgan sharoitda bevosita yo'qotishlarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, valyuta kursining keskin o'zgarishi ta'sirida xorijiy valyutadagi aktivlar sifatining yomonlashishi kredit xatarining ortishiga, to'lov qobiliyatining yomonlashishiga va defolt xavfining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, makroiqtisodiy nobarqarorlik va ekstremal shoklar sharoitida banklarning bardoshlilikini hamda ushbu xatarlarning butun bank tizimiga tarqalish jarayonini baholash alohida dolzarblik kasb etadi.

Ekstremal qiymatlar nazariyasiga (Extreme Value Theory, EVT)⁸⁰ asoslangan yondashuvlar oddiy taqsimot qonuniyatlari ilg'ay olmaydigan ekstremal o'zgaruvchanlikni va tizimdagi zanjirli reaksiyalar natijasida yuzaga keladigan bank inqirozlarini baholash imkonini beradi (2-ilova).

EVTga asoslangan yondashuvda valyuta kursi o'zgaruvchanligining manfiy ekstremal qiymatlari alohida modellastiriladi. Shu asosda, valyuta kursi manfiy o'zgaruvchanligining kutilayotgan qiymati quyidagi ko'rinishda ifodalanadi⁸¹:

$$ES_{q,t+1} = \mu_{t+1} + \sigma_{t+1}ES_q^{EVT}$$

Bu yerda,

$ES_{q,t+1} - t + 1$ davrdagi valyuta kursi manfiy o'zgaruvchanligining q -kvantil darajasidagi shartli kutilayotgan qiymati;

μ_{t+1} – Autoregressive Moving Average (ARMA) modeli asosida baholangan shartli o'rtacha;

σ_{t+1} – Generalized Autoregressive Conditional Heteroskedasticity (GARCH) modeli asosida baholangan shartli standart og'ish;


ES_q^{EVT} – EVT asosida standartlashtirilgan qoldiqlar uchun baholangan q -kvantil darajasidagi valyuta kursining kutilayotgan qiymati.

⁸⁰ Nikzad, R. (2011). Extreme Value Theory with an Application to Bank Failures through Contagion. University of Ottawa.

⁸¹ Soltane, H., Karaa, A., & Bellalah, M. (2012) Conditional VaR using GARCH-EVT approach: Forecasting Volatility in Tunisian Financial Market. Journal of Computations & Modelling.

Oldingi davrdagi ma'lumotlar to'plami asosida keyingi davr uchun valyuta kursining kutilayotgan ekstremal qiymati aniqlanib, tijorat banklari balansiga ta'siri baholanadi. Buning natijasida, banklarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar miqdori aniqlanadi.

58-chizma. Valyuta kursining ekstremal qiymatida banklarning ochiq valyuta pozitsiyasidagi o'zgarishlar va regulyativ kapitalga nisbati



Manba: Markaziy bank.

Izoh: Valyuta kursining ekstremal qiymatida ochiq valyuta pozitsiyasidagi o'zgarishlar miqdorini hisoblashda model orqali baholangan valyuta kursi ta'sirida sof ochiq valyuta pozitsiyasining so'm ekvivalentidagi nominal qiymatining o'zgarishi inobatga olingan. Chizmadagi yashil rang valyuta kursining ekstremal qiymatida sof ochiq pozitsiyasi jami regulyativ kapitalga nisbatan o'rnatilgan talabni bajara oladigan, jigarrang belgilangan normativni bajara olmaydigan banklarni ifodalaydi.

Valyuta kursining tarixiy o'zgaruvchanligi asosida EVT yondashuvi orqali valyuta kursining ekstremal qiymatlari 2026-yil I yarim yilligi yakuni uchun baholandi. Bu orqali, banklarning aktivlari va majburiyatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar miqdori, shuningdek o'zgarishlar ta'siridagi ochiq valyuta pozitsiyasining jami regulyativ kapitalga nisbati aniqlandi.

Bank tizimida xorijiy valyutadagi aktivlar miqdori xorijiy valyutadagi majburiyatlardan yuqoriligi bois valyuta kursining ekstremal qiymatlari natijasida bank tizimining uzun valyuta pozitsiyasi jami regulyativ kapitalga nisbatan 3,3 foizgacha ortishi mumkin. Banklar qirqimida faqatgina bitta bankda sof ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha belgilangan normativning⁸² bajarilmasligi kuzatilishi mumkin. Shuningdek, xorijiy valyutadagi aktivlari miqdori xorijiy valyutadagi majburiyatlar miqdoridan kam bo'lgan banklari orasida eng ko'pi bilan jami regulyativ kapitalga nisbatan 1,8 foizgacha sof ochiq valyuta pozitsiyasi kamayishi mumkin. Bunda, valyuta kursi keskin o'zgarishining banklar balansiga bevosita ta'siri natijasida tijorat banklarida defolt holatlari kuzatilmaganligi tufayli tarqalish xatari mavjud emas.


⁸² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 30-apreldagi "Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 8/1-son qarori.

3-havola. Tizimli xatarlar so‘rovnomasi

Markaziy bank tomonidan 2026-yil yanvar oyida mamlakat moliya tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tizimli xatarlarni baholash yuzasidan barcha tijorat banklari (respondentlar) ishtirokida navbatdagi so‘rovnoma⁸³ o‘tkazildi.

Geosiyosiy xatarlar, aholi qarz yukining ortishi, valyuta kursi o‘zgaruvchanligi, yuqori inflyatsiya hamda kredit xatarlari O‘zbekiston moliya tizimiga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan asosiy xatarlar sifatida saqlanib qolmoqda. Bunda, respondentlarning geosiyosiy vaziyat keskinlashuvi, valyuta kursi va inflyatsiya darajasi sur’atlarining tezlashishi bilan bog‘liq xavotirlari pasaygan. Kredit xatari bo‘yicha xavotirlar esa kuchaygan va asosiy xatarlar qatoridan joy olgan.

59-chizma. O‘zbekiston moliya sektoridagi asosiy tizimli xatarlar



Manba: Markaziy bank so‘rovnomasi.


Izoh: Tizimli xatarlarning shrift kattaligi ularning muhimlik darajasidan kelib chiqqan. Muhimlik darajasi 1 dan 5 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha vaznlar asosida hisoblangan.

Har bir respondent tomonidan qayd etilgan 5 ta eng muhim tizimli xatarlarning vaznlar asosida hisoblangan to‘plamidagi ulushlarda geosiyosiy xatarlar 56 foiz, aholi qarz yuki ortishi 32 foiz, valyuta kursi o‘zgaruvchanligi 31 foiz, yuqori inflyatsiya darajasi 28 foiz va kredit xatarlari 28 foizni tashkil etdi⁸⁴. Bundan tashqari, respondentlar tomonidan kiber hujumlar, yirik qarz oluvchilar defolti, iqtisodiy pasayish, likvidlilik hamda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflar O‘zbekiston moliya tizimi barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xatarlar sifatida qayd etilgan.


⁸³ Tizimli xatarlarni aniqlash bo‘yicha so‘rovnoma namunasi 2023-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

⁸⁴ Mazkur savolda har bir bank tomonidan 5 tadan tizimli xatarlar sanab o‘tilgan. Bunda, vaznlar bo‘yicha hisoblangan moliya tizimiga ta’sir etuvchi ma’lum bir xatar turini tanlagan respondentlar sonining jami respondentlar sonidagi ulushi, boshqa bir xatar turining respondentlar o‘rtasida tizimli xatar sifatida baholanish darajasi bilan o‘zaro bog‘liq emas. Banklar tomonidan belgilangan tizimli xatarlarning barcha respondentlar javoblari orasida tarqalishi o‘zaro bog‘liqsiz hodisalar (non-mutually exclusive) hisoblanadi. Shunga ko‘ra, respondentlar tomonidan qayd etilgan xatar turlari bo‘yicha ulushlarning yig‘indisi 100 foizlik to‘plamdan kelib chiqilmagan.

60-chizma. Tizimli xatarlarning sodir bo'lish ehtimoli, %



61-chizma. So'nggi 6 oy davomida moliyaviy barqarorlik holatidagi o'zgarishlar, %



Manba: Markaziy bank so'rovnomasi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 62 foizi qisqa muddatda tizimli xatarlar yuzaga kelish ehtimoli past deya baholagan bo'lib, bu ko'rsatkich 2025-yil iyul oyida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga nisbatan 15 foiz bandga ortgan. Shu bilan birga, xatarlar sodir bo'lish ehtimolini yuqori deya ta'kidlagan respondentlarning jami respondentlar tarkibidagi ulushida kamayish kuzatilib, avvalgi so'rovnoma natijalariga nisbatan 5 foiz bandga pasaygan.

Shuningdek, o'rta muddatli istiqbolda respondentlarning tizimli xatar sodir bo'lish ehtimoli bo'yicha kutilmalari o'rtacha darajada saqlanib qolmoqda. Xususan, tizimli xatarlar yuzaga kelish ehtimoli o'rtacha deb belgilagan respondentlarning ulushi 2025-yil iyul oyida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga nisbatan 9 foiz bandga ortib, 59 foizga to'g'ri kelgan. Bundan tashqari, o'rta muddatda tizimli xatar sodir bo'lish ehtimoli yuqori deb baholagan ishtirokchilarning ulushi 5 foiz bandga kamayib, 9 foizni tashkil etdi. Tizimli xatarlar yuzaga kelish ehtimolini past deya baholagan respondentlarning ulushi 29 foizgacha pasaygan.

O'tgan 6 oy davomida respondentlarning 62 foizi kreditga bo'lgan talabning oshganligini ta'kidlagan. Mazkur ko'rsatkich 2025-yilning mos davrida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga nisbatan 15 foiz bandga yuqorilagan.

Shuningdek, respondentlar tomonidan moliyaviy barqarorlik holati yaxshilanganligi qayd etilgan. Xususan, banklararo likvidlilik holati yaxshilangan deya qayd etgan respondentlarning ulushi 59 foizni tashkil etib, 2025-yilning iyul oyida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari bilan taqqoslaganda 17 foiz bandga oshgan.

Banklarning 47 foizi qisqa muddatli moliyalashtirish manbalarida o'sish kuzatilganini ta'kidlagan bo'lib, bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davridagi so'rovnoma natijalariga nisbatan 8 foiz bandga oshgan. Uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari yaxshilanganini bildirgan respondentlarning ulushi 41 foizgacha oshgan.

2.2. Nobank moliya sektori

Nobank moliya sektori barqaror sur'atlarda kengaymoqda. Mikromoliya tashkilotlari aktivlarining yuqori sur'atlarda o'sishi bilan birga kapital yetarlilik koeffitsiyentining o'rnatilgan minimal talablardan baland saqlanib qolishi to'lov qobiliyati bo'yicha xatarlarni pasaytirmoqda. Bundan tashqari, ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi aktivlari yuqori daromadlilik bilan ortib bormoqda.

Nobank moliya sektori⁸⁵ ko'lami kengayib borayotgan bo'lsa-da, mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. Nobank moliya sektori aktivlarining YaIMga nisbati 2025-yil davomida 1,7 foizdan 1,9 foizgacha oshdi. Jumladan, nobank moliya sektori aktivlari yillik hisobda 36 foizga o'sib, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 34,9 trln so'mni tashkil etdi. Bunda, nobank moliya sektori aktivlarining asosiy 43 foizlik ulushi sug'urta tashkilotlari hissasiga to'g'ri keldi.

Nobank kredit tashkilotlari⁸⁶ kredit portfelining o'sish sur'ati yuqori baza effekti hisobiga nisbatan sekinlashgan. 2025-yil yakunida nobank kredit tashkilotlari tomonidan ajratilgan kreditlar qoldig'i 16,8 trln so'mga yetib, yillik hisobda 39 foizga o'sdi. Ushbu kreditlarning uchdan bir qismi ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi tomonidan ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri keladi. 2025-yil davomida mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning kredit portfeli 45 foizga⁸⁷, ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi tomonidan ajratilgan kreditlar qoldig'i 29 foizga⁸⁸ o'sdi.


⁸⁵ Nobank moliya sektori tahlilida nobank kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari inobatga olingan.

⁸⁶ Nobank kredit tashkilotlari mikromoliya tashkilotlari, lombardlar hamda ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasini o'z ichiga oladi.


⁸⁷ Markaziy bank. (2026). Nobank kredit tashkilotlarining ko'rsatkichlari.

⁸⁸ O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi. (2026). Moliyaviy hisobotlar.

62-chizma. Nobank moliya sektori aktivlari, trln so‘m




63-chizma. Nobank kredit tashkilotlari kredit qoldig‘ining yillik o‘sish sur‘ati, %



64-chizma. Sug‘urta tashkilotlari aktivlari rentabelligi⁸⁹, %



65-chizma. Sug‘urta tashkilotlari aktivlari, trln so‘m



Manbalar: Milliy statistika qo‘mitasi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Korporativ axborot yagona portali va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Sug‘urta sektori uchun aktivlar rentabelligi (ROA) ko‘rsatkichi barcha sug‘urta tashkilotlarining balans ma‘lumotlarini umumlashtirgan holda hisoblab chiqilgan.

⁸⁹ Aktivlar rentabelligi (ROA) ko‘rsatkichi soliqlarni to‘lashdan oldingi yillik sof daromadni o‘rtacha jami aktivlarga bo‘lish orqali hisoblanadi.

Sugʻurta tashkilotlari aktivlari boʻyicha rentabellik nisbatan pastroq shakllandi. 2025-yil III chorak yakuniga koʻra, sugʻurta tashkilotlarining soliq toʻlagunga qadar sof foydasi 2024-yilning mos davriga nisbatan deyarli oʻzgarmagan sharoitda jami aktivlar hajmining yillik hisobda 34 foizga ortishi aktivlar rentabelligi koʻrsatkichining pasayishida oʻz ifodasini topdi. Xususan, umumiy hisobda sugʻurta tashkilotlarining aktivlar rentabelligi 2024-yil III chorak yakunidagi 8,4 foizdan 2025-yilning dastlabki 9 oyi yakunida 6,9 foizgacha pasaydi. 2025-yilda sugʻurta bozorida hayot sugʻurtasi faoliyati bilan bogʻliq tashkilotlar aktivlari umumiy sugʻurta tashkilotlariga nisbatan tezroq oʻsdi. 2025-yil yakunida jami sugʻurta tashkilotlari tarkibida umumiy sugʻurta tashkilotlari aktivlarining ulushi 95 foizni tashkil etdi.

Sugʻurta tashkilotlarining investitsiya portfeli diversifikatsiyalanmoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga koʻra, sugʻurta tashkilotlarining jami investitsiya miqdori yillik hisobda 46 foizga oʻsib, 9,6 trln soʻmga yetdi. Investitsiya portfelinin 63 foizi depozitlar, 17 foizi koʻchmas mulkka kiritilgan investitsiyalar hisobiga toʻgʻri keldi. Bunda, 2025-yil davomida depozitlar miqdori 32 foizga, koʻchmas mulkka kiritilgan investitsiyalar hajmi 266 foizga oʻsdi⁹⁰.

Sugʻurta bozorida ixtiyoriy sugʻurtalash amaliyoti ommalashmoqda. 2025-yilda jami sugʻurta mukofotlari⁹¹ hajmi 13,5 trln soʻmni, jami sugʻurta toʻlovlari⁹² 3 trln soʻmni tashkil etdi. Jami sugʻurta mukofotlarining 96 foizi hamda jami sugʻurta toʻlovlarining 95 foizi umumiy sugʻurta tashkilotlari hissasiga toʻgʻri kelgan. 2025-yil davomida amalga oshirilgan ixtiyoriy sugʻurta mukofotlarining jami sugʻurta mukofotlaridagi ulushi 93 foizga yetdi. Shuningdek, jami sugʻurta toʻlovlarining 86 foizi ixtiyoriy sugʻurta shartnomalari doirasida yuz bergan sugʻurta hodisalari boʻyicha sugʻurtalovchi tashkilotlar tomonidan toʻlab berilgan. 2025-yilda amalga oshirilgan ixtiyoriy sugʻurtalash tarkibida kreditlarni sugʻurta qilish boʻyicha sugʻurta polislarining jami sugʻurta mukofotlari 3,6 trln soʻmni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 63 foizga koʻpaydi⁹³.


⁹⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. (2025). Oʻzbekiston Respublikasi sugʻurta bozorining 2025-yil yakunlari boʻyicha umumiy koʻrsatkichlari.

⁹¹ Sugʻurta mukofoti – sugʻurta qildiruvchi tomonidan sugʻurtalovchiga sugʻurta shartnomasida shart qilib koʻrsatilgan tartibda va muddatlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida toʻlanadigan sugʻurta uchun toʻlov.


⁹² Sugʻurta toʻlovi – bu sugʻurta shartnomasida nazarda tutilgan sugʻurta hodisasi yuz berganda sugʻurta qildiruvchiga, sugʻurtalangan shaxsga (naf oluvchiga) har bir sugʻurtalangan shaxs uchun sugʻurta summasi doirasida toʻlanadigan pul mablagʻlari summasi.

⁹³ Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. (2025). Oʻzbekiston Respublikasi sugʻurta bozorining 2025-yil yakunlari boʻyicha umumiy koʻrsatkichlari.


66-chizma. Sug'urta tashkilotlarining investitsiyalari tarkibi, trln so'm




67-chizma. Sug'urta to'lovlarining mukofotlarga nisbati, %



68-chizma. Sug'urta tashkilotlarining choraklik sug'urta to'lovlari, trln so'm



69-chizma. Sug'urta tashkilotlarining choraklik sug'urta mukofotlari, trln so'm



Manbalar: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Sug'urta mukofotlari sug'urta to'lovlariga nisbatan tezroq o'sdi. 2025-yil davomida amalga oshirilgan sug'urta mukofotlari 2024-yilga nisbatan 38 foizga, sug'urta to'lovlari 35 foizga ko'paydi⁹⁴. Natijada, sug'urta to'lovlarining mukofotlarga nisbati 2025-yilda 2024-yildagi 23 foizdan 22 foizgacha pasaydi. Jumladan, 2025-yilda hayotni sug'urta qilish sohasida yuqori tafovut kuzatilib, sug'urta mukofotlari yillik hisobda 105 foizga, sug'urta to'lovlari 7 foizga o'sdi.


Sug'urta bozorida mukofotlar bo'yicha konsentratsiyalashuvning o'rta darajasi saqlanib qoldi. 2025-yilda jami sug'urta tashkilotlarining sug'urta mukofotlari bo'yicha HH indeksi 2024-yilga nisbatan 96 birlikka ortib, 1277 ni tashkil etdi. Hayotni sug'urta qilish sohasidagi mukofotlarining jami sug'urta mukofotlaridagi ulushi 2025-yilda 4 foizni tashkil etishi mamlakatning umumiy sug'urta bozoridagi konsentratsiya xatari bo'yicha xavotirlarni pasaytiradi.

O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining ommalashish darajasi iqtisodiyoti o'xshash ko'plab mamlakatlardan pastroq shakllanmoqda. 2025-yil yakuni bo'yicha O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining ommalashish darajasi 2024-yil yakunidagi 6,4 promilledan 7,3 promillegacha oshdi. 2025-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining ommalashish darajasi Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari interkvartil oralig'ining⁹⁵ pastki chegarasida shakllandi. O'zbekiston bo'yicha sug'urta xizmatlarining zichligi yillik hisobda 45 foizga ortib, 2025-yil yakunida 29,3 AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlarning ortishi mamlakatda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotgani, shuningdek sug'urta bozorining qamrovi va iqtisodiyotdagi ahamiyati oshayotganligidan dalolat beradi.


⁹⁴ O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2025-yil yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari.

⁹⁵ Interkvartil oralig' – bu 25 va 75 kvantil chegaralari orasidagi oralig'.


70-chizma. Sugʻurta xizmatlari zichligi, AQSh dollari




71-chizma. Sugʻurta xizmatlarining ommalashish darajasi, %



72-chizma. Sugʻurta bozorida mukofotlar boʻyicha konsentratsiya darajasi, HH indeksi⁹⁶



73-chizma. Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida⁹⁷ sugʻurta xizmatlarining ommalashish darajasi, %



Manbalar: vakolatli davlat organlari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Milliy statistika qoʻmitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Promille (‰) sonning mingdan bir ulushini yoki foizning oʻndan bir qismini ifodalaydi.


Sugʻurta xizmatlari zichligi (insurance density) jami sugʻurta mukofotlarini aholi soniga nisbati orqali aniqlanadi. Ushbu nisbatni hisoblashda yillik jami sugʻurta mukofotlari inobatga olingan.

Sugʻurta xizmatlarining ommalashish darajasi (insurance penetration) jami sugʻurta mukofotlarining nominal YaIMga nisbati orqali hisoblanadi. Bunda, sugʻurta mukofotlari va nominal YaIM koʻrsatkichlarining mos davrlardagi qiymatlaridan foydalanilgan.


⁹⁶ HH indeksi past darajada konsratsiyalashgan (1000 dan past), oʻrta darajada konsratsiyalashgan (1000 dan 1800 gacha) va yuqori darajada konsratsiyalashgan (1800 dan yuqori) guruhlariga boʻlinadi.

⁹⁷ Jahon banki tasnifining Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari (yuqori daromadli mamlakatlar mustasno) guruhi boʻyicha Armaniston, Bosniya va Gersegovina, Gruziya, Kosova, Moldova, Ozarbayjon, Ukraina, Oʻzbekiston, Qirgʻiziston va Qozogʻiston davlatlari inobatga olingan.

74-chizma. Mikromoliya tashkilotlarining kapital yetarlilik koeffitsiyenti, %



75-chizma. Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasining aktivlar rentabelligi, %



Manbalar: O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: 2023-yil 14-apreldan e'tiboran mikromoliya tashkilotlarining kapital yetarlilik koeffitsiyentiga minimal talab o'rnatilgan.

Mikromoliya tashkilotlarining kapital yetarlilik koeffitsiyenti⁹⁸ o'rnatilgan minimal talabdan uch barobar yuqori shakllanmoqda. 2025-yil yakuni bo'yicha mikromoliya tashkilotlarining kapital yetarlilik koeffitsiyenti 30 foizni tashkil etib, yillik hisobda 2 foiz bandga pasaygan. Ushbu ko'rsatkich o'rnatilgan minimal talabga nisbatan yuqori darajasi saqlanib qoldi. 2025-yilda kredit portfelining yuqori sur'atlarda o'sishi hisobiga mikromoliya tashkilotlarining aktivlari yillik hisobda 50 foizga, jami kapital miqdori 40 foizga oshgan. Jumladan, 2025-yil davomida mikromoliya tashkilotlari jami kapitalining o'sishida ustav kapital miqdorining yillik hisobda 51 foizga, joriy yil foydasining 10 foizga ortishi⁹⁹ asosiy ta'sir etuvchi omillardan bo'ldi.

Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasining aktivlar rentabelligi o'zining tarixiy yuqori darajasida shakllandi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi aktivlar rentabelligi¹⁰⁰ 3,5 foizni tashkil etib, yillik hisobda 0,7 foiz bandga ortdi. 2025-yil yakuni bo'yicha jami

⁹⁸ Mikromoliya tashkiloti kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti mikromoliya tashkiloti jami xususiy kapitalining jami aktivlariga nisbati orqali hisoblanadi.

⁹⁹ Markaziy bank. (2026). Nobank kredit tashkilotlarining ko'rsatkichlari.

¹⁰⁰ Aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichi soliqlarni to'lashdan oldingi yillik sof daromadni o'rtacha jami aktivlarga bo'lish orqali hisoblanadi.

aktivlar miqdorining yillik hisobda 33 foizga o'sishiga qaramay, soliq to'lagunga qadar sof foydaning 73 foizga ko'payishi aktivlar rentabelligi ko'rsatkichidagi ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. 2025-yilda sof foizli daromadning yillik hisobda 74 foizga ortishi va 257,4 mlrd so'mda¹⁰¹ shakllanishi tashkilotning daromadlilik ko'rsatkichini yaxshilanishiga xizmat qildi.

¹⁰¹ O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi. (2026). Moliyaviy hisobotlar.

III. Nomoliyaviy sektor

3.1. Uy xo‘jaligi sektori

Makroprudensial choralarning qat’iylashtirilishi va aholi daromadlarining o‘sishi natijasida uy xo‘jaligi sektorida ijobiy holat kuzatildi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka va avtokreditlar uchun kreditning garovga nisbati (LTV) bo‘yicha bevosita cheklovlarning o‘rnatilishi¹⁰² ushbu kreditlarni garov bilan ta‘minlanganlik darajasini yaxshilanishida namoyon bo‘ldi. Aholiga kredit ajratishda qarzdorlarga yo‘naltirilgan vositalarning qat’iylashtirilishi¹⁰³ uy xo‘jaliklarining qarz yuki darajasini pasayishida o‘z ifodasini topdi.


Aholining qarz majburiyatlari soni bo‘yicha taqsimotida nobank tashkilotlarning ulushi ortmoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, jami qarzdor aholining 62 foizi banklardan, 20 foizi bankdan tashqari tashkilotlardan qarz majburiyatlariga ega. O‘z navbatida, 2025-yilda bankdan qarzdor aholining ulushi 19 foiz bandga kamaygan. Nobank tashkilotlardan qarzdorlarning ulushi 9 foiz bandga ortgan. Qarz oluvchilarning 18 foizida ham banklar ham bankdan tashqari tashkilotlar oldida moliyaviy majburiyatlari mavjud bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 10 foiz bandga yuqorilagan.

Aholining jami qarz majburiyatlari summasi tarkibida asosiy ulush bank sektori hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. 2025-yil yakuniga ko‘ra, jismoniy shaxslar qarz majburiyatlarining 94 foizi banklar, 6 foizi nobank tashkilotlar tomonidan ajratilgan. 2024-yilning mos davrida mazkur ko‘rsatkichlar mos ravishda 96 va 4 foizlarni tashkil etgan. Bunda, uy xo‘jaliklari jami qarz majburiyatlarida nobank tashkilotlarning ulushi nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda.


¹⁰² O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 8-apreldagi “Banklarga o‘rnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzlar) bo‘yicha to‘lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 7/3–sonli qarori.

¹⁰³ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 26-yanvardagi “Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning qarz yukini tartibga solish to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 42/16–sonli qarori.

76-chizma. Qarz oluvchilar soni bo'yicha taqsimot*



77-chizma. Qarz summasi bo'yicha taqsimot**




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izohlar: Bankdan tashqari tashkilotlar tahlilida nobank kredit tashkilotlari va nomoliyaviy tashkilotlar inobatga olingan.

*Diagrammadagi shakllarning chegaralangan yuzalari hajmi kredit yoki qarz majburiyati mavjud jismoniy shaxslar soniga proporsional ravishda belgilangan. Kredit yoki qarz majburiyati mavjud aholi sonini aniqlashda jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsion raqamidan foydalanilgan. Hisob-kitoblarda qarz oluvchilar soni bo'yicha amalga oshirilgan bo'lib, bunda bitta qarz oluvchida bank yoki bankdan tashqari tashkilotlardan mavjud bir necha kredit yoki qarz shartnomalari inobatga olinmagan.

**Bank va bankdan tashqari tashkilotlar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit va qarz qoldig'ining taqsimlanishida ushbu tashkilotlar tomonidan aholiga ajratilgan mablag'larning ulushi mos ravishda keltirilgan. Doiralarning yuzasi belgilangan tashkilot tomonidan aholiga ajratilgan qarz majburiyatlari hajmiga proporsional ravishda hisoblangan.

78-chizma. Bankdan qarzidor aholining moliyaviy majburiyatlari, ulush %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Aholiga ajratilayotgan kreditlar tarkibida bir nechta qarz majburiyatlariga ega bo'lgan qarzidorlar ulushi o'sib bormoqda. 2025-yil davomida bankdan kredit olgan aholining 53 foizida banklar va bankdan tashqari tashkilotlar oldida bir nechta qarz majburiyatlari mavjudligi kuzatildi. Bunda, bir vaqtning o'zida bir nechta kreditlarga xizmat ko'rsatish zarurati qarzidorlarning to'lov qobiliyatlarini zaiflashtirishi mumkin.

Bankdan kredit olgan aholining umumiy qarz yuki darajasida pasayish kuzatildi. 2025-yilda bankdan kredit olgan jismoniy shaxslarning bank va bankdan tashqari barcha majburiyatlarini hisobga olgan holdagi o'rtacha DSTI ko'rsatkichi¹⁰⁴ 2024-yildagi 38 foizdan 37 foizga tushdi. Shuningdek, DSTI ko'rsatkichi 50 foiz va undan past bo'lgan qarz oluvchilar bo'yicha kredit summasining jami kredit hajmidagi ulushi 74 foizga teng bo'lib, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 58 foizni tashkil etgan.

Ipoteka va avtokredit segmentlarida qarz yukining tushish dinamikasi qayd etildi. 2025-yilda tijorat banklaridan ipoteka krediti olgan jismoniy shaxslarning jami majburiyatlarini inobatga olgan holdagi o'rtacha DSTI ko'rsatkichi 49 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 22 foiz bandga pasaygan. Bunda, DSTI ko'rsatkichi 50 foizdan yuqori bo'lgan qarz oluvchilarning jami kredit summasidagi ulushi pasayib, 30 foizni tashkil etdi. Avtokreditlar bo'yicha o'rtacha DSTI ko'rsatkichi 60 foizdan 37 foizgacha pasaygan. Shuningdek, DSTI ko'rsatkichi 50 foiz va undan past bo'lgan qarz oluvchilar bo'yicha kredit summasining ulushi 84 foizga yetdi.

¹⁰⁴ DSTI ko'rsatkichini hisoblash metodologiyasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Aholining qarz majburiyatlarini bajarish holati tahlilida keltirilgan.


79-chizma. Bankdan qarzдор jismoniy shaxslarning bankdan tashqari jami majburiyatlarini inobatga olgan holdagi DSTI taqsimoti



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: DSTI ko'rsatkichi daromadga ega va oylik daromadi o'rtacha uy xo'jaligining bir oylik minimal yashash xarajatidan kam bo'lmagan qarz oluvchilar bo'yicha hisoblangan. Bankdan kredit olgan jismoniy shaxslarning DSTI ko'rsatkichini hisoblashda tahlil etilayotgan davrda ajratilgan kredit majburiyatlariga qo'shimcha tarzda bank, nobank va nomoliyaviy tashkilotlar bilan tuzilgan hamda amalda bo'lgan kredit va qarz shartnomalari bo'yicha barcha majburiyatlar inobatga olingan.

80-chizma. Bankdan qarzдор jismoniy shaxslarning bankdan tashqari jami majburiyatlarini inobatga olgan holdagi DSTI o'rtachasi¹⁰⁵



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: O'rtacha DSTI darajasi jismoniy shaxslarning mavjud majburiyatlari bo'yicha jami oylik to'lov miqdorini ularning oylik daromadiga nisbati ko'rsatkichining o'rtacha arifmetik qiymatini hisoblash orqali aniqlangan.

Mikroqarzarlar bo'yicha holat biroz yomonlashgan. 2025-yilda mikroqarz olgan aholi jami kredit miqdorining 71 foizida DSTI ko'rsatkichi 50 foizdan past bo'lgan. 2025-yilda mikroqarzarlar bo'yicha o'rtacha DSTI ko'rsatkichi 2024-yildagi 37 foizdan 40 foizgacha ko'tarildi. Mikroqarz ajratishda aniq maqsad va garov ta'minoti talab etilmasligi ushbu bozorda qarz oluvchilar ko'laminin tez kengayishiga hamda qarz yukining nisbatan yuqoriroq shakllanishiga turtki bo'lmoqda.


Ipoteka va avtokreditlar LTV darajasi pastroq bo'lgan guruhlariga o'tgan. Ipoteka kreditlari tarkibida LTV ko'rsatkichi 80 foizdan past bo'lgan kreditlarning ulushi 67 foizga yetib, 2024-yilga nisbatan 6 foiz bandga oshgan. Avtokreditlar bo'yicha LTV darajasi 75 foizdan yuqori bo'lgan kreditlarning ulushi 2024-yil bilan taqqoslaganda 9 foiz bandga qisqarib, 66 foizni tashkil etdi. 2025-yilda banklar tomonidan aholiga ajratilgan ipoteka hamda avtokreditlarning o'rtacha LTV ko'rsatkichlari mos ravishda 76 va 73 foizga teng bo'ldi.

¹⁰⁵ Jismoniy shaxslar bo'yicha DSTI ko'rsatkichini hisoblashda rasmiy oylik daromadi o'rtacha uy xo'jaliklarining bir oylik minimal yashash xarajatlaridan kam bo'lmagan qarz oluvchilar qamrab olingan. 2025-yil uchun aholi qarz yuki darajasini aniqlashda bankdan jami kredit oluvchilarning 49 foizi qamrab olingan. Ushbu ko'rsatkich ipoteka kreditida 80 foiz, avtokreditda 39 foiz, mikroqarzda 52 foizni tashkil etgan.

81-chizma. Ipoteka kreditlari bo'yicha LTV¹⁰⁶ ko'rsatkichlari, %



82-chizma. Avtokreditlar bo'yicha LTV ko'rsatkichlari, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: O'rtacha tortilgan LTV ko'rsatkichi har bir kredit bo'yicha LTV darajasi va kredit hajmi asosida o'rtacha tortilgan qiymati orqali aniqlangan.

¹⁰⁶ 2025-yil 24-iyuldan boshlab ipoteka va avtokreditlar bo'yicha bevosita LTV cheklovlari joriy etilgan. Bunda, ipoteka kreditlari ajratishda LTV ko'rsatkichi bankning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan kreditlar bo'yicha 80 foizdan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag'lari hisobidan qayta moliyalashtiriladigan ipoteka kreditlari bo'yicha 85 foizdan oshmasligi belgilandi. Shuningdek, avtokreditlar bo'yicha LTV ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 75 foiz etib o'ratildi.


83-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti¹⁰⁷, foiz band




84-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit turlarining YaIMga nisbati, %



85-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining yillik o'sish sur'ati* (YoY), %



86-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldiqlari, trln so'm



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: *Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar tarkibida mikroqarzlar kredit karta, overdraft va mikro kreditlar kesimida qayta tasniflangan. Bunda, mikro kreditlar tarkibiga o'zini o'zi band qilgan shaxslarga to'lovlik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan hollarda muayyan maqsadlar uchun foydalanish sharti bilan 300 mln so'mgacha bo'lgan miqdorda ajratilgan mablag'lar kiritilgan.

¹⁰⁷ Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbatining uzoq muddatli trendi Bazel yondashuviga ko'ra, choraklik ma'lumotlar uchun 400 000 silliqlash parametridan foydalangan holda bir tomonlama HP filtri yordamida aniqlangan.


Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining jami kreditlar portfelidagi ulushi o'sishda davom etmoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, jismoniy shaxslar kredit portfeli 220,3 trln so'mga yetdi hamda bank tizimi umumiy kredit portfelidagi ulushi 2025-yil mos davriga nisbatan 3 foiz bandga ortib, 36 foizni tashkil qildi. Bank tizimi chakana kredit portfeli tarkibida mikroqarzlar hamda mikrokreditlar qoldig'ida yuqori yillik o'sish kuzatilib, mos ravishda 46 va 51 foizlarni tashkil etdi. Bundan tashqari, ipoteka kreditlar qoldig'i yillik hisobda 17 foizlik o'sish qayd etgan¹⁰⁸.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati hamda uzoq muddatli trendi orasida manfiy tafovut saqlanib qolmoqda. 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, banklar tomonidan ajratilgan chakana kredit qoldig'ining YaIMga nisbati 12 foizga to'g'ri kelib, uzoq muddatli trendiga nisbatan 0,8 foiz band manfiy tafovut shakllangan. Jismoniy shaxslar kredit portfeli tarkibida yuqori ulushga ega bo'lgan ipoteka kreditlari hamda mikroqarzlar qoldig'ining YaIMga nisbati mos ravishda 4 va 3 foizlarni tashkil etgan. Mikrokredit va avtokreditlar bo'yicha ushbu ko'rsatkich 2 foizga to'g'ri keldi.


Aholi jon boshiga hisoblangan nominal YaIMning AQSh dollaridagi qiymati sezilarli oshdi. 2025-yil yakuniga ko'ra, aholi jon boshiga hisoblangan nominal YaIMning AQSh dollaridagi qiymati 3 879 AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 614 AQSh dollariga ortgan. Bunda, nominal YaIMda kuzatilgan yuqori o'sish sur'atiga aholi jon boshiga YaIM hajmining ortishi hamda valyuta kursi o'zgarishi 677 AQSh dollarlik ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, doimiy aholi soni ortishining pasaytiruvchi ta'siri 63 AQSh dollarini tashkil etgan.

¹⁰⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari.


87-chizma. Aholi jon boshiga hisoblangan nominal YaIM dekompozitsiyasi*, AQSh dollari




88-chizma. Aholi jon boshiga hisoblangan AQSh dollaridagi nominal YaIMning yillik o'zgarish dekompozitsiyasi, %



89-chizma. Uy xo'jaligi sektorida kredit oluvchilar soni va har 1 000 kishiga to'g'ri keladigan kredit oluvchilar soni**



90-chizma. Ish haqining yillik o'sishi sur'ati (YoY), %



Manba: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izohlar: *Aholi jon boshiga YaIM muayyan davrda joriy narxlardagi YaIM hajmini mamlakatning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Shuningdek, aholi jon boshiga nominal YaIMni AQSh dollaridagi ekvivalenti milliy valyutadagi aholi jon boshiga nominal YaIM miqdorini ushbu davrdagi AQSh dollarining so'mga nisbatan o'rtacha almashinuv kursiga bo'lish orqali hisoblanadi.

**Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni inobatga olingan. Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni – muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollardan iborat.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan nominal YaIMning AQSh dollaridagi qiymati o'sish sur'atlarida jadallashish kuzatildi. 2025-yilda aholi jon boshiga hisoblangan YaIMning AQSh dollari ekvivalentidagi yillik o'sish sur'ati 19 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 8 foiz bandga yuqorilagan. Mazkur o'zgarishga asosan nominal YaIM hajmining ortishiga hissa qo'shib, 20 foizlik ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, valyuta almashinuv kursidagi o'zgarishlar 1 foizlik qo'shimcha o'sishni ta'minladi, aholi sonining ortishi esa o'sish sur'atiga 2 foizlik salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Kredit oluvchilarning o'sish dinamikasi saqlanib qolmoqda. Aholi daromadlari ortmoqda hamda kreditga bo'lgan talab saqlanib qolmoqda. 2025-yil yakunida bank kreditlariga ega aholi soni 5,2 mln kishiga yetib, yillik 11 foiz o'sish qayd etdi. Shu bilan birga, har 1 000 nafar mehnatga layoqatli aholiga to'g'ri keladigan qarzдорlar soni 20 kishiga ortib, 244 kishini tashkil etdi. 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, o'rtacha hisoblangan nominal ish haqi yillik hisobda 19 foizga¹⁰⁹, real ish haqi esa 9 foizga o'sgan.


2025-yilda aholining avtomobil xarid qilish qobiliyati oshgan. Aholi daromadlarining ortishi hamda avtokreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalarining pasayishi natijasida aholining avtokredit orqali transport vositalari xarid qilish imkoniyatlari yaxshilandi. 2025-yilda ajratilgan avtokreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2024-yilga nisbatan 3 foiz bandga pasayib, 24 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, avtokreditlarning o'rtacha tortilgan muddati 3,3 yilga to'g'ri kelib, 2024-yil bilan taqqoslaganda 0,6 yilga qisqargan.

¹⁰⁹ Milliy statistika qo'mitasi. (2026). O'zbekiston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2025-yil yanvar-dekabr.


91-chizma. Avtomobil xarid qilish qobiliyati indeksi




92-chizma. Avtokreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan muddatlar va foiz stavkalari



93-chizma. Avtomobil oldi-sotdi shartnomalari soni, ming dona



94-chizma. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan hamda import qilingan yangil avtomobillar soni, ming dona



Manba: Adliya vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izohlar: Avtomobil xarid qilish qobiliyati indeksining tushishi aholi tomonidan avtomobil xarid qilish imkoniyatining pasayganini, aksincha ortishi esa avtomobil xarid qilish imkoniyatining oshganligini anglatadi.

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yangil avtomobillar tarkibida maxsus yangil avtomobillar inobatga olinmagan.

Avtomobillar bozorida faollik susaygan. 2025-yilda avtomobillar bozorida taklif hajmi oshgan. O'zbekistonda 2025-yil davomida maxsus yengil avtomobillardan tashqari qariyb 403,6 mingta yengil avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 2024-yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz shakllandi¹¹⁰. Yengil avtomobillar import hajmi 79,8 mingtani tashkil etib, yillik hisobda 7 foizga ko'paygan¹¹¹. Shuningdek, import tarkibida nisbatan arzonroq avtomobillar ulushi ortishi natijasida ularning o'rtacha qiymati 14,7 ming AQSh dollarigacha pasayib, 2024-yil bilan solishtirganda 14 foizga arzonlashgan. Ayni paytda, 2025-yil davomidagi avtomobil oldi-sotdi shartnomalari soni 665 mingtani tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 22 foizga kamaygan.

Avtokreditlar bozorida konsentratsiya darajasi pasayishda davom etmoqda. 2025-yil yakuniga ko'ra, avtokreditlar qoldig'i bo'yicha HH indeksi 1 038 ni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 191 birlikka kamaygan va past konsentratsiyalashuv guruhiga yaqinlashgan. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, barcha banklar avtokreditlar qoldig'i 39,7 trln so'mni tashkil etib, jami kredit portfelining 7 foizida shakllandi¹¹². Shu bilan birga, avtokreditlarning chakana kredit portfelidagi ulushi nisbatan yuqori bo'lgan ayrim banklarda avtokreditlar qoldig'ining yillik o'sish sur'atlari tezlashgan. O'z navbatida, amaldagi makroprudensial talablarga muvofiq avtokreditlarning bank kredit portfelidagi ulushi 25 foizdan oshmasligi belgilangan¹¹³.


¹¹⁰ Milliy statistika qo'mitasi. (2025). O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi.

¹¹¹ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi. (2026). Iste'mol tovarlar importi to'g'risida ma'lumot (Transport vositalari).


¹¹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari.

¹¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 8-apreldagi "Banklarga o'rnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzarlar) bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 7/3-sonli qarori.


95-chizma. Avtokreditlar qoldig'i bo'yicha konsentratsiya darajasi, HH indeksi*




96-chizma. Banklar qirqimida avtokreditlar holati, %
2026-yil 1-yanvar**



97-chizma. Mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlar, %



98-chizma. Mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlar tarkibi, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izohlar: *HH indeksi raqobat darajasiga ko'ra past darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan past), o'rta darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan 1800 gacha) va yuqori darajada konsentratsiyalashgan (1800 dan yuqori) guruhlariga bo'linadi.

**Avtokredit qoldig'ining yillik o'sish sur'ati 400 foizdan yuqori bo'lgan banklar inobatga olinmagan. Shuningdek, uzoq to'g'ri chiziqlar bank tizimi bo'yicha 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlarini anglatadi.


99-chizma. Mikroqarz oluvchilar soni, mln kishi




100-chizma. Har bir mikroqarz oluvchiga to'g'ri keladigan shartnomalari soni, dona



101-chizma. Banklar qirqimida jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarning holati*, 2026-yil 1-yanvar



102-chizma. Banklar tomonidan ajratilgan mikroqarzlarning qoldig'i bo'yicha konsentratsiya darajasi, HH indeksi**



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izohlar: *Mikroqarzlarning qoldig'ining yillik o'sish sur'ati 200 foizdan yuqori bo'lgan banklar inobatga olinmagan. Shuningdek, uzun to'g'ri chiziqlar bank tizimi bo'yicha 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlarini anglatadi.

**HH indeksi raqobat darajasiga ko'ra past darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan past), o'rta darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan 1800 gacha) va yuqori darajada konsentratsiyalashgan (1800 dan yuqori) guruhlariga bo'linadi.

Mikroqarzlilar bo'yicha muammoli kreditlarning qoplash koeffitsiyenti yuqori shakllandi. 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, mikroqarzlilar bo'yicha muammoli kreditlar uchun yaratilgan zaxiralar miqdorining muammoli kreditlardagi ulushi 50 foizga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos holatiga nisbatan 11 foiz bandga oshgan. Shuningdek, mikroqarzlilar bo'yicha muammoli kreditlarning jami mikroqarzlilardagi ulushi 2025-yil yakunida 4 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz shakllangan.

Mikroqarzlilar bo'yicha muammoli kreditlarning sifat tarkibi biroz yomonlashgan. 2025-yil yakuniga ko'ra, mikroqarzlilar bo'yicha muammoli kreditlarning 49 foizi "shubhali" va "umidsiz" deb tasniflangan kreditlar hissasiga to'g'ri kelgan. Mazkur ko'rsatkich 2024-yil bilan taqqoslaganda 2 foiz bandga yuqorilagan. Mikroqarzlilar sifatining yomonlashishi mazkur segmentda kredit xatari bilan bog'liq xavotirlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Bitta qarzdorga to'g'ri keladigan mikroqarz shartnomalar soni ortib bormoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklaridan mikroqarz oluvchilar soni qariyb 2,7 mln kishini tashkil etib, 2025-yil mos davri bilan taqqoslaganda 16 foizga oshgan. Shuningdek, har bir mikroqarz oluvchiga to'g'ri keladigan o'rtacha shartnomalar soni 1,7 tadan 1,9 tagacha ko'paygan. Bu holat, mikroqarzlilar bo'yicha bir nechta qarz majburiyatlariga ega jismoniy shaxslarda qarz yukining oshishiga hamda banklarda kredit yo'qotishlari yuzaga kelish xavfini kuchaytirishi mumkin.

Mikroqarzlilar bo'yicha konsentratsiya darajasi pasaymoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mikroqarzlilar qoldig'i bo'yicha HH indeksi 920 ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2025-yil mos davriga nisbatan 76 birlikka kamayib, past konsentratsiyalashuv guruhida shakllangan. Shu bilan birga, mikroqarzlilar qoldig'i 48,9 trln so'mga yetdi hamda jami kredit portfelidagi ulushi 8 foizni tashkil etdi. Bank tizimida mikroqarzlilar bo'yicha konsentratsiya darajasi kamayganiga qaramasdan, ba'zi banklar kredit portfeli tarkibida mikroqarzlilar ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

4-havola. Aholi qarz yuki so'rovnomasi

Markaziy bank tomonidan O'zbekistonning barcha hududlari bo'yicha jami 5,8 ming respondentlar ishtirokida 2026-yil I yarim yilligi uchun aholi qarz yuki darajasini aniqlash bo'yicha navbatdagi so'rovnoma¹¹⁴ o'tkazildi. Aholi qarz yuki darajasini baholashda respondentlarning bank va bankdan tashqari tashkilotlar oldidagi majburiyatlari inobatga olingan.

So'rovnoma ishtirokchilari orasida oila a'zolari soni 5 kishidan iborat bo'lgan respondentlar eng katta ulushga ega bo'lib, 28 foizni tashkil etdi. Shuningdek, respondentlarning katta qismi asosiy mehnat faoliyati bo'yicha oilaviy o'rtacha oylik daromadi 12 mln so'mgacha ekanligini qayd etgan.

Bundan tashqari, jami respondentlarning 19 foizi qo'shimcha daromad manbaiga ega ekanini bildirgan. Xususan, mazkur respondentlarning 58 foizida 4 mln so'mgacha bo'lgan qo'shimcha oylik daromadi mavjud.

Jami respondentlarning 77 foizi o'zi yoki oila a'zolaridan birida bank va bankdan tashqari qarz majburiyatlari mavjudligini qayd etgan. Shu bilan birga, respondentlarning 68 foizi bankdan qarz majburiyatiga ega bo'lib, ushbu respondentlarning har beshdan birida bankdan tashqari qarz majburiyatlari ham mavjud.

Qarz mablag'larining 20 foizi uy-joy sotib olish yoki ta'mirlash, 18 foizi avtomobil xarid qilish maqsadida jalb qilingan. Shuningdek, qarz majburiyatiga ega respondentlarning 8 foizi mavjud qarzni so'ndirish uchun qarz jalb qilganligini qayd etishgan.

Jami respondentlarning 68 foizida barcha qarz majburiyatlari bo'yicha oylik to'lov miqdori 6 mln so'mdan kam summani tashkil etmoqda. Shu bilan birga, respondentlarning 48 foizi qarz majburiyatlari bo'yicha to'lov muddati 3 yildan kam qolayotganligini bildirishgan. Qarz majburiyatlari bo'yicha qolgan to'lov muddati 5 yil va undan ortiq deya ta'kidlagan respondentlarning ulushi 27 foizni tashkil etgan.


Respondentlarning 61 foizi qarz majburiyatlarini o'z vaqtida qaytarishda qiyinchiliklarga duch kelayotganligini ma'lum qilishgan. Shuningdek, qarz majburiyati mavjud respondentlarning 47 foizi keyingi 6 oy davomida to'lov qobiliyatining yaxshilanishini, 42 foizi o'zgarish bo'lmasligini kutmoqda.

Jami respondentlarning 15 foizi keyingi 6 oy davomida o'zi yoki oila a'zolari tomonidan qo'shimcha qarz olishga ehtiyoj borligini bildirgan. Xususan, ushbu respondentlarning chorak qismi qarz mablag'lar hisobiga uy-joy sotib olish yoki ta'mirlashni rejalashtirgan.


¹¹⁴ Markaziy bank tomonidan mazkur so'rovnoma 2026-yil 20–27-yanvar kunlari o'tkazilgan.

Aholining qarz yuki bo'yicha so'rovnoma namunasi 2024-yil I yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan


103-chizma. Oila a'zolari soni, %




104-chizma. Oilaning asosiy ish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik daromadi, %




105-chizma. Oilada qo'shimcha daromadning mavjudligi




106-chizma. Oilaning qo'shimcha oylik daromadi, %



107-chizma. Bank va bankdan tashqari qarz majburiyatining mavjudligi




108-chizma. Bankdan qarz majburiyatining mavjudligi




Manba: Markaziy bank so'rovnomasi.


109-chizma. Bankdan qarzidor respondentlarning bankdan tashqari majburiyatlarining mavjudligi




110-chizma. Bank va bankdan tashqari olingan qarzlarning maqsadlari, %




111-chizma. Jami qarz majburiyatlari bo'yicha oylik to'lov miqdori, %




112-chizma. Jami qarz majburiyatlari bo'yicha qolgan to'lov muddati, %



113-chizma. Qarz majburiyatlarini o'z vaqtida qaytarishdagi qiyinchiliklarning mavjudligi




114-chizma. Keyingi 6 oy davomida to'lov qobiliyatidagi o'zgarishlar bo'yicha kutilmalar




Manba: Markaziy bank so'rovnomasi.


115-chizma. Keyingi 6 oy davomida qo‘shimcha qarz olish rejalari



116-chizma. Keyingi 6 oy davomida olinishi rejalashtirilgan qarz maqsadlari, %



117-chizma. Bankdan qarzdor respondentlarning qarz yuki taqsimoti



Manba: Markaziy bank so'rovnoma.

Bankdan qarzdor respondentlarning jami majburiyatlari bo'yicha o'rtacha qarz yuki darajasi¹¹⁵ 51 foizni tashkil etdi¹¹⁶ va mediana ko'rsatkichi 47 foizga to'g'ri keldi. Shuningdek, qarz yuki taqsimoti bo'yicha respondentlarning 47 foizida qarz yuki darajasi 50 foizdan yuqori darajada shakllangan. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davrida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra 1 foiz bandga pasaygan bo'lib, aholi qarz yuki darajasida biroz yaxshilanish kuzatilganligini ko'rsatmoqda.

¹¹⁵ Bank kreditlari mavjud respondentlarning jami o'rtacha qarz yuki darajasi bank va bankdan tashqari qarz majburiyatlari bo'yicha jami oylik to'lov miqdorining jami asosiy va qo'shimcha oylik daromadlariga nisbati orqali hisoblangan.

¹¹⁶ Respondentlarning oilaviy asosiy va qo'shimcha oylik daromadlari, xarajatlari, shuningdek qarzlari bo'yicha oylik to'lovlar miqdorini aniqlashda javoblarda keltirilgan oraliqlarning yuqori va quyi chegaralarining o'rtacha qiymati inobatga olingan. Shuningdek, yuqoridan chegaralanmagan oraliqning shartli yuqori chegarasi, ushbu oraliqning quyi chegarasiga oldingi oraliq kattaligini (yuqori va quyi chegaralari orasidagi farq) qo'shish orqali aniqlangan.


3.2. Korporativ sektor

Korporativ sektorda xavotirlar pasaygan. Milliy valyutaning mustahkamlanishi hamda korporativ kreditlar tarkibida milliy valyutadagi kreditlar ulushining ortishi ushbu sektorda valyuta xatarlarining ma'lum darajada pasayishiga xizmat qildi. Shuningdek, korporativ sektorda tahlil etilgan korxonalar daromadlilikining oshishi, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi ushbu korxonalar moliyaviy holati mustahkamlangani hamda majburiyatlarni bajara olmaslik ehtimoli kamayganini ko'rsatmoqda.


Xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar qoldig'ining AQSh dollari ekvivalentidagi qiymati oshmoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga korporativ kreditlar yillik hisobda 8 foizga o'sib, 383,7 trln so'mni tashkil etdi. Bunda, korporativ kreditlar o'sish sur'atining sekinlashishiga xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar qoldig'ining so'm ekvivalentidagi o'sishi pasaygani ta'sir ko'rsatdi. Xususan, 2025-yil yakunida xorijiy valyutadagi kreditlar qoldig'ining so'm ekvivalentidagi qiymati 236,8 trln so'mga yetib, 4 foiz bandga oshgan. Xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar hajmi AQSh dollari ekvivalentida 11 foizga oshgan. 2025-yil davomida yuridik shaxslarga xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 10 foiz atrofida shakllandi. Shu bilan birga, milliy valyutada ajratilgan korporativ kreditlar miqdori yillik o'sish sur'ati 16 foizda shakllanib, 2026-yilning 1-yanvar holatiga 146,9 trln so'mga yetdi.

Yuridik shaxslar kredit portfeli qoldig'ining YaIMga nisbati va uning uzoq muddatli trendi o'rtasidagi manfiy shakllangan. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, korporativ kreditlar qoldig'ining YaIMga nisbati 21 foizni tashkil etib, uzoq muddatli trendiga nisbatan manfiy tafovut shakllangan. Shuningdek, korporativ kreditlar portfeli tarkibida asosiy ulushni egallagan sanoat tarmog'i bo'yicha kreditlar qoldig'i yillik hisobda 7 foizga qisqarib, 143 trln so'mda shakllandi. 2025-yil yakuniga ko'ra, sanoat tarmog'iga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati 8 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, qurilish tarmog'iga ajratilgan kreditlar qoldig'ida 46 foizlik yuqori o'sish kuzatildi.


118-chizma. Korporativ kredit qoldiqlari va yillik o'sish sur'ati




119-chizma. Xorijiy valyutadagi korporativ kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavka, %



120-chizma. Tarmoqlar bo'yicha korporativ kredit qoldiqlarining yillik YaIMga nisbati, %




121-chizma. Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti, foiz band




Manba: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitoblari.


122-chizma. Majburiyatlarning kapitalga nisbati hamda zarar ko'rayotgan korxonalar ulushi, %




123-chizma. Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti, %



124-chizma. Mutlaq hamda joriy likvidlilik koeffitsiyentlari, %



125-chizma. Aktivlar rentabelligi, %



Manbalar: Korporativ axborot yagona portali, korxonalarning moliyaviy hisobotlari va Markaziy bank hisob-kitoblari.

Izohlar: Tahlilda yirik soliq to'lovchi va (yoki) yirik qarzi mavjud bo'lgan 440 ta korxona ma'lumotlari asosida aniqlangan.

Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti soliq to'lagunga qadar sof foydani foizli xarajatlar miqdoriga nisbati orqali hisoblanadi. Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti korxonaning soliq to'langunga qadar sof foydasi uning qarzlarini bo'yicha foizli xarajatlarni necha barobariga qoplashi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning 100 foizdan past bo'lishi korxona joriy daromadlaridan foydalangan holda foiz to'lovlari bo'yicha qarz majburiyatlarini bajara olmasligi va natijada defolt xavfi yuqori ekanligidan ogohlantiradi.

Korporativ sektorda tahlil qilingan korxonalar¹¹⁷ leveraj koeffitsiyenti pasaydi. 2025-yil yakuni bo'yicha korxonalar majburiyatining kapitalga nisbati 152 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 7 foiz bandga kamaydi. Shuningdek, tahlil etilgan tashkilotlar bo'yicha zarar ko'rayotgan korxonalar ulushi 2 foiz bandga kamayib, jami korxonalarning 37 foizini tashkil etdi. Bu o'z navbatida, korxonalarning moliyaviy holati yaxshilangani hamda majburiyatlarni bajarish bo'yicha to'lov qobiliyati ortganligini ifodalaydi.

Korxonalarda foizli xarajatlarni qoplash holati yaxshilangan. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, korxonalarda foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti ortib, 937 foizga yetgan. Bunda, korxonalar daromadining o'sishi hamda zarar ko'rayotgan korxonalar ulushining kamayishi hisobiga ushbu ko'rsatkich yaxshilandi. Shu bilan birga, 51 foiz korxonalarda foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti 100 foizdan past bo'lib, bu 2024-yil mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz shakllandi.

Korxonalarning likvidlilik holati mustahkamlangan. 2025-yil yakuni bo'yicha korxonalar mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti¹¹⁸ 11 foizni tashkil etgan bo'lib, 2024-yil mos davri bilan solishtirganda 4 foiz bandga o'sgan. Shu bilan birga, joriy likvidlilik koeffitsiyenti¹¹⁹ yillik 2 foiz bandga oshib, 2026-yil 1-yanvar holatiga 131 foizda shakllangan. Ushbu holat korxonalarning qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida qoplash imkoniyati mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Korxonalarning rentabelligi ortmoqda. 2025-yil yakuniga ko'ra, korxonalarning aktivlar rentabelligi 19 foizni tashkil etgan. 2025-yil boshiga nisbatan ushbu ko'rsatkich yillik hisobda 8 foiz bandga oshgan.

¹¹⁷ Korporativ sektorni tahlil qilishda yirik qarz oluvchi va yirik soliq to'lovchi tashkilotlar orasidan ma'lumotlarning mavjudligi asosida 440 ta korxona tanlab olingan.

¹¹⁸ Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti korxonaning pul mablag'lari uning joriy majburiyatlarini qanday darajada qoplashini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning eng likvid bo'lgan pul mablag'larining joriy majburiyatlarga nisbati orqali hisoblangan.

¹¹⁹ Joriy likvidlilik koeffitsiyenti joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichning 100 dan yuqori bo'lishi korxonaning moliyaviy holati barqaror ekanligini bildiradi. Moliyaviy barqarorlik sharhlarida korporativ sektorda tahlil qilinadigan korxonalar ro'yxati yirik qarz oluvchilar tarkibining yangilab borilishi hamda ma'lumotlarning mavjudligi tufayli o'zgarishi mumkin.

IV. Aktivlar bozori

4.1. Ko'chmas mulk bozori


Uy-joylarning bozor narxi baholangan o'rtacha fundamental narx atrofida shakllandi. Ko'chmas mulk bozorida talabni rag'batlantiruvchi omillardagi ijobiy o'zgarishlar uy-joylarning fundamental qiymatini ortishida o'z ifodasini topgan. Jumladan, uy-joy taklifining ortishi hamda bozor narxlarida kuzatilgan tuzatishlar sharoitida aholi daromadining ko'payishi hamda ipoteka kredit ajratish shartlarining yengillashishi natijasida aholining uy-joy xarid qilish qobiliyati yaxshilandi. Bu esa, o'z navbatida, ko'chmas mulk bozorida faollikning ortishiga ta'sir ko'rsatdi va talabni rag'batlantirdi.

Uy-joylarning bozor narxi fundamental narxlarning standart chetlanish oralig'iga qaytdi. 2025-yilda uy-joylarning bozor narxi ko'chmas mulk bozorida uy-joylarning fundamental qiymatini baholash bo'yicha narx va daromad, Bayesian state space model (BSSM), kvantil regressiya hamda potensial talab (Potential Demand) model natijalari bo'yicha o'rtacha qiymatiga nisbatan bir standart chetlanish oralig'ida shakllandi. Ushbu holat, ko'chmas mulk bozorida bozor narxlarining shakllanishida fundamental omillarning ta'siri ortganligini ifodalamoqda.


Milliy valyuta kursining mustahkamlanishi uy-joy narxlaridagi tuzatishlarni xorijiy valyuta ekvivalentida yengillashiga xizmat qildi. 2025-yil yakuni bo'yicha uy-joylarning bozor narxi yillik hisobda 4,8 foizga kamaydi¹²⁰. 2025-yilda milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan almashinuv kursining mustahkamlanishi hisobiga uy-joy narxlari xorijiy valyuta ekvivalentida yillik 1,5 foizga oshdi.

¹²⁰ Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Uy-joylarning narxlari indeksi dinamikasi (o'tgan yilning mos choragiga nisbatan).

126-chizma. Uy-joylarning bozor va fundamental narxlari, 1 m² uchun mln soʻmda



127-chizma. Uy-joylarning bozor narxi va fundamental narxlar oʻrtachasi boʻyicha standart chetlanish oraligʻi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Uy-joylarning oʻrtacha fundamental narxi narx va daromad¹²¹, Bayesian state space model¹²², kvantil regressiya¹²³ hamda potensial talab modellari orqali aniqlangan fundamental narxlarning oddiy oʻrtacha arifmetik qiymatini hisoblash orqali topilgan.

Chizmadagi toʻrtburchak shakl uy-joylarning bozor va oʻrtacha fundamental narxlari orasidagi farqni koʻrsatadi. Agar bozor narxi oʻrtacha fundamental narxidan katta boʻlsa, toʻrtburchakning ichki qismi toʻliq boʻyalgan va aksincha kichik boʻlsa, oq rangda boʻladi.

Uy-joylarning oʻrtacha bozor narxi ochiq internet veb-sahifalaridagi eʼlonlar asosida hisoblangan boʻlib, oldi-sotdi shartnomalar ushbu narxlarda tuzilganligini bildirmaydi.

Oʻzbekiston boʻyicha uy-joylarning oʻrtacha bozor narxi hududlar kesimida oʻrtacha uy-joy narxlari va oldi-sotdi shartnomalar sonidan kelib chiqqan holda narxlarning oʻrtacha tortilgan qiymati orqali aniqlanadi. Hududlar boʻyicha uy-joylarning oʻrtacha bozor narxi yakka tartibdagi uy-joylar va koʻp qavatli uylardagi xonadonlarning oʻrtacha narxlari va oldi-sotdi shartnomalar sonidan kelib chiqqan holda narxlarning oʻrtacha tortilgan qiymati orqali hisoblanadi.


Fundamental narxlar oʻrtachasi boʻyicha standart chetlanish oraligʻining quyi chegarasi model natijalari oʻrtacha qiymatidan ushbu oʻrtacha fundamental narxning barcha davrlar uchun umumiy hisoblangan standart chetlanishini ayirish orqali aniqlanadi. Fundamental narxlar oʻrtachasi boʻyicha standart chetlanish oraligʻining yuqori chegarasi esa, model natijalari oʻrtacha qiymati va ushbu oʻrtacha fundamental narxning barcha davrlar uchun umumiy hisoblangan standart chetlanish yigʻindisi orqali hisoblanadi.

¹²¹ Narx va daromad modeli metodologiyasi 2022-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.


¹²² Bayesian state space model (BSSM) metodologiyasi 2024-yil I yarim yillik uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

¹²³ Kvantil regressiya modeli metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.


128-chizma. Uy-joylarning bozor narxi indekslari (2020 Q1=100)




129-chizma. Qurilish-montaj ishlari, %



130-chizma. Ishga tushirilgan yangi xonadonlar soni, ming dona



131-chizma. Uy-joylar soni, mln dona



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Qurilish-montaj ishlari narxining yillik o'sish sur'ati biroz tezlashgan. 2025-yil yakuniga ko'ra, qurilish-montaj ishlari narxlari yillik 5,6 foizga o'sib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga oshgan¹²⁴. Xususan, qurilish-montaj ishlari xarajatlarining ortishi sharoitida ko'chmas mulk bozorida uy-joylar narxining kamayishi o'tgan davrlarda yuqori baholangan narxlardagi tuzatishlar bilan izohlash mumkin.

2025-yilda ko'chmas mulk bozorida taklif hajmi ortdi. 2025-yilda qurilish ishlari hajmining YaIMga nisbati 17 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 1,7 foiz bandga ortgan. Qurilish ishlari hajmining oshishi ko'chmas mulk bozorida qo'shimcha taklifni yaratgan. Xususan, 2025-yil davomida ishga tushirilgan yangi xonadonlar soni 2024-yilga nisbatan 3,6 foizga ko'paydi va 69,1 mingtani tashkil etdi¹²⁵. Shuningdek, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikada 7,7 mln dona uy-joylar mavjud¹²⁶.

Aholining ipoteka krediti asosida uy-joy xarid qilish qobiliyati mustahkamlana boshladi. Banklar tomonidan ajratiladigan ipoteka kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining nisbatan pasayishi va kredit so'ndirish muddatining uzayishi ipoteka kreditlari uchun sarflanadigan oylik to'lov miqdorini kamayishiga sabab bo'ldi. 2025-yilda ipoteka kredit ajratish shartlarining nisbatan yengillashganligi bilan birga o'rtacha oylik nominal ish haqining 19 foizga o'sganligi¹²⁷ hisobiga aholining ipoteka krediti asosida uy-joy xarid qilish imkoniyatlari yaxshilandi. Jumladan, aholining uy-joy xarid qilish qobiliyati indeksi 2025-yil davomida 115 foizdan 126 foizgacha oshdi. Uy-joy xarid qilish qobiliyatining ortishi 2025-yilda shaxsiy uy-joyga ega bo'lmagan uy xo'jaliklari sonining 2024-yilga nisbatan 34,7 mingtaga kamayishida o'z ifodasini topgan.


¹²⁴ Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha narxlar indeksi dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan).

¹²⁵ Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Ishga tushirilgan xonadonlar soni (choraklik).


¹²⁶ Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Kvartira (uy)lar soni.

¹²⁷ Milliy statistika qo'mitasi. (2026). O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi (choraklik).


132-chizma. Uy-joy xarid qilish qobiliyati indeksi*, %




133-chizma. Shaxsiy uy-joyga ega bo'lmagan uy-xo'jaliklari soni va jami uy xo'jaliklardagi ulushi



134-chizma. Uy-joy narxlarining aholi jon boshiga hisoblangan nominal YaIMga nisbati, %**



135-chizma. Uy-joy narxining ijara haqqiga nisbati*, indeks**



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izohlar: *Uy-joy xarid qilish qobiliyati indeksining pasayishi aholi tomonidan uy-joy xarid qilish imkoniyatining pasayganini, aksincha ortishi esa uy-joy xarid qilish imkoniyatining ortganini anglatadi.

**Uy-joylarning o'rtacha narxi ochiq internet veb-sahifalaridagi e'lonlar asosida hisoblangan bo'lib, uy-joylarning 1 kv. metr uchun to'g'ri keladigan o'rtacha narxni ifodalaydi.

***Uy-joy narxlari yillik o'sish sur'atining ijara haqlarining yillik o'sish sur'atiga nisbati inobatga olingan.

Aholining umumiy daromadlari uy-joy narxlariga nisbatan sezilarli darajada tezroq o'sgan. 2025-yilda aholi jon boshiga hisoblangan nominal YaIM hajmi 48,8 mln so'mni tashkil etib¹²⁸, 2024-yilga nisbatan nominal hisobda 18 foizga oshdi. Aholi jon boshiga YaIM miqdorining ortishi va uy-joy narxlarining arzonlashishi hisobiga 2025-yil yakunida uy-joy bozor narxlarining aholi jon boshiga hisoblangan YaIMga nisbati 19 foizgacha pasaydi.


Bozor ishtirokchilari aktivlar narxining o'sishiga emas, balki barqaror ijara daromadiga tayanuvchi ehtiyotkorona sarmoyaga o'tmoqda. Uy-joy narxlarining yillik o'sishi ijara haqlari o'sishiga nisbatan past shakllandi. 2025-yilda uy-joy narxlari o'sish sur'atining ijara haqlari o'sishiga nisbatining birdan past darajaga tushishi ko'chmas mulk bozoriga investitsiya kiritish xususiyati o'zgarganligidan dalolat beradi. Xususan, talab tomonidan uy-joyga bo'lgan spekulyativ qiziqishning susayishi narxlardagi tuzatishlarni keltirib chiqaruvchi omillardan bo'ldi. Ko'chmas mulk bozoridagi ijara haqlari qariyb 3 foizga o'sdi¹²⁹.

O'zbekiston aholisi daromadlarining o'sishi sharoitida uy-joy narxlarida tuzatishlar kuzatilmoqda. 2025-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda o'rtacha oylik ish haqining yillik o'sish sur'ati uy-joy narxlari o'sishiga nisbatan 24 foiz bandga yuqoriroq bo'ldi. 2025-yil yakuni bo'yicha O'zbekistonda uy-joy narxlari yillik o'sish sur'atining o'rtacha oylik ish haqining yillik o'sish sur'atiga nisbati Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarining interkvartil oralig'ining pastki chegarasidan pastroq shakllanishida o'z ifodasini topdi.


¹²⁸ Milliy statistika qo'mitasi. (2026). O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti.

¹²⁹ Milliy statistika qo'mitasi. (2026). O'zbekiston Respublikasi bo'yicha barcha tovar va xizmatlar narxlari indeksi, o'tgan oyga nisbatan.


6-chizma. Uy-joy narxining oʻrtacha ish haqiga nisbati*, indeks




137-chizma. Oʻzbekistonda aholi sonining yillik oʻsishi, %



138-chizma. Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari¹³⁰ boʻyicha aholi zichligi (1 km² ga toʻgʻri keladigan aholi soni), kishi



139-chizma. Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari¹³¹ boʻyicha uy-joy narxining oʻrtacha ish haqiga nisbati, indeks



Interkvartil oraliq
Mediana
Oʻzbekiston

Manbalar: Birlashgan millatlar tashkiloti, vakolatli davlat organlari, Milliy statistika qoʻmitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: *Uy-joy narxlari yillik oʻsish surʼatining oʻrtacha oylik ish haqining yillik oʻsish surʼatiga nisbati inobatga olingan.

¹³⁰ Xalqaro valyuta jamgʻarmasi tasnifining Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari guruhi boʻyicha Armaniston, Gruzniya, Ozarbayjon, Tojikiston, Oʻzbekiston, Qirgʻiziston va Qozogʻiston davlatlari inobatga olingan.

¹³¹ Jahon banki tasnifining Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari guruhi boʻyicha Armaniston, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Gruzniya, Kipr, Latviya, Norvegiya, Ozarbayjon, Farer orollari, Shimoliy Makedoniya va Oʻzbekiston davlatlari inobatga olingan.


O‘zbekiston ko‘chmas mulk bozorida demografik omil ta’siri kamaymoqda. 2025-yil yakuniga ko‘ra O‘zbekiston doimiy aholisining yillik o‘sinh sur’ati 2024-yildagi 2 foizlik ko‘rsatkichdan 1,8 foizgacha pasaydi. Xususan, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda doimiy aholi soni 38,2 mln kishini tashkil etib, mamlakat hududining 1 km² maydoniga o‘rtacha 85 kishi to‘g‘ri keldi¹³². Jumladan, O‘zbekistonda aholi zichligi 2025-yil yakunida Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari interkvartil oralig‘ining yuqori chegarasidan pastroq shakllandi.

Ko‘chmas mulk bozorida faollik orta boshladi. 2025-yil davomida turar joy bilan bog‘liq notarial imzolangan oldi-sotdi shartnomalar soni 2024-yilga nisbatan 15 foizga ortib, 295,4 mingtani tashkil etdi. Jumladan, 2025-yilda aholi umumiy daromadlarining real hisobda 9,2 foizga o‘shishi¹³³, shuningdek shaxsiy uy-joyga ega bo‘lgan uy-xo‘jaliklari sonining 2024-yilga nisbatan 207,3 mingtaga ko‘payishi ko‘chmas mulk bozoridagi faollikni ortishida o‘z ifodasini topdi. Shuningdek, 2025-yilda aholiga ipoteka kreditlari ajratish ko‘lami ortdi. Bunda, uy-joy oldi-sotdi shartnomalarining 24 foizi ajratilgan ipoteka kreditlari hisobiga to‘g‘ri kelgan.


¹³² Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). O‘zbekiston Respublikasida demografik holat.

¹³³ Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). Aholi real umumiy daromadlari o‘sinh sur’atlari (choraklik).


140-chizma. 2026-yil 1-yanvar holatiga banklar qirqimida I darajali kapital va ipoteka kreditlarni jami kreditlarga nisbati*, %




141-chizma. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarning o'rtacha miqdori, mln so'm



142-chizma. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari soni, mingta



143-chizma. Har 1 000 kishiga to'g'ri keladigan ipoteka kredit oluvchilar soni, kishi**




Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi, Adliya vazirligi va Markaziy bank hisob-kitobi.


Izohlar: *Chizmada I darajali kapitalni jami kreditlarga nisbati 60 foizdan yuqori bo'lgan banklar inobatga olinmagan.

**Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni inobatga olingan. Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni – muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollardan iborat.


144-chizma. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari sonining uy-joy oldi-sotdi shartnomalari sonidagi ulushi, %




145-chizma. Uy-joy oldi-sotdi shartnomalari soni*, mingta



146-chizma. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha tortilgan foiz stavkasi, %



147-chizma. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha tortilgan muddati, yil



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: *Yakka tartibdagi uy-joylar va ko'p qavatli uylardagi xonadonlar bo'yicha notarial rasmiylashtirilgan turar joy bilan bog'liq oldi-sotdi shartnomalari soni hisobga olingan.

Ko'chmas mulk bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning aksariyat banklarga ta'siri pasaygan. 2026-yil 1-yanvar holatida, bank tizimi bo'yicha ipoteka kreditlarining jami kredit portfelidagi ulushi 13 foizni¹³⁴, I darajali kapitalni jami kreditlarga nisbati 21 foizni tashkil etdi. Kredit portfeli tarkibida ipoteka kreditlari nisbatan yuqoriroq bo'lgan ayrim banklarda jami kreditlarga nisbatan I darajali kapital miqdorining past shakllanganligi hisobiga ko'chmas mulk bozoridagi tuzatishlar ushbu banklar to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Banklar tomonidan ipoteka kreditlarini ajratish ko'lamini kengaygan. 2025-yil davomida aholiga banklar tomonidan 70,4 mingta ipoteka kreditlari ajratilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 20 foizga ko'paygan¹³⁵. Shuningdek, mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi tarkibida har 1000 kishiga to'g'ri keladigan ipoteka kredit oluvchilar soni 2025-yilda 18 kishidan 20 kishiga yetdi. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha miqdori 2025-yilda 2024-yildagi 290,5 mln so'mdan 301,3 mln so'mgacha oshdi. Bu esa, o'z navbatida, aholi daromadlarining ortishi va ipoteka kredit shartlarining yengillashganligidan dalolat berib, ipoteka kreditlari ko'chmas mulk bozoridagi talabning oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Banklarning ipoteka kredit standartlari yengillashgan. 2025-yilda aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha tortilgan so'ndirish muddati 17,2 yilni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 0,6 yilga uzaygan. Shuningdek, 2025-yilda o'rtacha tortilgan ipoteka kredit foiz stavkasi 19,2 foizda shakllanib, 2024-yilga nisbatan 0,6 foiz bandga pasaygan. Bunda, ipoteka kreditlash shartlarining yengillashishi aholini uy-joy xarid qilish imkoniyatlarini oshirib, ko'chmas mulk bozoridagi talabni oshiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

¹³⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i to'g'risida kreditlar turlari bo'yicha ma'lumot.

¹³⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil Statistik byulleten.

5-havola. Uy-joylarning fundamental narxini aniqlash bo'yicha potensial talab modeli

Ko'chmas mulk bozorida uy-joylarning fundamental qiymatini yanada aniqroq baholash, shuningdek narx shakllanishini talab tomonidan tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida potensial talab modeli¹³⁶ ishlab chiqildi (3-ilova).

Ushbu model iqtisodiyotda band bo'lgan aholi tomonidan ko'chmas mulk bozorida yaratilishi mumkin bo'lgan talab asosida fundamental qiymatini baholashga asoslanadi. Xususan, uy-joyga bo'lgan potensial talab mehnat bilan band aholi tomonidan ko'chmas mulk bozorida shakllantirilishi mumkin bo'lgan umumiy xarid imkoniyatlari asosida baholanadi.

Uy-joyga bo'lgan potensial talab miqdorini aholi daromadi, jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i, ipoteka kreditlarining foiz stavkasi va muddatidan kelib chiqib baholash, shuningdek potensial talab miqdori ta'sirida shakllanadigan uy-joy narxlarining fundamental qiymatini aniqlash bir nechta bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich. Aholi ixtiyoridagi jami oylik daromad miqdorini hisoblashda, mehnat bilan band jami aholi soni soliq va majburiy to'lovlarni to'lagandan keyingi o'rtacha oylik ish haqi miqdoriga ko'paytiriladi.

Ikkinchi bosqich. Jismoniy shaxslarning mavjud bank kreditlari bo'yicha oylik to'lov miqdori aniqlanadi. Bunda, aholining banklardan olgan kreditlari qoldig'i, shuningdek mazkur kreditlarning o'rtacha tortilgan foiz stavkasi va muddatidan kelib chiqib, o'rtacha oylik kredit to'lov miqdori hisoblanadi.

Uchinchi bosqich. Aholining uy-joy xarid qilish imkoniyatlari mehnat bilan band bo'lgan aholi ixtiyoridagi daromad miqdoridan jismoniy shaxslarning bank kreditlari bo'yicha oylik to'lovlarni ayirib tashlash orqali aniqlanadi.

To'rtinchi bosqich. Aholining uy-joy xarid qilish imkoniyatlari bilan birga ipoteka kreditlarining o'rtacha tortilgan foiz stavkasi va so'ndirish muddati orqali potensial talab miqdori aniqlanadi. Bunda, mehnatga layoqatli aholining soliqlar, majburiy to'lovlar va kredit bo'yicha oylik to'lovlarni to'lagandan keyin qoladigan oylik daromadi orqali qancha miqdordagi ipoteka kreditlarini jalb qilish imkoniyatlari baholanadi.

Beshinchi bosqich. Uy-joylarning fundamental narxi potensial talab va model orqali baholangan koeffitsiyentlar orqali quyidagicha hisoblanadi:

$$FP_t = e^{\alpha \cdot \ln(D_t) + \beta}$$

Bu yerda,

FP – uy-joylarning fundamental narxi;

D – potensial talab;

α, β – noma'lum koeffitsiyentlar;


t – choraklar.

¹³⁶ Cesnak, M., Klasco, J., Kupkovič, P., Moravčík, A., Rychtárik, Š., & Vrbovský, R. (2024). Assessing residential real estate prices in Slovakia: possible approaches and indices. National Bank of Slovakia.


Oltinchi bosqich. Noma'lum koeffitsiyentlar uy-joylarning bozor narxi va potensial talab miqdori orasidagi tarixiy bog'liqlikdan kelib chiqib, eng kichik kvadratlar usuli (Ordinary Least Square, OLS) modeli orqali aniqlanadi.

Potensial talab modeli orqali uy-joylarning fundamental narxini baholashda mehnat bilan band jami aholi soni, aholi ixtiyoridagi daromadi, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i, ipoteka kreditlarining foiz stavkasi va so'ndirish muddati kabi omillar inobatga olinadi.

148-chizma. Uy-joy xarid qilish imkoniyatining yillik o'zgarish dekompozitsiyasi



149-chizma. Potensial talab miqdorining yillik o'zgarish dekompozitsiyasi



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

2025-yil yakuni bo'yicha jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i 2024-yilga nisbatan 24 foizga ortdi. Mehnat bilan band bo'lgan jami aholi soni 5 foizga, o'rtacha oylik ish haqi qariyb 19 foizga ortishi uy-joy xarid qilish imkoniyatlarini oshirdi. Aholining uy-joy xarid qilish imkoniyatlarining ortishi, shuningdek banklar tomonidan ipoteka kreditlarini ajratish shartlarining yengillashganligi natijasida ko'chmas mulk bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial talab miqdori 2025-yil davomida 29 foizga ko'paydi.

Mehnat bilan band jami aholi sonining ortishi va ularning o'rtacha oylik daromadining ko'payishi yalpi daromad hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatgan. Daromadning ortishi, shuningdek ipoteka kreditlari bo'yicha foiz stavkasining pasayishi hamda so'ndirish muddatining uzayishi aholining uy-joy xarid qilish imkoniyatlarini kengaytirib, ko'chmas mulk bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial talabni oshirgan. Uy-joyga bo'lgan potensial talabning ortishi esa, o'z navbatida, ko'chmas mulk bozorida uy-joylarning fundamental narxi o'sishiga turtki bo'lgan.

4.2. Kapital bozori

Global noaniqliklar sharoitida O‘zbekiston kapital bozorida faollik kuzatildi. Aksiya va korporativ obligatsiyalar bozorining sezilarli faollashuvi bilan birga listingdan tashqari savdo maydonchasidagi savdolar ko‘lami ham ortgan. Shu bilan birga, tijorat banklarining kapital bozoridagi ishtiroki va ularning bank tizimiga ta’siri oshdi. Xalqaro reyting agentliklari tomonidan O‘zbekiston suveren kredit reytingining yuqori baholanishi hamda davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlilikning pasayishi mamlakatga nisbatan investorlarning xatar kutilmalari pasayganligi va suveren yevroobligatsiyalarga talabning ortganidan dalolat beradi.

Kotirovkalash varag‘idagi emitentlarning aksiyalar narxi fond birja savdolarida qimmatlashgan. 2025-yil yakunida UCI indeksi 2024-yilga nisbatan 89 birlikka oshib, 744 ko‘rsatkichni qayd etdi. Kotirovkalash varag‘iga kiritilgan aksiya emitentlari sonining 89 tadan 85 tagacha pasayishiga qaramay, UCI indeksidagi¹³⁷ o‘sish aksiyalar bozor narxining ortishi¹³⁸ ta’sirida yuzaga kelgan.

Korporativ obligatsiyalar bozori kengaymoqda. 2025-yilda amalga oshirilgan korporativ obligatsiyalar bozoridagi savdolar hajmi 1,7 trln so‘m miqdorida shakllanib, 2024-yilga nisbatan 4,5 barobar ko‘paydi. Shundan, bank obligatsiyalari bo‘yicha 0,9 mlrd so‘m miqdorida savdolar amalga oshirildi. 2025-yilda korporativ obligatsiyalar bozorida birja kotirovkalash varag‘idagi emitentlarning 26 ta instrumentlari bilan 11,8 mingga yaqin bitimlar tuzilib¹³⁹, har bir bitimning miqdori o‘rtacha 144,5 mln so‘mda shakllandi.

¹³⁷ UCI quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$UCI = \frac{Market\ Cap_{current\ date}}{Market\ Cap_{base\ date}} * Base\ index$$

Bu yerda,

Market Cap_{current date} – birja kotirovkalari ro‘yxatiga kiritilgan barcha aksiya emitentlarining joriy savdo sanasidagi so‘nggi bitim bo‘yicha tizim tomonidan hisoblangan jami kapitallashuv darajasi;


Market Cap_{base date} – indeks yaratilgan sanadagi (29.08.2016) birja kotirovkalari varaqasiga kiritilgan barcha aksiya emitentlarining so‘nggi bitim bo‘yicha tizim tomonidan hisoblangan jami kapitallashuv darajasi;

Base index – indeks ko‘rsatkichi uchun belgilangan qiymat 1 000 ga teng.


¹³⁸ Respublika fond birjasi. (2026). Savdo natijalari.

¹³⁹ Respublika fond birjasi. (2026). Press-reviz: 2025-yil.


150-chizma. Respublika fond birjasi UCI indeksi




151-chizma. Respublika fond birjasidagi emitentlar soni, dona



152-chizma. O'zbekistonda korporativ obligatsiyalar bozoridagi savdolar hajmi va bitimlar soni




153-chizma. Listingdan tashqari savdo maydonchasidagi savdolar hajmi va bitimlar soni




Manba: Respublika fond birjasi.

Izoh: Uzbekistan Composite Index (UCI) – Respublika fond birjasining indeksi bo'lib, birja kotirovkalar varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy holatini aks ettiradi. Indeks qiymatining pasayishi kotirovkalar varag'iga kiritilgan emitentlar aksiyalari narxining arzonlashgani va umumiy bozor kapitallashuvining kamayganini ifodalaydi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birja kotirovkalar varag'ida 85 ta aksiya emitentlari mavjud bo'lib, shulardan 18 tasi tijorat banklari tashkil etadi.

154-chizma. Respublika fond birjasi savdolarida kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi, trln so'm



155-chizma. Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida* aksiyalar bozori kapitallashuvining YaIMga nisbati, %



Manbalar: Jahon banki, Respublika fond birjasi, vakolatli davlat organlari va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Aksiyalar bozori kapitallashuvi birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan barcha aksiya emitentlarining qimmatli qog'ozlar soni va ularning savdo kunidagi yopilish narxlarining o'zaro ko'paytmasi orqali aniqlanadi.

¹⁴⁰ Jahon banki tasnifining Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari guruhi bo'yicha Armaniston, Avstriya, Belarus, Bolgariya, Vengriya, Gruzniya, Gretsiya, Kipr, Lyuksemburg, Ozarbayjon, Polsha, Ruminiya, Rossiya, Sloveniya, Turkiya, Xorvatiya, Chernogoriya, Chexiya, Shveysariya, Shimoliy Makedoniya, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari inobatga olingan.

¹⁴¹ Xalqaro valyuta jamg'armasi tasnifining Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari guruhi bo'yicha Armaniston, Gruzniya, Ozarbayjon, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari inobatga olingan.

Listingdan tashqari savdo maydonchasi qamrovi kengayib bormoqda. 2025-yilda listingdan tashqari savdo maydonchasida qariyb 8 trln so‘m miqdorida savdolar amalga oshirilgan bo‘lib, jami birja savdolarining 45 foizini tashkil etdi. Listingdan tashqari savdo maydonchasidagi emitentlar soni 2025-yilda 180 tadan 228 tagacha ko‘payishi savdolar hajmining 2024-yilga nisbatan 3,3 barobarga ortishida o‘z ifodasini topdi. Shuningdek, ushbu maydonchada 2025-yilda amalga oshirilgan bitimlar soni 2024-yilga nisbatan 25 foizga ortib, 64,2 mingtani tashkil etdi¹⁴².

O‘zbekiston aksiyalar bozori kapitallashuvi ortib bormoqda. 2025-yil yakuni bo‘yicha mamlakat aksiyalar bozori kapitallashuvi 284,6 trln so‘mni tashkil etib, YaIMga nisbati 15 foizni tashkil etdi. O‘zbekistonda aksiyalar bozori kapitallashuvi 2025-yilda 17 foizga ortdi¹⁴³. O‘zbekistonda aksiyalar bozori kapitallashuvining YaIMga nisbati Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari bo‘yicha interkvartil oraliqning 75 protsentil chegarasidan yuqorida, Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari medianasidan pastda shakllandi.

Banklarning fond birjasidagi faolligi ortib bormoqda. 2025-yil yakuni bo‘yicha kotirovkalash varag‘iga kiritilgan jami emitentlar qimmatli qog‘ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 9,8 trln so‘mni tashkil etdi va ushbu bitimlarning 71 foizi tijorat banklari hisobiga to‘g‘ri keldi. 2025-yilda banklarning qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha tuzilgan bitimlar 8 foizga ortib, 6,9 trln so‘mni tashkil etdi¹⁴⁴.


Banklarining kapital bozoriga ta’sirchanligi oshgan. 2025-yil yakuniga ko‘ra, banklardagi qimmatli qog‘ozlarning sof qiymati 71 trln so‘mni tashkil etdi. Xususan, 2025-yilda banklarning qimmatli qog‘ozlarga qilgan investitsiya miqdorining 56 foizga ortishi hisobiga bank tizimi aktivlari tarkibida qimmatli qog‘ozlarning ulushi 2 foiz bandga oshib, 8 foizga yetdi. Davlat qimmatli qog‘ozlariga bo‘lgan talabning ortishi ikkilamchi savdolarida ushbu qimmatli qog‘ozlarning nominal qiymatiga nisbatan bozor narxini qimmatlashishida o‘z ifodasini topgan. Buning natijasida, 2025-yilda davlat qimmatli qog‘ozlari daromadliligi o‘rtacha 15 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 3 foiz bandga kamaygan.

¹⁴² Respublika fond birjasi. (2026). Press-reliz: 2025-yil.


¹⁴³ Respublika fond birjasi. (2026). Press-reliz: 2025-yil.

¹⁴⁴ Respublika fond birjasi. (2026). Press-reliz: 2025-yil.


156-chizma. O'zbekistonda aksiyalar bozori kapitallashuvi va YaIMga nisbati



157-chizma. Bank aktivlarida jami qimmatli qog'ozlarning ulushi va davlat qimmatli qog'ozlari daromadliligi, %



158-chizma. Xorijiy valyutada joylashtirilgan O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalari



Manba: Respublika fond birjasi, Respublika valyuta birjasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Bloomberg va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: G-spred – obligatsiya va benchmark, ya'ni AQSh g'aznachiligi obligatsiyalari daromadliligi orasidagi farq. Mazkur farqning ortishi ushbu obligatsiyaning benchmark obligatsiyaga nisbatan xatarlilik darajasi oshganini ifodalaydi.

O‘zbekiston suveren yevroobligatsiyalari xatarlilik darajasi pasaydi. 2025-yil yakunida AQSh dollarida joylashtirilgan O‘zbekiston suveren yevroobligatsiyalarning daromadlilik 5–5,5 foizni tashkil etdi hamda 2024-yil yakuniga nisbatan 1–1,5 foiz bandga pasaydi. Shuningdek, benchmark yevroobligatsiyalar daromadlilik nisbatan O‘zbekiston yevroobligatsiyalarning G-spredi 2024-yil yakuniga nisbatan 90–130 bazis bandga pasayib, 2025-yil yakuni bo‘yicha 140–180 bazis band oralig‘ida shakllandi¹⁴⁵. Bunda, G-spredning kamayishi xalqaro moliya bozorlarida investorlar tomonidan O‘zbekiston yevroobligatsiyalari xatarlilik darajasi benchmark obligatsiyalarga nisbatan pastroq baholanganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, 2025-yil iyun oyida Fitch Ratings xalqaro reyting agentligi¹⁴⁶ va 2025-yilning noyabr oyida S&P Global xalqaro reyting agentligi tomonidan¹⁴⁷ O‘zbekistonning uzoq muddatli suveren kredit reytingi “VV-”dan “BB”ga ko‘tarildi. Suveren kredit reytingi yuqori baholanganligi O‘zbekiston uchun tashqi moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga, banklarning aktivlar sifati yaxshilanishiga, shuningdek tashqi qarzlarga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining pasayishiga zamin yaratadi.

¹⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2026). Statistika - kunlik ma’lumotlar: O‘zbekiston Respublikasi suveren xalqaro obligatsiyalarining kotirovkalari.

¹⁴⁶ Fitch Ratings. (2025). Republic of Uzbekistan.

¹⁴⁷ S&P Global. (2025). Uzbekistan Upgraded To ‘BB’ On Strong Growth And Economic Reforms; Outlook Stable.

V. Bank tizimi bo'yicha makro stress-test

5.1. Makroiqtisodiy ssenariylar

Asosiy ssenariy joriy makroiqtisodiy holat asosida shakllantirilgan. Asosiy ssenariyda mamlakat iqtisodiy o'zgarishlarining joriy tendensiyasi kelgusi davrlarda ham saqlanib qolishi natijasida yuzaga keladigan ehtimoliy iqtisodiy holat ifodalangan. Xususan, mamlakat iqtisodiy o'sishining yuqori darajada davom etishi, sekinlashgan inflyatsiya sharoitida past foiz stavka muhitining yuzaga kelishi, kreditlar bo'yicha defolt ehtimolining quyi darajada saqlanib qolishi inobatga olingan (4-ilova).


Xatarli ssenariyda makromoliyaviy sharoitlarning qat'iylashishi hamda xavf omillarining kuchayishi hisobga olingan. Tashqi geosiyosiy noaniqliklar ta'sirida ta'minot zanjiridagi uzilishlar va xomashyo narxlarining ortishi natijasida ishlab chiqarish xarajatlarining yuqorilashi, shuningdek mamlakatda taklif hajmining qisqarishi xatarli ssenariyda o'z ifodasini topgan. Jumladan, xatarli ssenariyni shakllantirishda yuzaga kelish ehtimoli past bo'lishiga qaramay, salbiy ta'siri yuqori darajadagi xatarlar (tail risks) e'tiborga olingan.

Xatarli ssenariy bo'yicha YaIM hajmining real hisobda qisqarish mumkinligi inobatga olingan. GaR modeli¹⁴⁸ natijasiga ko'ra, 2026-yil yakunida xatarli ssenariy bo'yicha real YaIM o'sish sur'ati manfiy 0,7 foizgacha pasayishi mumkinligi qayd etilgan. Bunda, moliyaviy sikl indeksi¹⁴⁹ va real YaIMning tarixiy qiymatlaridan foydalangan holda iqtisodiy o'sish sur'ati GaR modeli orqali baholandi. 2026-yil yakuniga ko'ra, xatarli ssenariy bo'yicha davriy tizimli xatarlarni qamrab olish maqsadida GaR modelining besh foizli qiymatida moliyaviy sikl indeksiga uch standart chetlanish miqdorida qo'shimcha shok berilgan.

¹⁴⁸ Xatarlarni hisobga olgan holdagi iqtisodiy o'sish (Growth at Risk) modeli metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

¹⁴⁹ Moliyaviy sikl indeksi metodologiyasi 2023-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

159-chizma. Real YaIM o'sish sur'ati bo'yicha GaR modeli natijalari



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Ehtimollik zichlik funksiyasi tasodifiy miqdorning ma'lum oraliqdagi ehtimollik zichligini¹⁵⁰ ifodalaydi. Kumulyativ taqsimot funksiyasi tasodifiy miqdorning ma'lum bir qiymatni qabul qilish ehtimollik darajasini¹⁵¹ ifodalaydi va ehtimollik zichlik funksiyasidan integral olish orqali aniqlanadi.

Global inflyatsion bosim xatarli ssenariy bo'yicha yuqori foiz stavka muhitini yuzaga keltirishi mumkin. Xatarli ssenariyda dunyoning yetakchi markaziy banklari tomonidan yuqori inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan qat'iy pul-kredit siyosati xalqaro moliya bozorlarida foiz stavkalarni oshiradi. Bu esa, tashqi moliyalashtirish xarajatlarining ortishi natijasida xorijiy valyutadagi ichki kredit foiz stavkalari o'sishiga bosimni yuzaga keltiradi. Shuningdek, xatarli ssenariy bo'yicha yuqori inflyatsiyani pasaytirish maqsadida O'zbekiston Markaziy banki tomonidan asosiy stavkaning oshirilishi mamlakatda yuqori foiz stavkaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Xatarli ssenariy bo'yicha yuqori foiz stavkaning yuzaga kelishi va iqtisodiy o'sishning pasayishi kredit xatari ortishiga ta'sir ko'rsatadi. Milliy valyutada kreditlar real foiz stavkasining ortishi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini oshirsa, iqtisodiy o'sishning qisqarishi qarz oluvchilar to'lov qobiliyatini pasaytiradi. Xususan, xatarli ssenariyda qarz yuki darajasi ortishi vaqt o'tishi bilan milliy valyutadagi kreditlar defolt ehtimolining 2028-yil yakuniga kelib 25 foizgacha ko'tarilishida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, yordamchi regression

¹⁵⁰ Ehtimollik zichligi belgilangan oraliq birligiga to'g'ri keladigan tasodifiy miqdorning sodir bo'lish ehtimolligini ifodalab, 0 dan kichik bo'lmagan qiymatlarga ega bo'ladi.

¹⁵¹ Ehtimollik darajasi sodir bo'lish imkonining miqdoriy ko'rsatkichi hisoblanib, 0 va 1 oralig'ida shakllanadi.

model natijasi¹⁵² xatarli ssenariy bo'yicha real YaIM o'sishi hamda valyuta almashuv kursining vaqt o'tishi bilan xorijiy valyutadagi kreditlarning defolt ehtimoli keyingi uch yil davomida 4 foizgacha yuqorilashi mumkinligini ko'rsatdi.

Kredit yo'qotishlarining ortishi foizli daromad keltiruvchi aktivlarni kamaytiradi. Asosiy ssenariyda kreditlar va foizli daromad keltiruvchi aktivlar o'sishining so'nggi yillardagi dinamikasi saqlanib qolsa-da, xatarli ssenariy bo'yicha mazkur ko'rsatkichlarda tebranishlar kuzatilishi mumkin. Xatarli ssenariyga ko'ra, 2026-yil yakuni bo'yicha pasaygan iqtisodiy o'sishning tiklana boshlanishi, shuningdek mamlakatda yuqori inflyatsion muhitning mavjudligi nominal hisobda kreditlar qoldig'i yillik o'sishini 2027-yil yakunida 20 foizgacha oshiradi. Shuningdek, xatarli ssenariyda yirik kredit yo'qotishlarining yuzaga kelishi mumkinligi bank tizimi bo'yicha foizli daromad keltiruvchi aktivlarning yillik o'sishini 2028-yilda 18 foizdan 3 foizgacha pasayishiga ta'sir ko'rsatadi.


Yuqori foiz stavka muhiti banklarning milliy valyutadagi sof foizli daromadiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati yordamchi regression modeli¹⁵³ xatarli ssenariy bo'yicha milliy valyutadagi foizli daromad keltiruvchi aktivlar rentabelligi 2027-yil yakunida 10 foizni tashkil etib, 2026-yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga ortishi mumkinligini ko'rsatdi. Jumladan, 2027-yilda xatarli ssenariy bo'yicha milliy valyutadagi depozit foiz stavkalarining ortishi hisobiga foizli xarajatlar ko'paygan bo'lsa-da, milliy valyutadagi kreditlar qoldig'i va kredit foiz stavkasining nisbatan tezroq o'sishining kutilishi banklarning sof foizli daromadlarini oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqa tomondan, 2028-yilda xatarli ssenariyda milliy valyuta bo'yicha kredit yo'qotishlarining ortishi sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbatini 9 foizgacha pasayishiga olib kelishi mumkin.

¹⁵² Kreditlarning defolt ehtimoli (PD) bo'yicha batafsil ma'lumot 2025-yil I yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.


¹⁵³ Milliy valyuta bo'yicha sof foizli daromadlarning foiz ko'rinishida daromad keltiruvchi jami bank aktivlariga nisbati ushbu ko'rsatkichning oldingi davrdagi qiymati, kredit o'sish sur'ati, milliy valyutadagi foiz stavka marjasi (kredit va depozit foiz stavkalari orasidagi farq) hamda real YaIM o'sishining ssenariylar bo'yicha qiymatlari asosida kelgusi davrlar uchun baholandi.

160-chizma. Makroiqtisodiy ssenariylar


Real YaIMning yillik o'sishi, %




Kredit qoldig'ining yillik o'sishi, %




Milliy valyutadagi kreditlarning defolt ehtimoli, %




Xorijiy valyutadagi kreditlarning defolt ehtimoli, %



Milliy valyutadagi sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati, %



Xorijiy valyutadagi sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati, %




— Amaldagi — Asosiy — Xatarli


Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

161-chizma. Makroiqtisodiy ssenariylar¹⁵⁴


Milliy valyuta bo'yicha sof foizli daromad, trln so'm




Xorijiy valyuta bo'yicha sof foizli daromad, trln so'm




Sof foizsiz daromad, trln so'm




Sof foizsiz daromadlarning jami aktivlarga nisbati, %



Foizli daromad keltiruvchi aktivlarning yillik o'sishi, %



Operatsion xarajatlar, trln so'm



— Amaldagi — Asosiy — Xatarli

Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

¹⁵⁴ Makroiqtisodiy ssenariylar ko'rsatkichlarning prognozlarini ifoda etmaydi. Balki, yuzaga kelish ehtimoli juda past bo'lgan yuqori darajadagi xatarlar (tail risks) xatarli ssenariylarni shakllantirish hamda O'zbekiston tijorat banklarining jiddiy xatarlarga bardoshlilikini baholash uchun ishlab chiqilgan.

Xatarli ssenariy bo'yicha moliyalashtirish xarajatlarning ortishi banklarning xorijiy valyutadagi sof foizli daromadiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yordamchi regression model¹⁵⁵ natijasi xatarli ssenariy bo'yicha xorijiy valyutadagi sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati 2028-yil yakunida 1,7 foizgacha pasayishi mumkinligini ko'rsatdi. Bunda, xatarli ssenariyda milliy valyutaning qadrsizlanishi va xorijiy valyutada yuqori foiz stavkadagi depozitlarning jalb etilishi xorijiy valyutadagi foizli daromad keltiruvchi aktivlar rentabelligini pasayishiga ta'sir etuvchi omillardan hisoblandi.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishi banklarning sof foizsiz daromadini oshiradi. Iqtisodiy o'sishning ortishi banklarda moliyaviy operatsiyalar ko'lamini kengaytirib, bank xizmatlariga bo'lgan yuqori talab hisobiga sof foizsiz daromad miqdorini ko'paytiradi. Jumladan, xatarli ssenariy bo'yicha 2026-yil yakunidagi iqtisodiy pasayish sof foizsiz daromadlarning jami aktivlarga nisbatini 3,7 foizgacha qisqarishida o'z aksini topdi. Shuningdek, yordamchi regression model natijasi¹⁵⁶ keyingi davrlardagi iqtisodiy faollikning tiklanishi ta'sirida xatarli ssenariy bo'yicha banklarning sof foizsiz daromadlari jami aktivlarga nisbatan 2027–2028-yillar davomida 4,6 foizgacha yuqorilashi mumkinligini ko'rsatdi.


¹⁵⁵ Xorijiy valyuta bo'yicha sof foizli daromadni foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbatining ssenariylar asosida keyingi davrlardagi qiymatini baholash uchun ushbu ko'rsatkichning oldingi davrdagi qiymati, xorijiy valyutadagi kredit va depozit foiz stavkalari hamda valyuta almashinuv kursi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

¹⁵⁶ Sof foizsiz daromadlarning jami aktivlarga nisbati kelgusi davrlar uchun YaIM o'sishi va valyuta almashinuv kursining ssenariylar bo'yicha qiymatlaridan foydalanib baholandi.

5.2. To'lov qobiliyati makro stress-testi

Makro stress-test natijalari xatarli ssenariy bo'yicha kapital monandlik koeffitsiyentlari pasayishi mumkinligini ko'rsatdi. Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha "yuqoridan pastga" makro stress-testi¹⁵⁷ orqali banklarning to'lov qobiliyati baholandi. Bunda, 2028-yil yakuni bo'yicha kapital monandlik koeffitsiyentlari asosiy ssenariyda o'sganligi va xatarli ssenariyda kapital buferlarini inobatga olgan holda o'rnatilgan minimal kapital talablaridan pastda shakllanishi kuzatildi.

162-chizma. I darajali asosiy kapital bo'yicha makro stress-test natijalari




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Makro stress-test natijalarida boshqa ta'sirlar sifatida qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha yo'qotishlar, milliy valyuta kursining qadrsizlanishi, uy-joy bo'yicha yo'qotishlar, soliqlar va dividendlar inobatga olingan.

¹⁵⁷ "Yuqoridan pastga" makro stress-test vositasi makroiqtisodiy ssenariylar asosida bank tizimi barqarorligini baholash instrumenti hisoblanadi. Bunda, barcha banklar uchun bir xil ssenariylar, farazlar va modellar ishlatiladi.

163-chizma. Jami regulyativ kapital bo'yicha makro stress-test natijalari




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Bank tizimi bo'yicha yuqori daromadlilik asosiy ssenariy bo'yicha I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyentini oshiruvchi omil bo'ldi. 2028-yil yakuni bo'yicha sof foizli daromad I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyentiga 16,3 foiz bandlik, sof foizsiz daromad 14,9 foiz bandlik ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kredit bo'yicha yo'qotishlarning ortishi va amalga oshiriladigan operatsion xarajatlarning I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyentiga salbiy ta'sirlari mos ravishda 2,6 va 9,9 foiz bandlarni tashkil etishi kutiladi.

I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti xatarli ssenariy bo'yicha 2028-yil yakunida 5,6 foizgacha pasayishi mumkin. Xatarli ssenariy bo'yicha kredit yo'qotishlari va operatsion xarajatlari birgalikda I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyentiga 17,3 foiz bandlik salbiy, sof foizli va foizsiz daromadlar 29,6 foiz bandlik ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, xatarli ssenariyda tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning ortishi I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyentini pasayishiga ta'siri 17,3 foiz bandni tashkil etdi.

164-chizma. Kapital yetariligi bo'yicha makro stress-test natijalari, %



165-chizma. Bank sektorining kapital monandlik koeffitsiyenti oraliqlari va jami aktivlardagi ulushlari taqsimoti, % (2029-yil 1-yanvar holatiga)



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Kapital monandlik koeffitsiyentlari oraliqlarida joylashgan banklarning jami aktivlardagi ulushlari yig'ilib borish tartibida o'rnatilgan.


Asosiy ssenariy bo'yicha kredit yo'qotishlarining past shakllanishi va daromadning ortishi sababli bank tizimida to'lov qobiliyati yaxshilanishi mumkin. 2028-yil yakunida jami reguliyativ kapital monandlik koeffitsiyentining sezilarli ortishida sof foizli daromad 19,6 foiz bandlik, shuningdek sof foizsiz daromad 17,1 foiz bandlik ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, kreditlar bo'yicha yo'qotishlarning salbiy ta'siri 0,8 foiz bandni tashkil etgan sharoitda, operatsion xarajatlar va tavakkalchilikka tortilgan aktivlar mos ravishda 11,4 va 11 foiz bandlik salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xatarli ssenariyda kreditlar bo'yicha yo'qotishlar banklarning to'lov qobiliyatini pasayishida asosiy ta'sir etuvchi omillardan biri bo'ldi. Kredit bo'yicha yo'qotishlar jami reguliyativ kapital monandlik koeffitsiyentining pasayishiga ta'siri 29 foiz bandni tashkil etgan bo'lsa, operatsion xarajatlarning ortishi 10,8 foiz bandlik salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, sof foizli va foizsiz daromadlarning ortishi jami reguliyativ monandlik koeffitsiyentiga ijobiy ta'siri mos ravishda 19,5 va 15,2 foiz bandlar bo'ldi.


Xatarli ssenariy bo'yicha shoklarning banklar kapitaliga ta'siri vaqt tafovuti bilan namoyon bo'lishi mumkin. Asosiy ssenariy bo'yicha I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti 2028-yil yakunida 19 foizga, jami reguliyativ kapital monandlik koeffitsiyenti 25 foizgacha ortishi mumkin. Shuningdek, makro stress-test natijasi xatarli ssenariy bo'yicha bank tizimi jami reguliyativ kapital monandlik koeffitsiyenti 2028-yil yakunida 6,8 foizgacha pasayishi mumkinligini ko'rsatdi.

Asosiy ssenariy bo'yicha tizimli ahamiyatga molik bo'lmagan ayrim banklar kapital bufer talablarini bajara olmasligi mumkin. 2028-yil yakuni bo'yicha I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti barcha banklarda 4,5 foizdan, jami reguliyativ kapital monandlik koeffitsiyenti 8 foizdan yuqori shakllanishi mumkin. Shuningdek, I darajali asosiy kapital miqdori tavakkalchilikka tortilgan aktivlarining 8,5 foizidan kichik banklarning aktivlari jami bank tizimi aktivlarining 4 foizini tashkil etishi mumkin. Kapital buferlarini inobatga olganda jami reguliyativ kapital monandlik koeffitsiyenti o'rnatilgan 12 foizdan kichik banklarning bank tizimidagi ulushi 7 foizda shakllanishi kutiladi.

166-chizma. Banklar kesimida makro stress-test natijalari*, % (2029-yil 1-yanvar holatiga)



167-chizma. Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha leveraj koeffitsiyenti, %**



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izohlar: *Jami regulyativ va I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyentlarida 0–60 foiz oralig'ida joylashgan banklar inobatga olingan. Shuningdek, yashil rang o'rnatilgan kapital buferlarini inobatga olgan holda jami regulyativ kapital yetarliligiga (tizimli ahamiyatga molik banklar uchun 13 foiz, boshqa banklarga 12 foiz) hamda I darajali asosiy kapital yetarliligiga (tizimli ahamiyatga molik banklar uchun 9,5 foiz, boshqa banklarga 8,5 foiz) qo'yilgan minimal talablarni asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha bajara oladigan, jigarrang ushbu talablarni xatarli ssenariyda, qizil rang asosiy ssenariyda ham bajara olmaydigan banklarni ifodalaydi.

**Leveraj koeffitsiyentlarida 0–50 foiz oralig'ida joylashgan banklar inobatga olingan. Shuningdek, yashil rangli pufakchalar leveraj koeffitsiyentiga (3 foiz) qo'yilgan minimal talabni asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha bajara oladigan, jigarrang esa ushbu talablarni xatarli ssenariyda bajara olmaydigan banklarni ifodalaydi.

Xatarli ssenariyda minimal kapital monandlik talablarini bajara olmasligi mumkin bo'lgan banklar mavjud. 2028-yil yakuniga ko'ra jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyenti 8 foizdan kichik bo'lgan banklar aktivlarining jami bank tizimi aktivlaridagi ulushi xatarli ssenariy bo'yicha 60 foizni tashkil etishi mumkin. Shuningdek, xatarli ssenariy bo'yicha bank tizimi aktivlarining 46 foiziga to'g'ri keluvchi banklarda I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti buferlarni inobatga olmagandagi minimal 4,5 foizlik kapital talabidan past bo'lishi mumkin.


Asosiy ssenariyda tizimli ahamiyatga molik banklarning to'lov qobiliyati bo'yicha muammolar yuzaga kelmaydi. 2028-yil yakunida I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti kapital buferlarini hisobga olgan holda o'rnatilgan minimal talablardan¹⁵⁸ past bo'lishi mumkin bo'lgan banklar soni asosiy ssenariyda 2 tani, xatarli ssenariyda 12 tani tashkil etadi. Shuningdek, asosiy ssenariy bo'yicha tizimli ahamiyatga molik bo'lmagan faqat 3 ta bank kapital buferlarini inobatga olgan holda jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyentiga o'rnatilgan minimal 12 foizlik talabni 2028-yil yakuni bo'yicha bajara olmasligi mumkin. Xatarli ssenariy bo'yicha 17 ta bankda kapital buferlarini hisobga olgan holda o'rnatilgan minimal talablarni¹⁵⁹ bajarish uchun yetarli jami regulyativ kapital mavjud bo'lmasligi mumkin.

Bank tizimi bo'yicha leveraj koeffitsiyenti xatarli ssenariyda o'rnatilgan minimal talabdan yuqori bo'lishi kutiladi. Makro stress-test natijalariga ko'ra, 2028-yil yakunida bank tizimi bo'yicha leveraj koeffitsiyenti asosiy ssenariy bo'yicha 16 foizni, xatarli ssenariy bo'yicha 4,8 foizni tashkil etishi mumkin. Shuningdek, 2028-yil yakunida asosiy ssenariyda barcha banklar leveraj koeffitsiyenti bo'yicha minimal talablarni bajarsa, xatarli ssenariy bo'yicha 6 ta bankning leveraj koeffitsiyenti 3 foizlik o'rnatilgan talabdan pasayishi mumkin.


¹⁵⁸ Kapital buferlarini hisobga olgan holda I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti tizimli ahamiyatga molik banklarda 9,5 foizdan, boshqa banklarda esa 8,5 foizdan yuqori bo'lish talab etiladi.

¹⁵⁹ Kapital buferlarini hisobga olgan tizimli ahamiyatga molik banklarda jami regulyativ kapital miqdori tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 13 foizidan, boshqa banklarda esa 12 foizidan yuqori bo'lish kerak.

168-chizma. Ssenariylar bo'yicha yaratilishi lozim bo'lgan kapital miqdorining YaIMga nisbati, %



169-chizma. Xatarli ssenariyda bank sektorining ROA dekompozitsiyasi, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Xatarli ssenariy bo'yicha kapital yetarlilik talablarini bajarish uchun sezilarli qo'shimcha kapital kiritish talab etilishi mumkin. 2028-yil yakuni bo'yicha xatarli ssenariyda o'rnatilgan kapital buferlarini inobatga olgan holda jami regulyativ kapital yetarliligiga qo'yilgan minimal talabni bajarish uchun banklar tomonidan yaratilishi zarur bo'lgan kapital miqdori YaIMning 4,6 foizini tashkil etishi mumkin. Asosiy ssenariy bo'yicha minimal kapital talablarini bajarishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin bo'lgan banklar ko'lamining pastligi hisobiga yaratilishi lozim bo'lgan qo'shimcha kapital miqdori YaIMga nisbatan kichik ulushga ega.

Xatarli ssenariy bo'yicha aktivlar rentabelligidagi salbiy holat kredit yo'qotishlari ta'sirida yuz berishi mumkin. 2026–2027-yillar davomida xatarli ssenariyda sof foizli va foizsiz daromadlarning aktivlarga nisbatan ko'proq o'sishi, kutilayotgan kredit yo'qotishlarining nisbatan pastroq ekanligi bank tizimi bo'yicha aktivlar rentabelligining musbat shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aktivlar o'sishi bilan deyarli bir xil shakllanishi kutilayotgan operatsion xarajatlar hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yuqori kredit yo'qotishlari ta'sirida 2028-yil yakuniga kelib aktivlar rentabelligi manfiy hisobda 13 foizgacha pasayadi.

170-chizma. Bank defoltining yo‘qotishlari kapitalga bog‘langan holatdagi tarqalish xatari (2029-yil 1-yanvar holatiga)



171-chizma. Bank defoltining yo‘qotishlari umuman qaytmasligi holatidagi tarqalish xatari (2029-yil 1-yanvar holatiga)



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Jami regulyativ va I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyentlari 60 foizdan kichik, boshqa banklar oldida majburiyatlarga ega hamda xatarli ssenariy bo‘yicha o‘rnatilgan kapital buferlarini inobatga olgan holda jami regulyativ kapital yetarliligiga hamda I darajali asosiy kapital yetarliligiga qo‘yilgan minimal talablarni bajargan banklar inobatga olingan. Yashil rang o‘rnatilgan kapital buferlarini inobatga olgan holda jami regulyativ kapital yetarliligiga (tizimli ahamiyatga molik banklar uchun 13 foiz, boshqa banklarga 12 foiz) hamda I darajali asosiy kapital yetarliligiga (tizimli ahamiyatga molik banklar uchun 9,5 foiz, boshqa banklarga 8,5 foiz) qo‘yilgan minimal talablarni bajara oladigan banklarni ifodalaydi. Jigarrang esa ushbu minimal talablarni bajara olmaydigan banklarni ko‘rsatadi.

Xatarli ssenariy bo'yicha bank defoltining bank tizimiga tarqalish xatari baholandi. Xatarli ssenariyda kapital monandlik talablarini bajara olmaydigan banklarning boshqa banklar oldidagi majburiyatlarini bajara olmasligi sababli yuzaga keladigan tarqalish xatari kapitalga bog'langan¹⁶⁰ va umuman qaytmaslik holatlari¹⁶¹ bo'yicha tahlil qilingan. Bunda, bank defoltining yo'qotishlari tufayli boshqa banklarda defolt holatlari yuzaga kelmay qolgunga qadar tarqalish xatari tahlili amalga oshirilgan.


Bank defolti ta'sirida yuzaga keladigan tarqalish xatarining ko'lami pastligicha qolmoqda. Makro stress-test natijasiga ko'ra, xatarli ssenariyda kapital buferlarini inobatga olgan holda I darajali asosiy kapital monandligi minimal talablardan pastda shakllanadigan banklarning boshqa banklar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini kapitalga bog'langan holda bajara olmaslik holati qo'shimcha 3 ta bankning defoltiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyenti bo'yicha o'rnatilgan talablardan pastda shakllanadigan banklarning boshqa banklar oldidagi majburiyatini bajara olmasligi faqat 1 ta bankning kapital monandlik koeffitsiyenti minimal talabdan pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xatarli ssenariyda bank defoltining yo'qotishlari umuman qaytmaslik holatidagi tarqalish xatari yuqori shakllanishi mumkin. Xatarli ssenariy bo'yicha minimal kapital talablarini bajara olmagan banklarning boshqa banklar oldidagi majburiyatlarini butunlay qaytara olmasligi I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti kapital buferlarini inobatga olgan holda minimal talablardan pastda shakllanishi mumkin bo'lgan banklar sonini yana 6 taga oshirishi mumkin. Jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyenti bo'yicha banklarning defoltga uchrashi 3 ta bankda o'rnatilgan minimal kapital talablarini bajara olmaslik holatlarini yuzaga keltirishi mumkin.

¹⁶⁰ Bank defoltining yo'qotishlari kapitalga bog'langan holatidagi tarqalish xatari yondashuvida banklar tarqalish xataridan qancha yo'qotishi defoltga uchrashi mumkin bo'lgan bankning kapital monandlik koeffitsiyenti qiymatiga bog'lanadi. Bunda, defoltga uchrashi mumkin bo'lgan bankning kapital monandlik koeffitsiyenti qanchalik past darajada bo'lsa, bu bank bilan moliyaviy aloqalari (kredit ajratgan yoki depozit joylashtirgan) bo'lgan bank proporsional ravishda ko'p zarar ko'radi.

¹⁶¹ Bank defoltining yo'qotishlari umuman qaytmasligi holatidagi tarqalish xatari yondashuvida banklar defoltga uchrash ehtimoli yuqori ya'ni kapital monandlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi minimal talabdan past bo'lgan bankka ajratgan jami kreditlari yoki depozitlarini yo'qotadi.

172-chizma. Konsentratsiya xavfi bo'yicha stress-test natijalari, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: Konsentratsiya xavfi sifatida har bir bank bo'yicha eng yirik bitta qarz oluvchining defoltga uchrashi inobatga olingan.

Bank tizimi to'lov qobiliyati xatarli ssenariyga qo'shimcha shok berish orqali baholandi. Kredit portfelidagi yuqori konsentratsiya xavfi hamda uy-joy narxlari pasayishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning bank tizimiga ta'siri xatarli ssenariyga qo'shimcha shok berish orqali tahlil etildi. Bunda, har bir bank bo'yicha eng yirik qarz oluvchining muvaffaqiyatsizligi oqibatida yuzaga keladigan yo'qotishlarning banklar kapital monandliligiga ta'sirini baholash orqali kredit portfelining konsentratsiya xavfi tahlil qilingan. Tahlillarda eng yirik qarz oluvchining muvaffaqiyatsizligi oqibatida ajratilgan bank kreditlarining 50 foizi qaytmasligi hisobga olingan. Bundan tashqari, xatarlar sharoitida uy-joy narxi (House price at risk, HaR) modeli natijalaridan foydalanib, xatarlar ta'sirida ko'chmas mulk narxlarining pasayishi tufayli ipoteka kreditlari bo'yicha kredit xatarining ortishi tahlil qilindi.

Kredit konsentratsiyasi xavfi banklarning to‘lov qobiliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. 2028-yil yakuni bo‘yicha xatarli ssenariyga ko‘ra, kredit portfelida eng yuqori ulushni egallagan qarz oluvchilarning to‘lovga qobiliyatsizlik holatiga duch kelishi bank tizimi I darajali asosiy hamda jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyentlarini 1,4 foiz bandga qisqarishiga olib kelishi mumkin. Xatarli ssenariyda konsentratsiya xavfi ta‘sirida I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti 4,6 foizgacha, jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyenti 5,9 foizgacha pasayishi mumkin.

Ko‘chmas mulk narxlari pasayishi orqali qo‘shimcha shok berishda HaR modeli natijalaridan foydalanildi. HaR modeli natijalari 2026-yil yakuni bo‘yicha 1 foiz ehtimollik bilan xatarlar ta‘sirida uy-joy narxlari 10 foizga pasayishi, qo‘shimcha shoklarni inobatga olgan holda uy-joy narxlaridagi tuzatishlar 17 foizni tashkil etishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bunda, garov qiymatining arzonlashishi hisobiga qarz oluvchilar tomonidan LTV ko‘rsatkichi 120 foizdan yuqori bo‘lgan kreditlarning shartli ravishda qaytarilmasligi faraz qilingan.


173-chizma. Ko‘chmas mulk bozorida narxlarning pasayish ssenariylariga asosan ipoteka krediti bo‘yicha LTV ko‘rsatkichining taqsimlanishi, % 2026-yil




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: LTV ko‘rsatkichi oraliqlarida joylashgan kreditlarning jami ipoteka kreditlardagi ulushlari yig‘ilib borish tartibida o‘rnatilgan.

174-chizma. Ko‘chmas mulk bozorida narxlarning 10 foizga pasayishi, %



175-chizma. Ko‘chmas mulk bozorida narxlarning 17 foizga pasayishi, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Uy-joy narxlari arzonlashining ipoteka kreditlari bo'yicha yo'qotishga ta'siri juda past baholanmoqda. Uy-joy narxlarining 10 foizga arzonlashishi hisobiga 2025-yilda ajratilgan ipoteka kreditlari tarkibida LTV ko'rsatkichi 120 foizdan yuqori shakllanadigan kreditlarning ulushi 1 foizni, LTV ko'rsatkichi 100 foizdan yuqori kreditlarning ulushi 4 foizni tashkil etishi mumkin. Ko'chmas mulk bozoridagi narxlarning 17 foizga arzonlashishi kredit to'lashdan ko'ra garovdan voz kechish ehtimoli baland bo'lgan LTV ko'rsatkichi 120 foizdan yuqori kreditlarning ipoteka kreditlaridagi ulushi 4 foizda shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, uy-joylarning 17 foizga pasayishi 2025-yilda ajratilgan kreditlarning 34 foizida yetarli garov ta'minotining mavjud bo'lmasligiga olib kelishi mumkin.


Xatarli ssenariy bo'yicha uy-joy narxlarining 10 foizga yoki 17 foizga pasayishi bank tizimining to'lov qobiliyatiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. 2028-yil yakuni bo'yicha ko'chmas mulk bozorida narxlarning 10 foizga arzonlashini ipoteka kreditlari defolt ehtimoliga ta'siri juda past hisoblanmoqda. Uy-joy bozor narxlarining xatarli ssenariy bo'yicha 17 foizga pasayishi, 2028-yil yakunida banklar ipoteka kredit portfelining defolt ehtimolini 1,1 foiz bandga ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Banklarda xatarli ssenariy bo'yicha kredit xatarining ortishi ta'sirida yuzaga keladigan uy-joy yo'qotishlari kapital monandlik koeffitsiyentlarini 0,2 foiz bandga pasaytirib, 2029-yil 1-yanvar holatiga I darajali asosiy va jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyentlari mos ravishda 5,4 va 6,7 foizlarda shakllanishi kutiladi.

6-havola. Xatarlar sharoitida uy-joy narxlari

Xatarlar sharoitida uy-joy narxlari (House Price at Risk, HaR)¹⁶² modeli orqali ko'chmas mulk bozoriga ta'sir etuvchi joriy ko'rsatkichlar dinamikasi orqali kelgusi davrlardagi uy-joy narxlarining ehtimoliy o'zgarishlari baholanadi. HaR natijalari moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda foydalaniladigan erta ogohlantirish ko'rsatkichi sifatida uy-joy narxlarining xatarlar ta'sirida kelgusi davrlarda qay darajada o'zgarishi mumkinligini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini beradi.

HaR modeli ikki bosqichda amalga oshiriladi. Bunda, ushbu model ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlikni kvantil regressiya modeli¹⁶³ orqali baholash va kelgusi davrlardagi uy-joy narxlari o'sishining shartli uzluksiz taqsimotini yaratish bosqichlarini o'z ichiga oladi (5-ilova).

176-chizma. Uy-joy narxlarining keyingi bir yildagi o'sish sur'ati bo'yicha HaR modeli natijalari



Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Ehtimollik zichlik funksiyasi tasodifiy miqdorning ma'lum oraliqdagi ehtimollik zichligini¹⁶⁴ ifodalaydi. Kumulyativ taqsimot funksiyasi tasodifiy miqdorning ma'lum bir qiymatni qabul qilish ehtimollik darajasini¹⁶⁵ ko'rsatadi va ehtimollik zichlik funksiyasidan integral olish orqali aniqlanadi.

¹⁶² Hafemann, L. (2023). Technical Paper. A house prices at risk approach for the German residential real estate market. Deutsche Bundesbank.

¹⁶³ Kvantil regressiya modeli metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

¹⁶⁴ Ehtimollik zichligi – belgilangan oraliq birligiga to'g'ri keladigan tasodifiy miqdorning sodir bo'lish ehtimolligi. Ehtimollik zichligi 0 dan kichik bo'lmagan qiymatlarga ega bo'ladi.

¹⁶⁵ Ehtimollik darajasi – sodir bo'lish imkonining miqdoriy ko'rsatkichi. Ehtimollik darajasi 0 va 1 oralig'ida shakllanadi.

Dastlabki bosqichda, uy-joy narxlari dinamikasiga ta'sir etuvchi statistik ahamiyatga ega ko'rsatkichlar sifatida to'rt chorak oldingi davrdagi uy-joy narxlarining yillik o'zgarishi va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining yillik hisobda o'sishi bo'yicha bog'liqliklar kvantil regressiya modeli yordamida turli kvantillarda baholanadi:

$$y_t^\tau = \alpha^\tau + \beta^\tau X_{t-4} + \gamma^\tau y_{t-4} + \epsilon_t^\tau$$

Bu yerda,

y_t^τ – t davrdagi uy-joy narxlarining o'sishi;

X_{t-4} – t davrdan to'rt chorak oldingi muddat bo'yicha jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining yillik o'sishi;

y_{t-4} – t davrdan to'rt chorak oldingi muddat bo'yicha uy-joy narxlarining o'sishi;

$\alpha^\tau, \beta^\tau, \gamma^\tau$ – noma'lum koeffitsiyentlar;

ϵ_t^τ – nisbiy xatolik;

τ – kvantil darajasi.

Kvantil regressiya modeli orqali uy-joy narxlari va unga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlik turli kvantil darajalari ($\tau = \{10; 25; 50; 75; 90\}$) bo'yicha baholangandan so'ng, kelgusi davrlar uchun uy-joy narxlari o'sishining shartli uzluksiz taqsimoti aniqlanadi.

Shartli uzluksiz taqsimotni aniqlash shartli kvantil regressiyalarning baholangan diskret qiymatlariga egri-t (skew-t) taqsimot funksiyasini moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda, egri-t taqsimoti o'rtacha, standart chetlanish, egrilik va erkinlik darajasi parametrlari yordamida tavsiflanadi va styudent-t taqsimoti¹⁶⁶ yordamida hosil qilinadi.

Baholangan egri-t taqsimotining 1 foiz ehtimollik bo'yicha aniqlangan qiymatlari HaR modelining natijasi sifatida foydalaniladi. Bunda, HaR modeli orqali ko'rsatkichlar ta'sirida kelgusi davrlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uy-joy narxlaridagi ekstremal tuzatishlar darajasi miqdoriy baholanadi. Shuningdek, ushbu model orqali qo'shimcha shoklarni inobatga olgan holdagi 1 foiz ehtimollikdagi uy-joy narxlari bo'yicha tuzatishlarni baholashda uy-joy narxlari dinamikasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning xatarli ssenariydagi qiymatlaridan foydalaniladi.

HaR modeli natijalariga ko'ra, 2026-yil yakuni bo'yicha 1 foiz ehtimollik bilan xatarlar ta'sirida uy-joy narxlari 10 foizga pasayishi, qo'shimcha shoklarni inobatga olgan holda uy-joy narxlaridagi tuzatishlar 17 foizni tashkil etishi mumkin.

¹⁶⁶ Styudent-t taqsimoti – tasodifiy miqdorning standart chetlanishi ma'lum bo'lmaganda o'rtacha ko'rsatkichni baholashda foydalaniladigan simmetrik taqsimot turi.

5.3. Likvidlilik makro stress-testi

Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha o'tkazilgan likvidlilik makro stress-testi bank tizimida ijobiy pul kirimi¹⁶⁷ saqlanib qolishini ko'rsatdi. Asosiy ssenariyda pul oqimi ko'rsatkichlari Bazel qo'mitasi tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan koeffitsiyentlar orqali hisoblangan. Xatarli ssenariy bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar ta'sirida asosiy ssenariyga nisbatan banklarda yuqoriroq pul chiqimi va kamroq pul kiriminin kuzatilishi hisobga olingan (6-ilova).


Xatarli ssenariyda global moliyaviy sharoitlarning qat'iylashishi hamda banklarda kredit xavfinin ortishi inobatga olingan. Xatarli ssenariy bo'yicha geosiyosiy vaziyatning keskinlashishi natijasida yuzaga keladigan yuqori foiz stavka muhiti qimmatli qog'ozlarning bozor narxini arzonlashishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, bank aktivlari tarkibidagi davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha pul kirimini kamaytiradi. Shuningdek, xatarli ssenariyda iqtisodiy o'sishning sekinlashishi va kredit foiz stavkalarining ortishi qarz oluvchilarning banklar oldidagi majburiyatini bajarishni qiyinlashishiga sabab bo'ladi. Kreditlarning defolt ehtimolining ortishi hamda kredit yo'qotishlarining yuzaga kelishi natijasida banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning qaytarilishi bo'yicha pul kirimi qisqaradi (7-ilova).

Likvidlilik makro stress-testida omonatchilar xulq-atvorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar inobatga olingan. Xatarli ssenariy bo'yicha banklarda kredit yo'qotishlarining ortishi, to'lov qobiliyatining pasayishi hamda moliyaviy ko'rsatkichlarni yomonlashishi omonatchilar qarorlariga ta'sir etishi mumkin. Jumladan, banklardagi kafolatlanadigan omonatlar chegarasining o'rnatilganligi¹⁶⁸ va bank tizimida kuzatilishi mumkin bo'lgan salbiy o'zgarishlar tufayli omonatchilar xulq-atvorida yuzaga keladigan o'zgarishlar ta'sirida kafolatlanmagan omonatlarning qaytarib olinishi xatarli ssenariyda hisobga olingan.

¹⁶⁷ Sof pul kirimi pul kirimi va pul chiqimi orasidagi farq.

¹⁶⁸ O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi 1031-sonli Qonuni.

177-chizma. Bank tizimi aktivlari va majburiyatlarining muddatlari bo'yicha tarkibi, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izoh: Bank balansining passiv qismi jami majburiyatlar va jami kapitaldan tarkib topgan.

Bank tizimi bo'yicha aktivlar va majburiyatlarning muddatlari orasidagi nomutanosiblik darajasi yanada yaxshilandi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, milliy valyutadagi bank tizimi aktivlari tarkibida 1 yilgacha bo'lgan aktivlarning ulushi 47 foizni tashkil etgan. Milliy valyutadagi majburiyatlar va kapitalning 42 foizi 1 yilgacha bo'lgan qisqa muddatli majburiyatlar hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, xorijiy valyutadagi aktivlarning 57 foizi 1 yilgacha bo'lgan aktivlar ulushiga to'g'ri kelgan sharoitda, majburiyatlarning 46 foizida qaytarish muddati 1 yilgacha bo'lgan muddatni tashkil etmoqda. Milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash uchun yetarli aktivlar bilan ta'minlanganligi likvidlilik xatarini pasaytiradi.

**178-chizma. Sof pul kirimining jami aktivlarga nisbati*, %
(2027-yil 1-yanvar holatiga)**



179-chizma. Banklar qirqimida jami valyutalar bo'yicha likvidlilik stress-testi natijalari, %
(2027-yil 1-yanvar holatiga)**



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izohlar: *Chizmadagi to'rtburchak shakl likvidlilik makro stress-testi natijalariga ko'ra, 2026-yil yakuni bo'yicha sof pul kirimini aktivlarga nisbatining bank tizimi bo'yicha qiymati va banklar orasida ushbu nisbatning minimal qiymatiga ega bo'lgan bank ko'rsatkichi o'rtasidagi farqni ifodalaydi. Bank tizimi va minimal ko'rsatkichga ega bo'lgan bank ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, to'rtburchak shakli ham shunchalik uzun bo'ladi. Vertikal qora chiziqning eng yuqori nuqtasi 2026-yil yakuniga qadar bir yil davomida vaqt oraliqlari bo'yicha sof pul kirimini jami aktivlarga nisbatining maksimum qiymatiga ega bo'lgan, uning quyi nuqtasi esa ushbu nisbatning minimum qiymatiga ega bo'lgan banklarning ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Shuningdek, qora doira 2026-yil yakuni bo'yicha bank tizimi bo'yicha sof pul kirimini bank tizimi aktivlariga nisbatini ko'rsatadi.

**Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha sof pul kirimining bank jami aktivlariga nisbati 75 foizgacha, sof pul kirimining yuqori likvidli aktivlarga nisbati 240 foizgacha bo'lgan banklar inobatga olingan. Yashil rang milliy valyutadagi musbat sof pul kirimini o'zida aks ettiruvchi banklarni ifodalaydi.


Asosiy ssenariy bo'yicha bank tizimida likvidlilik muammosi yuzaga kelmaydi. Likvidlilik makro stress-testi natijasiga ko'ra, 2027-yil 1-yanvar holatida bank tizimi bo'yicha sof pul kirimining jami aktivlarga nisbati barcha valyutalarda 22 foizni, milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha mos ravishda 22 va 23 foizlarni tashkil etishi mumkin. Shuningdek, 2026-yil yakunida asosiy ssenariyga ko'ra barcha banklarda jami valyutalar bo'yicha ijobiy sof pul kirimi kuzatilishi kutiladi.

Xatarli ssenariyda sof pul kirimi bank tizimi bo'yicha musbat holatda saqlanib qoldi, ayrim banklarda esa bu holatning manfiy darajasi kuzatildi. 2027-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bank tizimi bo'yicha sof pul kirimining jami aktivlarga nisbati barcha valyutalarda 12 foiz, milliy valyutada 7 foiz va xorijiy valyutada 20 foizni tashkil qilishi mumkin. Shuningdek, xorijiy valyuta bo'yicha banklarda kuzatilishi mumkin bo'lgan manfiy sof pul kirimining aktivlarga nisbati eng past holatda 46 foiz, milliy valyutada 7 foiz darajada shakllanishi mumkin. Likvidlilik muammosi eng yuqori darajada kuzatilishi mumkin bo'lgan banklarda ham kutilayotgan manfiy sof pul kirimini qoplashga yetarli aktivlarining mavjudligi bank tizimi bo'yicha likvidlilik xatarini bartaraf eta oladi.


Jami valyutalar bo'yicha xatarli ssenariyda ayrim banklarda manfiy sof pul kirimi yuzaga kelishi mumkin. 2026-yil yakunida asosiy ssenariyda barcha banklar jami valyutalar bo'yicha ijobiy sof pul kirimiga ega bo'lishi mumkin. Xatarli ssenariy bo'yicha ayrim banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfiy sof pul kirimi bank tizimi yuqori likvidli aktivlarining 9 foizini, jami aktivlarining esa 2 foizini tashkil etishini kutish mumkin.

Asosiy ssenariyda banklarda milliy valyutadagi likvidlilik muammosi bilan bog'liq xatarlar mavjud emas. Likvidlilik makro stress-testi natijasi asosiy ssenariy bo'yicha 2027-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, barcha banklarda ijobiy sof pul kirimi kuzatilishi mumkinligini ko'rsatdi.

180-chizma. Banklar qirqimida milliy valyuta bo'yicha likvidlilik stress-testi natijalari*, % (2027-yil 1-yanvar holatiga)



181-chizma. Banklar qirqimida xorijiy valyuta bo'yicha likvidlilik stress-testi natijalari, % (2027-yil 1-yanvar holatiga)**




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Izohlar: *Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha milliy valyutadagi sof pul kirimining bank jami aktivlariga nisbati 75 foizgacha, sof pul kirimining yuqori likvidli aktivlarga nisbati 210 foizgacha bo'lgan banklar inobatga olingan. Yashil rang milliy valyutadagi musbat sof pul kirimini, jigarrang manfiy sof pul kirimini o'zida aks ettiruvchi banklarni ifodalaydi.

**Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha xorijiy valyutadagi sof pul kirimining bank jami aktivlariga nisbati 75 foizgacha, sof pul kirimining yuqori likvidli aktivlarga nisbati 400 foizgacha bo'lgan banklar inobatga olingan. Yashil rang xorijiy valyutadagi musbat sof pul kirimini, jigarrang manfiy sof pul kirimini o'zida aks ettiruvchi banklarni ifodalaydi.

**182-chizma. Banklar qirqimida eng yirik depozitor mablag‘larining ulushi*, %
(2026-yil 1-yanvar holatiga)**



**183-chizma. Banklar qirqimida xatarli ssenariy asosida eng yirik depozitorning o‘z
mablag‘ini qaytarib olish farazi bo‘yicha stress-test natijalari**, %
(2027-yil 1-yanvar holatiga)**



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izohlar: *Depozitor sifatida yuridik va jismoniy shaxslar inobatga olingan.

**Milliy va xorijiy valyutalardagi sof pul kirimining bank jami aktivlariga nisbati 70 foizgacha, sof pul kirimining yuqori likvidli aktivlarga nisbati 400 foizgacha bo‘lgan banklar inobatga olingan. Yashil rang musbat sof pul kirimini, jigarrang manfiy sof pul kirimini o‘zida aks ettiruvchi banklarni ifodalaydi.

Ayrim banklarning xorijiy valyuta bo'yicha sof pul kirimi asosiy ssenariyda manfiy shakllanishi mumkin. 2026-yil yakuniga ko'ra, asosiy ssenariy bo'yicha xorijiy valyutadagi manfiy sof pul kirimi yuqori likvidli aktivlarning 10 foizini tashkil etishi mumkin. Xatarli ssenariy bo'yicha xorijiy valyutadagi manfiy sof pul kirimi xorijiy valyutadagi jami aktivlarning 6 foizini, yuqori likvidli aktivlarning 28 foizini hosil qilishi mumkin.

Depozit konsentratsiyasi bilan bog'liq xatarlar ta'siridagi banklarning likvidlilik holati xatarli ssenariyga qo'shimcha shok berish orqali baholandi. Milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha tijorat banklari depozit portfelidagi eng yirik depozitorlar tomonidan banklarga joylashtirgan mablag'larning qaytarib olinishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholash uchun shartli ravishda xatarli ssenariyga qo'shimcha shok berildi.

Tijorat banklari xorijiy valyutadagi depozit portfelining konsentratsiyasi nisbatan yuqoriroq shakllangan. 2025-yil yakuniga ko'ra, banklarning milliy valyutadagi eng yirik depozitori mablag'larining bank tizimi jami depozit portfelidagi ulushi¹⁶⁹ 18 foizda, milliy valyutadagi depozit portfelidagi ulushi esa 23 foizda shakllandi. Shuningdek, banklardagi xorijiy valyuta bo'yicha eng yirik depozitor mablag'lari bank tizimi jami depozit portfelining 6 foizini, xorijiy valyutadagi depozit portfelining 23 foizini tashkil etdi.

Eng yirik depozitorlarning o'z mablag'ini qaytarib olish farazi bo'yicha stress-test natijalari banklarda likvidlilik darajasi pasayishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Xatarli ssenariy bo'yicha har bir bankdagi eng yirik depozitor o'z mablag'ini qaytarib olishini inobatga olgan holda stress-test natijasiga ko'ra, 2026-yil yakunida bank tizimi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfiy sof pul kirimi milliy valyutadagi yuqori likvidli aktivlarning 46 foizini va jami aktivlarning 10 foizini tashkil etadi. Xorijiy valyuta bo'yicha konsentratsiya xatari ta'sirida stress-test natijalari bank tizimida ijobiy sof pul kiriminin xorijiy valyutadagi yuqori likvidli aktivlarga nisbati 55 foizdan 14 foizgacha kamayishi mumkinligini ko'rsatdi.


¹⁶⁹ Eng yirik depozitorlarning jami depozitlardagi ulushi banklar qirqimida hisoblangan eng yirik depozitorlar mablag'lari yig'indisining bank tizimi bo'yicha depozit portfeliga nisbati sifatida aniqlangan.

VI. Makroprudensial siyosat

6.1. Makroprudensial siyosat vositalari


O'zbekistonda makroprudensial siyosat vositalari Bazel III standartlari asosida tubdan takomillashtirildi. Xususan, kapital konservatsiya buferi, kontrtsiklik kapital buferi va tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan minimal talablar Bazel III standartlariga muvofiqlashtirildi. Bundan tashqari, qarzдорlarga yo'naltirilgan makroprudensial vositalar, jumladan qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati, kreditning garovga nisbati hamda qarzning daromadga nisbati bo'yicha bevosita talablar joriy etildi va takomillashtirildi (8-ilovalar).

184-chizma. O'zbekistonda ko'llanilayotgan makroprudensial siyosat vositalaridagi asosiy o'zgarishlar



Manba: Markaziy bank.

185-chizma. Makroprudensial siyosat indeksi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Makroprudensial siyosat indeksining ortishi makroprudensial siyosatning qat'iylashtirilganligini, aksincha pasayishi yengillashtirilganligini ifodalaydi.

2025-yilda qarzidorlarga yo'naltirilgan vositalarni takomillashtirish orqali makroprudensial siyosat qat'iylashtirildi. 2025-yil 24-iyuldan e'tiboran kreditning garovga nisbati bo'yicha bevosita talablar avtokreditlar uchun 75 foiz, ipoteka kreditlari uchun 80–85 foiz darajalarida o'rnatilishi makroprudensial siyosat indeksini ortishida o'z ifodasini topdi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag'lari hisobidan qayta moliyalashtiriladigan ipoteka kreditlarini o'rtacha oylik daromadini belgilangan tartibda aniqlash imkoniyati mavjud jismoniy shaxslarga ajratishda kreditni garovga nisbati 85 foizdan oshmaslik talabi belgilandi.

Qarzidorlarga yo'naltirilgan makroprudensial siyosat vositalari kengaytirildi. Shuningdek, 2025-yildan jismoniy shaxslarga ajratilgan barcha kredit turlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati talabi 50 foizgacha qat'iylashtirildi. Shu bilan birga, banklar tomonidan aholiga iste'mol kreditlari hamda mikroqarzlarni ajratishda qarz yuki xavfini kamaytirish uchun qarzni daromadga nisbati ko'rsatkichi bo'yicha talablar ham joriy etildi. 2026-yil 1-martdan boshlab qarzni daromadga nisbati ko'rsatkichi o'rtacha oylik daromadini aniqlash imkoniyati mavjud bo'lgan qarz oluvchilar hamda o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga 8 barobardan, o'rtacha oylik daromadini tegishli tartibda

aniqlash imkoniyati mavjud bo'lmaganda 5 barobardan ortmaslik talabi belgilandi¹⁷⁰.

Kredit portfeli diversifikatsiyasini ta'minlash maqsadida ayrim kredit turlari bo'yicha qo'shimcha konsentratsiya talablari joriy etildi. Banklar kredit portfeli tarkibida avtokreditlar uchun amaldagi konsentratsiya talabiga qo'shimcha ravishda, 2025-yil 24-iyuldan boshlab mikroqarzlar, overdraftlar va kredit kartalariga nisbatan ham konsentratsiya cheklovlari belgilandi. Bunga ko'ra, mikroqarzlar, overdraftlar va kredit kartalari miqdori kredit qoldig'ining eng ko'pi bilan 25 foizini tashkil etishi mumkinligi belgilab berildi. Shu bilan birga, banklar faoliyatida keskin cheklovlarni oldini olish maqsadida qo'shimcha talablarga muvofiq bo'lmagan banklarga kredit portfeli tarkibini 2028-yil yakuniga qadar bosqichma-bosqich belgilangan me'yorlarga muvofiqlashtirish imkoniyati berildi.

1-jadval. Banklar kapitali uchun o'rnatilgan minimal talablar va buferlar, %

Ko'rsatkichlar	2026-yil 1-yanvarga qadar	2026-yil 1-yanvardan e'tiboran
I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti	6	4,5
I darajali kapital monandlik koeffitsiyenti	8	6
Jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyenti	13	8
Kapital konservatsiya buferi	3 (I darajali kapital tarkibida)	2,5
Kontratsiklik kapital bufer	-	1,5
Tizimli ahamiyatga molik banklar ¹⁷¹ uchun kapital bufer	-	1


Manba: Markaziy bank.

Izoh: Bunda mikromoliya banklari mustasno. Mikromoliya banklari uchun 2026-yil 1-yanvardan I darajali asosiy kapitalning monandlik koeffitsiyenti 8 foizdan, I darajali kapital va regulyativ kapitalning monandlik koeffitsiyentlari esa mos ravishda 10 va 13 foizdan kam bo'lmashlik talablari o'rnatilgan.


¹⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 22-apreldagi "Banklarga o'rnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzlar) bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3697-sonli qarori.

¹⁷¹ 2026-yil uchun O'zmilliybank, Agrobank, O'zsanoatqurilishbank, Xalq banki, Ipoteka-bank, Kapitalbank va Asakabank tizimli ahamiyatga molik banklar belgilangan.

186-chizma. O'zbekiston moliyaviy sikl indeksi¹⁷²



187-chizma. Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti, foiz band



■ Ijobiy buferni o'rnatish davri

Manbalar: Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Moliyaviy sikl indeksining oshishi iqtisodiyotda o'sish davrini, aksincha tushishi iqtisodiyotni qisqarish davrini ko'rsatadi.

Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti bo'yicha ijobiy kapital buferni o'rnatish davrlari uchun mazkur tafovutning 2 foiz banddan yuqori bo'lgan davrlar inobatga olingan. O'zbekiston moliyaviy sikl indeksi bo'yicha ijobiy kapital buferni o'rnatish davrlari uchun uning eng yuqori qiymatga ega davrlari hisobga olingan.

Tijorat banklari uchun kontrtsiklik kapital bufer darajasi 1,5 foiz miqdorida o'rnatildi. Xalqaro moliya tashkilotlarining tavsiyalari hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan Banklar uchun kontrtsiklik kapital bufer darajasini belgilash asoslariga¹⁷³ muvofiq miqdoriy yondashuvlar yordamida CCyB stavkasi hisoblandi. Xususan, samarali ko'rsatkichlar o'zining tarixiy o'rtacha qiymati atrofida shakllanganligi, bank aktivlarining ortib borishi, kreditlar ajratish ko'lamining barqarorligi, muammoli kreditlar o'sishining sekinlashganligi mamlakatda moliyaviy siklning standart xatar muhiti kuzatilganligidan dalolat berdi. Markaziy bank miqdoriy yondashuvlar natijasini inobatga olgan holda, standart xatar muhitida 2026-yil 1-yanvardan banklar uchun CCyB talablarini ijobiy darajada o'rnatish bo'yicha qaror qabul qildi¹⁷⁴. Ushbu bufer darajasini oshirish yoki pasaytirish (realizable buffer) davriy

¹⁷² Moliyaviy sikl indeksini hisoblash metodologiyasi 2023-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

¹⁷³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Banklar uchun kontrtsiklik kapital bufer darajasini belgilash asoslari.

¹⁷⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Press-relizlar: Banklar uchun kontrtsiklik kapital bufer darajasi belgilandi.

xatarlarni oldini olish imkonini beradi hamda makroprudensial vositalar samaradorligini oshiradi (9-ilova).


Moliyaviy sikl indeksining keskin o'zgarishlarsiz shakllanishi standart xatar muhitida ijobiy buferni o'rnatilishini asoslaydi. So'nggi yillarda keskin o'zgarishlarsiz shakllanayotgan moliyaviy sikl indeksi mamlakatda standart xatar muhiti mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati manfiy tafovuti 2025-yil yakunida 4 foiz bandni tashkil etdi. Xususan, xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati va o'zining uzoq muddatli trendidagi o'zgarishlar ijobiy CCyB kechikish bilan o'rnatilganligini ifodalaydi.

Tarkibiy tizimli xatarlarni oldini olish maqsadida tizimli ahamiyatga molik banklar uchun 1 foizlik qo'shimcha kapital buferi belgilandi. 2026-yil 1-yanvardan e'tiboran tizimli ahamiyatga molik banklar tomonidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan xatarlarning mamlakat bank tizimi va real iqtisodiyotga salbiy ta'sirini oldini olish uchun mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferlari amaliyotga joriy etildi¹⁷⁵. Jumladan, ushbu bufer tizimli ahamiyatga molik banklar tomonidan haddan ziyod ko'p xatarlarni to'planishini oldini olishga hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni yuqori sifatli kapital hisobiga qoplash imkoniyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Banklar uchun kapital konservatsiya buferi Bazel III standartlari asosida joriy etildi. Banklarning barqaror faoliyatini ta'minlash va to'lov qobiliyatini yanada yaxshilash maqsadida minimal kapital monandlik koeffitsiyentlari qatori kapital konservatsiya buferi 2026-yildan e'tiboran Bazel III standartlariga moslashtirildi. Xususan, kapital konservatsiya buferi tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 2,5 foizi miqdorida I darajali asosiy kapital ko'rinishida shakllantirish zarurligi belgilandi (10-ilova).

¹⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 28-oktyabrdagi "Banklar kapitalining monandligiga qo'yilgan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3697-sonli qarori.

188-chizma. Kapital monandlik koeffitsiyenti oraliqlari va jami aktivlardagi ulushlari taqsimoti, % (2026-yil 1-yanvar holatiga)



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Kapital monandlik koeffitsiyentlari oraliqlarida joylashgan banklarning jami aktivlardagi ulushlari yig'ilib borish tartibida o'rnatilgan.


Banklar Bazel III standartlari asosida o'rnatilgan minimal kapital monandlik va kapital bufer talablariga to'liq javob bermoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tizimli ahamiyatga molik banklarning I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti kapital buferlarini inobatga olgan holda o'rnatilgan minimal 9,5 foizlik, boshqa banklarda esa 8,5 foizlik talabdan yuqori shakllandi. Shuningdek, 2026-yil boshida barcha banklarning jami regulyativ kapital monandlik koeffitsiyenti 13 foizdan yuqori bo'ldi.

6.2. Xatarlar va yengillashtiruvchi choralar

O'zbekiston moliyaviy barqarorligi uchun asosiy xatarlar va ularni yengillashtiruvchi choralar	Xatar darajasi va o'zgarishi	
	Qisqa muddatda	O'rta muddatda
Geosiyosiy nobarqarorlik ta'sirida global moliyaviy sharoitlarning qat'iylashishi Xalqaro miqyosda yuzaga kelgan keskinliklar, jumladan Yaqin Sharq mintaqasidagi vaziyat tufayli global inflyatsion kutilmalarning ortishi hamda yuqori foiz stavka muhitining saqlanib qolishi moliyaviy sharoitlarni qat'iylashishiga sabab bo'ladi. Bu esa, mamlakatga xalqaro moliya bozorlaridan mablag'larni jalb etishni qiyinlashtiradi va tashqi qarz majburiyatlariga xizmat ko'rsatish xarajatlarini oshiradi. Natijada, mamlakatga kapital oqimi sekinlashadi, byudjet taqchilligini moliyalashtirish xarajatlari oshadi hamda xorijiy kredit liniyalari orqali mamlakat iqtisodiyotiga ajratiladigan kredit foiz stavkalarining ortishi yuzaga keladi. Bundan tashqari, geosiyosiy nobarqarorlik sharoitida xalqaro logistika zanjirlaridagi uzilishlar, transport va sug'urta tariflarining qimmatlashishi hamda yoqilg'i narxlarining o'sishi tashqi savdo aylanmasini qisqartiradi. Xususan, O'zbekiston eksport mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi pasayishi va yuqori import narxlari ta'sirida ichki inflyatsion bosim ortishi mumkin. Tovar narxlarining o'zgaruvchanligi ta'sirida tashqi savdo defitsitining kengayishi, shuningdek kapital harakatining liberallashtiruvining dastlabki ta'siri hisobiga mamlakat rezidentlarining xorijiy valyutada tashqi investitsiya kiritish imkoniyatining yaratilishi ichki valyuta bozorida bosimni yuzaga keltiradi va tashqi moliyalashtirish imkoniyatlari cheklangan sharoitida mamlakat iqtisodiyotning global tashqi shoklarga nisbatan sezgirligini ortishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar moliyaviy holatining yomonlashishi ushbu korxonalarning o'z majburiyatlarini bajarishi bo'yicha to'lov qobiliyatini pasaytirib, bank aktivlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, xorijiy valyutadagi depozitlar va kreditlar yillik o'sish sur'atining xorijiy valyuta ekvivalentida tezlashganligi hamda sof ochiq valyuta pozitsiyasining kengayishi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bo'lgan valyuta xatarlariga bank tizimi ta'sirchanligini oshiradi. Xatarni yengillashtiruvchi choralar: - konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligining belgilangan yuqori chegarasiga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash;		

O‘zbekiston moliyaviy barqarorligi uchun asosiy xatarlar va ularni yengillashtiruvchi choralar	Xatar darajasi va o‘zgarishi	
	Qisqa muddatda	O‘rta muddatda
- tizimli xatar buferini joriy etish; - investitsion muhitni yaxshilash hisobiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etish imkoniyatlarini oshirish; - xalqaro moliya bozorlarida foiz stavkalarining yuqori sharoitida mamlakat kapital bozorini rivojlantirish orqali ichki moliyalashtirishni kengaytirish; - tashqi savdo bo‘yicha xalqaro logistika yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish, shuningdek qo‘shni davlatlar bilan savdo integratsiyasini kuchaytirish.		
Mikroqarzlار bo‘yicha kredit xatarining ortishi Banklar kredit portfelida mikroqarzlار bo‘yicha muammoli kreditlarning ortib borishi kredit xatarini yuqorilashiga va natijada kredit yo‘qotishlarining ko‘payishiga olib keladi. Shuningdek, mikroqarz oluvchilar qarz yukining ortishi tufayli qarzdorlarning o‘z majburiyatlarini bajara olmagan holatida ushbu kreditni ajratishda garov ta‘minotining talab etilmasligi hisobiga tijorat banklarida kredit yo‘qotishlari yuzaga kelishi mumkin. Xatarni yengillashtiruvchi choralar: - qarz yuki talablari doirasida qarz yuki ko‘rsatkichini inobatga olmasdan kredit ajratish bo‘yicha istisno holatlarini mikroqarzlarga nisbatan tatbiq etmaslik; - minimal iste‘mol xarajatlaridan kelib chiqqan holda, mikroqarz olish uchun zarur bo‘lgan minimal oylik daromad miqdorini o‘rnatish.		

Kiber xatarlarning ortib borishi To'lov tizimlari hamda raqamlashtirish jarayoni jadallashishi bilan birga kiber xatarlarning sodir bo'lishi ham oshib bormoqda. Ushbu turdagi xatarning oshishi moliya tizimiga bo'lgan ishonchning susayishiga va natijada moliya tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, kiber hujumlar, axborot xavfsizligining buzilishi hamda axborotlarni o'g'irlash ko'rinishidagi operatsion xatarlarning ortishi moliya tizimi ishtirokchilarining tashqi hodisalar ta'siridagi moliyaviy yo'qotishlarini oshiradi. Xatarni yengillashtiruvchi choralar: - shubhali tranzaksiyalarni aniqlashda sun'iy intellekt orqali kuzatish tizimini joriy etish va shubhali hisoblangan tranzaksiyalar uchun cheklovlarni o'rnatish; - moliya tizimi ishtirokchilari tomonidan bardoshli axborot xavfsizligi tizimlarini takomillashtirib borish; - kiber hujumlar va firibgarlik bo'yicha aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish.		
Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavotirlarning ortishi Iqlim o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan xavflar biznes vakillari hamda jismoniy shaxslar uchun yirik yo'qotishlarni keltirib chiqarishi va bu orqali moliyaviy tizimga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, mamlakat iqtisodiyotidagi muhim tarmoqlarning iqlim o'zgarishiga bog'liq moddiy va o'tish xavflariga zaifligi ortishi mumkin. Xatarni yengillashtiruvchi choralar: - iqlim o'zgarishining moddiy va o'tish xavflarini banklar moliyaviy holatiga ta'sirini iqlim stress-testi vositasi yordamida baholash; - iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xatarlarga zaif tarmoqlar uchun nisbatan qat'iyroq va aksincha yashil investitsion loyihalar uchun pastroq kapital talablarini belgilash.		



Izoh: Yashil, sariq va qizil ranglar bilan ko'rsatilgan belgining yo'nalishi xatar darajasining o'zgarishini ifodalaydi.

7-havola. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moddiy xavflar

O'zbekistonda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moddiy xavflar mavjud bo'lib, iqtisodiyot va infratuzilma barqarorligi uchun xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin. Mamlakatning sharqiy va janubiy qismlari seysmik faol hududda joylashganligi sababli zilzila xavfi mavjud. Shu bilan birga, quruq iqlim sharoiti suv tanqisligi va qurg'oqchilik xavflarini kuchaytirishi va natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining qisqarishi, ishsizlikning oshishi va aholi daromadlarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, daryo va shahar toshqinlari, yer ko'chishi, ekstremal issiqlik kabi xavflar hududlar kesimida turlicha namoyon bo'lib, infratuzilma va aholi farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Iqlim xatarlari yuqori bo'lgan hududlarga banklar tomonidan ajratilgan kreditlarda yo'qotishlar vujudga kelishi mumkin.

O'zbekistonning sharqiy va janubiy hududlari seysmik faollikka nisbatan yuqoriroq ta'sirchanlikka ega. O'zbekiston Hindiston va Yevroosiyo tektonik plitalari¹⁷⁶ tutashgan nuqtaga yaqin joylashganligi sababli seysmik faol hudud hisoblanadi¹⁷⁷. Xususan, geologik va tektonik omillar ta'sirida Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahri zilzila xavfi yuqoriroq bo'lgan hududlar qatoriga kiradi. Mamlakatning qolgan hududlari zilzila xavfining o'rtacha darajasi bilan tavsiflangan.

G'arbiy hududlarda quruq iqlim sharoiti suv tanqisligi xavfini kuchaytirishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Buxoro hududlarida yog'ingarchilikning kamligi hamda yerning sho'rlanishi tufayli iqlim xavfi mavjud. O'zbekistonning g'arbiy hududlarida janubi-sharqiy hududlariga nisbatan deyarli 10 baravar kamroq yog'ingarchilik kuzatiladi¹⁷⁸. Bundan tashqari, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi eng sho'rlangan hududlar hisoblanib, o'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlarning ulushi mos ravishda 41 va 40 foizlarni tashkil etadi. Mazkur yerlarning sho'rini yuvish uchun katta miqdorda suv talab qilinadi¹⁷⁹. Yog'ingarchilik kamligi sababli qishloq xo'jaligida sug'orish masalasi muhim sanaladi va mavjud suv resurslarining deyarli 90 foizi ushbu sohada ishlatiladi¹⁸⁰. 2024-yilda qishloq xo'jaligi nominal YaIMning 18 foizini¹⁸¹ va umumiy bandlikning 23 foizini¹⁸² tashkil etgan. Shuningdek, O'zbekistonda demografik o'sish va sanoatlashuv hisobiga yer usti va yer osti suvlariga bo'lgan talab ortib bormoqda, iqlim o'zgarishi ta'sirida esa suv ta'minoti qisqarib bormoqda. Xususan, 2050-yilda mamlakatning ikki asosiy daryosi Amudaryo va Sirdaryo oqimlari mos ravishda 5 foiz va 15 foizga kamayishi mumkin. 2030-yilda yillik suv tanqisligining umumiy hajmi 7 milliard kub metr ga, 2050-yilda 15 milliard kub metr ga yetishi kutilmoqda¹⁸³. O'z navbatida, kutilayotgan o'rtacha haroratning oshishi bug'lanishning va suvga bo'lgan talabning ortishiga olib kelishi mumkin.

¹⁷⁶ Tektonik (litosfera) plitalari yerning tashqi qatlamini tashkil etuvchi va bir-biriga nisbatan harakatlanuvchi katta bo'laklaridir.

¹⁷⁷ World Bank. (2024, June). Uzbekistan - General Water Security Assessment.

¹⁷⁸ World Bank. (2024, May). Uzbekistan Climate Adaptation and Resilience Assessment.

¹⁷⁹ Khanal, S., C. Nolet, M. Tursunov, J.E. Hunink, D. de Condappa. (2023, May). Climate Change Risk Mapping of the Amu Darya River Basin, Uzbekistan. Future Water Report 257.

¹⁸⁰ World Bank. (2025, May). Uzbekistan to Modernize Its Irrigation Infrastructure with World Bank Support.

¹⁸¹ Milliy Statistika Qo'mitasi. (2024). Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi.

¹⁸² Milliy Statistika Qo'mitasi. (2024). Bandlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi.

¹⁸³ World Bank. (2023, November). Uzbekistan Country Climate and Development Report.

Iqlim o'zgarishi ta'sirida daryo toshqin xavflari ortib bormoqda. O'zbekistonning aksariyat qismlarida daryo toshqinlari xavfi mavjud. Daryo toshqinlari xavfi mamlakatning katta qismida, xususan yirik suv obyektlari va daryolarning yuqori oqimi yaqinidagi hududlarda saqlanib qolmoqda¹⁸⁴. Toshkent shahrining janubi-sharqiy qismida daryo toshqini xavfi past darajada baholangan¹⁸⁵. Qor erishi hisobiga yuzaga keladigan daryolarning eng yuqori oqimlari yil davomida taxminan bir oyga ertaroq kuzatilishi kutilmoqda. Bu kuchli yog'ingarchilik holatlari va daryolardagi asosiy oqimlar bilan bir vaqtga to'g'ri kelish ehtimolini oshirib, toshqin xavflarini yanada kuchaytirishi mumkin¹⁸⁶.

Aksariyat shaharlarda suv toshqinlari xavfi mavjud. Xorazm, Jizzax va Andijon viloyatlari o'rta xavf darajasida baholangan. Toshkent shahri va Sirdaryo viloyati past xavf toifasiga kiritilgan. Qolgan barcha hududlar yuqori xavf guruhiga mansub bo'lib, shahar toshqinlari, daryo toshqinlari hamda qattiq yog'ingarchiliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bu xavf drenaj tizimlarining holati va suv o'tkazmaydigan qoplamalarning keng tarqalgani tufayli yanada kuchayishi mumkin. Shaharlarda asfalt yo'llar va beton yo'lkalari kabi suv o'tkazmaydigan yuzalarning ortib borishi suvning yerga singishini cheklaydi. Bu esa, past hududlarda suv to'planishi va toshqinlar yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Hozirgi kunda, mamlakat aholisining yarmidan ko'pi shaharlarda istiqomat qilmoqda¹⁸⁷. Shaharlarda suv toshqinlari xavfini kamaytirishda yashil hududlarni kengaytirish va drenaj tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Istirohat bog'lari va xiyobonlar kabi yashil hududlar yomg'ir suvini singdirish va uning oqimini sekinlashtirishga yordam beradi.

O'zbekistonda yer ko'chishining yuqori xavf darajasi tog'li mintaqalarda jamlangan. Mamlakat hududining 90 ming km² qismi tog'lar bilan qoplangan bo'lib, ushbu hududning 17 foizi yer ko'chishi xavfiga moyil hisoblanadi va ko'chkillarning taxminan 65-70 foizi qor erishi, yog'ingarchilik va yer osti suvlari ta'sirida, 20-25 foizi zilzilalar oqibatida, 15-20 foizi esa texnogen omillar¹⁸⁸ sababli yuzaga keladi¹⁸⁹. Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona, Namangan va Andijon kabi hududlarda tik relyef, kuchli yog'ingarchilik hamda seysmik faollik sababli yuqori ko'chki xavfi mavjud. Navoiy viloyati o'rtacha xavf darajasiga kiritilgan bo'lib, bu uning tog'li hududlari nisbatan kamligi bilan izohlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahri kabi tekis hamda cho'l hududlarda ko'chki xavfi past darajada bo'lib, bunga relyefning tekisligi va yirik tog' tizmalari mavjud emasligi sabab bo'ladi.

Ekstremal issiqlik bilan bog'liq iqlim xavfi energetika, transport va mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mamlakat bo'ylab yuqori harorat xavfi keng tarqalgan bo'lsa-da, hududlarning deyarli barchasi o'rtacha xavf darajasida baholanmoqda. Yuqori

¹⁸⁴ Hududlar kesimida ayrim tumanlar o'rta, past yoki juda past darajadagi toshqin xavfga ega. Masalan, Navoiyda faqat ikkita kichik tuman yuqori xavf darajasiga ega, boshqa tumanlar past yoki juda past xavfga ega deya baholangan.

¹⁸⁵ ADB. (2023, August). Incorporating climate resilience in urban planning and policy making: Focus on Armenia, Georgia, and Uzbekistan.

¹⁸⁶ World Bank. (2022, April). Toward a Prosperous and Inclusive Future: The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan.

¹⁸⁷ Milliy Statistika Qo'mitasi. (2025). O'zbekiston Respublikasida demografik holat.

¹⁸⁸ Texnogen omillar — bu inson faoliyati, sanoat ishlab chiqarishi, texnika yoki texnologik jarayonlar natijasida yuzaga keladigan avariya va halokatlardir. Ularga transport halokatlari, kimyoviy avariya, yong'inlar, portlashlar va energetika tizimidagi nosozliklar kiradi.

¹⁸⁹ World Bank and GFDR. (2020, January). Disaster Property Insurance in Uzbekistan: Overview and Recommendations.

xavf darajasiga ega hudud Surxondaryo bo'lib, g'arbdan, shimoldan va sharqdan o'rab turgan tog'lar havo massalarining erkin kirib kelishiga to'sqinlik qiladi va hududda yuqori haroratning saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Quruq iqlim sharoitiga ega O'zbekiston allaqachon harorat o'zgarishlariga duch keldi va harorat oshishi davom etgani sayin, iqlimiy bosim yanada kuchayishi kutilmoqda. 1950-yildan 2020-yilgacha mamlakatdagi o'rtacha harorat 2,9°S ga oshgan. Prognozlarga ko'ra, ushbu asr oxirigacha yana 1,21°S dan 1,94°S gacha oshishi kutilmoqda¹⁹⁰. Umumiy xavf darajasi o'rtacha bo'lsa-da, harorat oshishi bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, o'rtacha hisobda havo haroratining bir darajaga ko'tarilishi elektr energiyaga bo'lgan talabni 0,5–8,5 foizga oshiradi. Bunda, asosiy omillardan biri tijoriy va turarjoy binolarining sovutish tizimlari hisoblanadi. Bunday talabning oshishi elektr energiya tizimiga bosimni yanada kuchaytiradi¹⁹¹. Shuningdek, ekstremal issiqlik transport infratuzilmasi uchun xavflarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ekstremal issiqlik mehnat unumdorligini pasaytiradi, xususan, kuchli issiq kunlarda qurilish sohasidagi unumdorlik 20–30 foizgacha kamayishi mumkin¹⁹².


¹⁹⁰ World Bank. (2023, November). Uzbekistan Country Climate and Development Report.

¹⁹¹ World Bank and Asian Development Bank (2021). Climate Risk Country Profile: Uzbekistan.


¹⁹² World Bank. (2025, June). Unlivable. How Cities in Europe and Central Asia Can Survive – and Thrive – in a Hotter Future.

189-chizma. O'zbekistonda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moddiy xavflar


Zilzila xavfi




Suv tanqisligi xavfi




Daryo toshqini xavfi




Shaharlarda suv toshqini xavfi



Yer ko'chish xavfi



Ekstremal issiqlik xavfi



Manba: ThinkHazard.

Izoh: Viloyatlar bo'yicha baholash jarayonida har bir viloyat tarkibidagi tumanlar orasida aniqlangan eng yuqori xavf darajasini tanlash orqali umumlashtirilgan.

Iqlim o'zgarishi xaritasi

2-jadval. O'zbekiston uchun iqlim o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar paneli

Ko'rsatkich		Birligi	Oxirgi davrdan oldingi qiymati	Oxirgi davrdagi qiymat	Oxirgi davr	O'zgarish
Iqlim ko'rsatkichlari	Jami issiqhona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂)* ekvivalentida	211,4	227,5	2024	↑
	Aholi jon boshiga jami issiqhona gaz chiqindilari	tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	5,7	6,1	2024	↑
	Jami issiqhona gaz chiqindilarining real YaIMga nisbati	kilogramm, 2024-yil narxlarida har 1 mln so'm qiymatiga nisbatan	146,8	148,2	2024	↑
	Qishloq xo'jaligida issiqhona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	51,9	52,2	2024	↑
	Sanoat ishlab chiqarish va mahsulotlardan foydalanish jarayonidagi issiqhona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	10,3	10,3	2023	→
	Energetika tarmoqlarida issiqhona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	147,3	145,3	2023	↓
	Chiqindilarni yo'q qilish jarayonlarida issiqhona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	6,9	7,1	2024	↑
	O'rmon xo'jaligi va yerlardan foydalanishning issiqhona gaz chiqindilariga ta'siri	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	-3,4	-3,4	2023	→
	Boshqa tarmoqlardagi issiqhona gaz chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	0,3	0,3	2023	→
	Iqlim o'zgarishi xatarlari O'zbekiston bilan umumiy bo'lgan davlatlarda** jami issiqhona gaz chiqindilari	mlrd tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	44,4	44,9	2024	↑
	Jami uglerod dioksidi chiqindilari	mln tonna	132,6	148,5	2024	↑
	Jami metan chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	64,4	64,3	2024	↓
	Qishloq xo'jaligida metan chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	37,6	37,8	2024	↑
	Sanoat ishlab chiqarish va mahsulotlardan foydalanish jarayonidagi metan chiqindilari	ming tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	0,9	0,9	2023	→
	Energetika tarmoqlarida jami chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	19,7	18,7	2023	↓
	Chiqindilarni yo'q qilish jarayonlarida jami chiqindilari	mln tonna, uglerod dioksidi (CO ₂) ekvivalentida	6,3	6,4	2024	↑
	Jami energiya samaradorligi***	Foiz	4,5	4,2	2024	↓

Ko'rsatkich		Birligi	Oxirgi davrdan oldingi qiymati	Oxirgi davrdagi qiymat	Oxirgi davr	O'zgarish
	Iqlim o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yer qatlami indeksi (CALCI)****	Indeks	99,04	98,98	2022	↓
	Havo haroratining bazaviy qiymatiga (1951–1980-yillardagi o'rtacha) nisbatan o'zgarishi	Selsiy	2,4	2,1	2024	↓
	Suv tanqisligi ko'rsatkichi	Indeks		3,1	2024	
	Jami chuchuk suv iste'molida qishloq xo'jaligining ulushi	Foiz	91	92	2022	↑
Real iqtisodiy ko'rsatkichlar	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi	Foiz	9,6	15,7	2024	↑
	Jami elektr energiya iste'molida sanoatning ulushi	Foiz	30,2	31,1	2024	↑
	Jami elektr energiya iste'molida qishloq xo'jaligining ulushi	Foiz	11,7	11,3	2024	↓
	Atrof muhitni muhofaza qilish xarajatlarining YaIMdagi ulushi	Foiz	0,34	0,36	2024 H1	↑
	Iqlim o'zgarishlariga ijobiy ta'sir xususiyatiga ega davlat byudjeti xarajatlarining***** YaIMdagi ulushi	Foiz	3,2	2,4	2024	↓
	Kam uglerodli texnologiya mahsulotlari eksportining YaIMdagi ulushi	Foiz	0,1	0,1	2023	→
	Kam uglerodli texnologiya mahsulotlari importining YaIMdagi ulushi	Foiz	1,8	3,2	2023	↑
	Kam uglerodli texnologiya mahsulotlari savdosining YaIMdagi ulushi	Foiz	1,9	3,3	2023	↑
	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi	mlrd kVt soat	7,5	13,0	2024	↑
	Elektr energiya narxlarining o'sishi	Foiz	67,0	18,8	2025	↓
	Qazib olinadigan yoqilg'i uchun ajratilgan subsidiya miqdori	mlrd AQSh dollari	13,2	14,5	2022	↑

Iqlim bilan bog'liq moliyaviy ko'rsatkichlar	“Yashil” suveren xalqaro obligatsiyalar hajmi	mln AQSh dollari	348,4	873,4	2025	↑
	Sanoat sohasiga ajratilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi	Foiz	28,8	23,6	2025	↓
	Qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi	Foiz	9,4	10,1	2025	↑
	Qurilish sohasiga ajratilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi	Foiz	2,4	3,1	2025	↑
	Transport va kommunikatsiya sohasiga ajratilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi	Foiz	6,2	5,6	2025	↓
	Toshkent shahrida ajratilgan kreditlarning O'zbekiston bo'yicha jami kreditlardagi ulushi	Foiz		47,0	2025	
	Bank tizimi aktivlari tarkibida nomoliyaviy tashkilotlariga ajratilgan kreditlarning ulushi	Foiz	45,7	41,1	2025	↓
	Bank tizimi aktivlari tarkibida jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlarining ulushi	Foiz	8,8	8,6	2025	↓
	Umumiy sug'urta xizmatlarining ommalashish darajasi	Promille	6,2	7,0	2025	↑

Manbalar: XVJ, Yevropa kommissiyasi, Jahon tabiat jamg'armasi, Milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: Ko'rsatkichdagi ijobiy o'zgarish yashil rang, salbiy o'zgarish qizil rang hamda o'zgarishsiz holatlari sariq rang bilan ko'rsatilgan belgilar orqali ifodalangan. Shuningdek, ushbu belgilarning yo'nalishi ko'rsatkichlar qiymatidagi o'zgarishlarni anglatadi.

*Uglerod dioksidi (CO₂) ekvivalenti – boshqa gazlar miqdorini bir xil global isish potensialiga ega bo'lgan ekvivalent miqdordagi uglerod dioksidiga aylantirish orqali, turli xil issiqxona gazlari emissiyasini ularning global isish potensialiga (global-warming potential, GWP) asoslangan holda solishtirish uchun ishlatiladigan metrik o'lchovdir. Uglerod dioksidi ekvivalentlari odatda million metrik tonna uglerod dioksidi ekvivalentlarida ifodalanadi. Ma'lum bir gaz uchun uglerod dioksidi ekvivalenti tonna birligidagi ushbu gaz hajmini tegishli global isish potensialiga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

**Iqlim o'zgarishi xatarlari O'zbekiston bilan umumiy bo'lgan davlatlar¹⁹³ sifatida Afg'oniston, Rossiya, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, Xitoy, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari inobatga olingan.

***Jami energiya samaradorligi jami yoqilg'i-energetika resurslari iste'moli birligiga to'g'ri keladigan YaIM miqdorini belgilaydi.

****Iqlim o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yer qatlami indeksi (Climate Altering Land Cover Index, CALCI) iqlim o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yer qatlamidagi o'zgarishlarni baholashda foydalaniladi. Bunda o'rmonlarning kesilishi, urbanizatsiya darajasi va qishloq xo'jaligi yerlarining kengayishi kabi yer qatlamidagi o'zgarishlar darajasi inobatga olinadi. Barcha mamlakatlar bo'yicha yer qoplamasi ma'lumotlarining 2015-yildan boshlab e'lon qilinganligi sababli, ushbu davr indeks uchun bazaviy yil sifatida tanlangan (2015-yil = 100).

¹⁹³ Kollenda, P., Logan, S., & Wang, D. (2025). Finding your Peers: Comparing Countries on a Level Playing Field. World Bank Paper.

Mamlakatlarni qiyoslash bo'yicha davlatlarni aniqlash uchun davlatlarning joylashgan o'rni, o'zaro savdo aylanmasi, daromadi, xususan aholi jon boshiga YaIM miqdorini inobatga olish maqsadga muvofiq.

*****Iqlim o'zgarishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi davlat byudjeti xarajatlari xususiyatiga ko'ra, iqlimga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldini olish va iqlim o'zgarishiga moslashish xarajatlarini o'z ichiga oladi. Bular issiqxona gazlari chiqindilarini qisqarishiga olib keladigan chora-tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan xarajatlardir, shuningdek iqlim o'zgarishlarining muqarrar oqibatlari bilan bog'liq yo'qotishlarni oldini olish yoki kamaytirish maqsadida iqlim o'zgarishlariga o'z vaqtida moslashish xarajatlarini ifodalaydi.

O'zbekiston uchun iqlim o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar paneli mamlakatda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'tish¹⁹⁴ xavflarining oshganligini, shuningdek ushbu xavflarning moliya tizimiga ta'siri kuchayganini namoyon etmoqda. Jumladan, O'zbekistonning jami issiqxona gaz chiqindilari 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 7,6 foizga ortib, 227,5 mln tonna uglerod dioksidi ekvivalentini tashkil etdi¹⁹⁵. Real YaIM birligiga¹⁹⁶ to'g'ri keladigan jami issiqxona gaz chiqindilari hajmi esa, 2024-yilda qariyb 0,15 tonnada shakllanib, 2023-yilga qaraganda 1 foizga ko'paydi. Shu bilan birga, mamlakatda umumiy energiya samaradorligining 2023-yildagi 4,5 foizdan 2024-yilda 4,2 foizga pasayishi kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish jarayonida energiya sohasidagi islohotlar bilan bog'liq o'tish xavflari bo'yicha xavotirlar kuchayganligidan dalolat beradi.

Bunda asosan, qishloq xo'jaligining iqlim o'zgarish xavflariga zaifligi ortgan. Xususan, qishloq xo'jaligida jami issiqxona gazlarining ko'payishi, ushbu sektorning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moddiy xavflardan¹⁹⁷ tashqari o'tish xavflariga nisbatan ham ta'sirchanligini oshiradi. Bundan tashqari, jami chuchuk suv iste'molining aksariyat qismi qishloq xo'jaligida foydalanilishi¹⁹⁸ mazkur tarmoqning suv resurslari bilan bog'liq xatarlarga yuqori darajada ta'sirchan ekanini ko'rsatib, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarga nisbatan zaifligini kuchaytiradi. Shuningdek, jami bank tizimi kredit portfeli tarkibida qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlarning ulushi 2025-yilda 9,1 foizdan 10,1 foizgacha oshdi¹⁹⁹. Bu esa o'z navbatida, kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish chora-tadbirlari²⁰⁰ ta'sirida ushbu tarmoqda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlar tufayli bank tizimida kredit xatari ehtimolining nisbatan ortganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, jami chuchuk suv iste'molining 92 foizi qishloq xo'jaligida ishlatilmoqda.

O'zbekistonda havo harorati o'rtacha bazaviy qiymatiga²⁰¹ nisbatan 2,1°C ga oshganligi kuzatildi. Xususan, O'zbekiston havo harorati Parij kelishuvi doirasida global isish darajasini sanoatgacha bo'lgan davrdagi o'rtacha haroratga nisbatan 2°C dan sezilarli past ushlab turish

¹⁹⁴ O'tish xavflari kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, iqlim o'zgarishini yengillashtirish va moslashishga qaratilgan texnologiya, qonunchilik va mamlakat siyosatidagi o'zgarishlar moliyaviy aktivlar va majburiyatlar qiymatiga ta'sir qilishi mumkin.

¹⁹⁵ European Commission. (2025). GHG emissions of all world countries.

¹⁹⁶ 2024-yil narxlaridagi YaIM miqdorining har 1 mln so'm qiymatiga nisbatan to'g'ri keladigan jami issiqxona gaz chiqindilari hisoblangan.

¹⁹⁷ Moddiy xavflar, ya'ni iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekstremal ob-havo hodisalarining keskinlashuvi va tez-tez takrorlanishi bilan bog'liq iqtisodiy xarajatlardir moliyaviy aktivlar qiymatini pasaytirishi yoki majburiyatlarni oshirishi mumkin.

¹⁹⁸ World Bank. (2024). Annual freshwater withdrawals, agriculture (% of total freshwater withdrawals).

¹⁹⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi.

²⁰⁰ O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-iyuldagi "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi O'RQ-1073-sonli Qonuni.

²⁰¹ Havo haroratining bazaviy qiymati sifatida 1951–1980-yillardagi o'rtacha havo harorati inobatga olingan.

talabiga²⁰² nisbatan yuqoriroq o'smoqda. Bu esa, mamlakatda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moddiy xavflarning saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi.

²⁰² United Nations. (2015). Paris Agreement.

Ilovalar

1-ilova

3-jadval. Erta ogohlantiruvchi ko'rsatkichlar xaritasida foydalanilgan ko'rsatkichlar tafsiri

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati	Tavsifi	Ta'sir ishorasi	O'lchov birligi
Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti	Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati ko'rsatkichining o'z trendidan yuqori shakllanishi davriy tizimli xatarlarning ortib borayotganini ifodalaydi.	Xususiy sektorga amalda ajratilgan kreditlarning nominal YaIMga nisbati va uning uning uzoq muddatli trendi o'rtasidagi tafovut. Uzoq muddatli trend choraklik ma'lumotlar uchun mo'ljallangan 400 000 silliqlash parametridan foydalangan holda bir tomonlama HP filtri yordamida aniqlanadi.	+	Foiz band
Milliy valyutadagi kreditlar va g'aznachilik obligatsiyalarining foiz stavkalari orasidagi farq	Milliy valyutadagi kreditlar va g'aznachilik obligatsiyalari foiz stavkalari orasidagi farqning kengayishi kredit tavakkalchiligi mukofotining (credit risk premium) oshganligidan dalolat berib, banklar kredit xatarini yuqoriroq baholayotganini ko'rsatadi.	Jami milliy valyutadagi o'rtacha kredit foiz stavkasi va g'aznachilik obligatsiyalarining o'rtacha foiz stavkasi orasidagi tafovut.	+	Foiz band
Moliyaviy sharoitlar indeksi (FCI)	Moliyaviy sharoitlar indeksining ortishi mamlakatda moliyaviy sharoitlarning qat'iylashganini anglatib, kelgusida real iqtisodiy o'sishning sekinlashishi mumkinligidan dalolat beradi.	Moliyaviy sharoitlar indeksining yakuniy natijasi bank sektori, valyuta bozori, tashqi sektor va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ifodalovchi subindekslarni PCAdan foydalangan holda birlashtirish orqali hisoblanadi.	+	Indeks

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati	Tavsifi	Ta'sir ishorasi	O'lchov birligi
Jami kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti	Kreditning YaIMga nisbati ko'rsatkichining o'z trendidan yuqori shakllanishi umumiy qarz yukining ortib borayotganidan dalolat berib, davriy tizimli xatarlarning to'planib borayotganligini ifodalaydi.	Jami kreditlar qoldig'ining nominal YaIMga nisbati hamda ushbu ko'rsatkichning HP filtr orqali aniqlangan uzoq muddatli trendi o'rtasidagi tafovut. Uzoq muddatli trendni HP filtr orqali baholashda choraklik ma'lumotlar uchun mo'ljallangan 400 000 silliqlash parametridan foydalaniladi.	+	Foiz band
Nominal YaIM tafovuti	Nominal YaIM miqdorining o'z trendidan ortda qolishi mamlakat iqtisodiyotining potensialidan to'liq foydalanilmagan-ligi, iqtisodiy faollikning susayganligi va tizimli xatarlarning to'planib borayotganligidan dalolat beradi.	Nominal YaIM miqdorining amaldagi va uzoq muddatli trendi o'rtasidagi farq. Uzoq muddatli trendni HP filtr orqali baholashda choraklik ma'lumotlar uchun mo'ljallangan 400 000 silliqlash parametridan foydalaniladi.	-	Foiz band
Moliyaviy stress indeksi (FSI)	Moliyaviy stress indeksining yuqori shakllanishi moliya tizimida stress darajasining oshganligini ko'rsatadi.	Indeksning yakuniy natijasi pul bozori, ichki valyuta bozori, bank sektorini ifodalovchi subindekslarning qiymatlari va ularning mos ulushlari ko'paytmalarining yig'indisi orqali aniqlanadi.	+	Indeks
Kreditning YaIMga nisbati o'sish sur'ati	Kreditning YaIMga nisbati ko'rsatkichining oshishi mamlakatda qarz yuki darajasi yuqorilaganidan dalolat berib, kredit yo'qotishlari xavfining ortishini ifodalaydi.	Jami kreditlar qoldig'ining nominal YaIMga nisbati ko'rsatkichining yillik o'sish sur'ati.	+	Foiz band
Joriy operatsiyalar hisobi balansining YaIMga nisbati	Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligining YaIMga nisbatini ortishi mamlakat iqtisodiyotining tashqi xatarlarga nisbatan ta'sirchanligi oshganligidan dalolat beradi.	Joriy operatsiyalar hisobi saldosi miqdorini nominal YaIM hajmiga nisbati.	-	Foiz

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati	Tavsifi	Ta'sir ishorasi	O'lchov birligi
Moliyaviy sikl indeksi	Moliyaviy sikl indeksining oshishi iqtisodiyotning o'sish davrida moliya bozor ishtirokchilarining tavakkalchilikka bo'lgan moyilligi ortishi va tizimli xatarlarning to'planib borishidan dalolat beradi.	Ko'rsatkichlar Z-score usuli orqali standartlashtirilgan ko'rinishga keltiriladi va PCAdan foydalangan holda moliyaviy sikl indeksiga birlashtiriladi.	+	Indeks
Kreditning depozitga nisbati	Kreditning depozitga nisbati ko'rsatkichining yuqori darajada shakllanishi kreditlar ajratishda banklarning barqaror bo'lmagan moliyalashtirish manbalariga bog'lanib qolishi tufayli likvidlilik xavfining ortishini ifodalaydi.	Kreditlar qoldig'ini depozitlar qoldig'iga nisbati.	+	Foiz
Kapital rentabelligi (ROE)	Kapital rentabelligining pasayishi tijorat banklarining daromadlilik ko'rsatkichlari kamayib, moliyaviy yo'qotishlarning kuzatilganidan dalolat beradi.	Bank tizimi bo'yicha soliq to'lagandan keyingi sof foydaning jami kapitalga nisbati orqali aniqlanadi.	-	Foiz
Muammoli kreditlarning (NPL) o'sish sur'ati	Muammoli kreditlar o'sishining tezlashishi kredit portfeli sifatining yomonlashishi hamda kredit yo'qotishlari ehtimolining ortishidan dalolat beradi.	Muammoli kreditlar qoldig'ining bir yil oldingi qiymatiga nisbatan yillik o'sish sur'ati hisoblanadi.	+	Foiz
Bank tizimi aktivlarining YaIMga nisbati	Ushbu ko'rsatkichning ortishi real iqtisodiyot va bank tizimi o'zaro bog'liqlik darajasining ortganini ifodalab, bank tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'siri yuqorilashini anglatadi.	Bank tizimi jami aktivlarining nominal YaIMga nisbati.	+	Foiz

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati	Tavsifi	Ta'sir ishorasi	O'lchov birligi
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR)	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyentining kamayishi banklarda likvidlilik muammosi oshganligini ifodalab, majburiyatlarini o'z vaqtida amalga oshirishda banklarda qiyinchiliklarning yuzaga kelishi mumkinligini ifodalaydi.	Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasini barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga nisbati.	-	Foiz
Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR)	Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyentining kamayishi banklarda likvidlilik muammosi oshganligini ifodalab, keyingi 30 kun ichida kutilayotgan sof chiqimni qoplash uchun yuqori likvidli aktivlarning yetarlilik darajasining pasayganini anglatadi.	Yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati.	-	Foiz
Jami bank kreditlar qoldig'ining o'sishi (YoY)	Kreditlar qoldig'ining yuqori sur'atlarda o'sishi bank aktivlari tarkibida yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar ko'lamining ortib borayotganini ifodalaydi.	Jami kreditlar qoldig'ining yillik o'sish sur'ati.	+	Foiz
Xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi	Kredit portfelida dollarlashuv darajasi yuqori bo'lishi valyuta bozoridagi o'zgarishlar natijasida banklarda kredit yo'qotishlarining ortishi mumkinligidan dalolat beradi.	Yuridik shaxslarga xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar qoldig'ining jami kreditlarga nisbati.	+	Foiz
Aktivlar rentabelligi (ROA)	Aktivlar rentabelligining pasayishi tijorat banklarining daromadlilik ko'rsatkichlari kamayib, moliyaviy holati yomonlashganidan dalolat beradi.	Bank tizimi bo'yicha soliq to'lagunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbatini hisoblash orqali aniqlanadi.	-	Foiz

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati	Tavsifi	Ta'sir ishorasi	O'lchov birligi
Leveraj koeffitsiyenti	Leveraj koeffitsiyentining kamayishi jami bank aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini pasayganligini ifodalab, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplashda banklar to'lov qobiliyatini yomonlashganidan dalolat beradi.	I darajali kapitalni jami aktivlar hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.	-	Foiz
I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyenti	I darajali asosiy kapital monandlik koeffitsiyentining kamayishi banklarning to'lov qobiliyatini pasayganligini ifodalab, tizimli xatarlarga bardoshligi yomonlashganini ifodalaydi.	I darajali asosiy kapitalni tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbati orqali aniqlanadi.	-	Foiz
Jami aktivlarda yuqori likvidli aktivlarning ulushi	Jami aktivlar tarkibida yuqori likvidli aktivlarning kamayishi bank tizimida likvidlilik xavfining ortishini ifodalaydi.	Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati.	-	Foiz
Valyuta pozitsiyasi	Valyuta pozitsiyasi absolyut qiymatining yuqorilashi xorijiy valyutadagi keskin o'zgarishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bank yo'qotishlari ortishini ifodalaydi.	Tijorat banklarining xorijiy valyutadagi talablari miqdori uning xorijiy valyutadagi majburiyatlari miqdoriga teng bo'lmagan holatdagi talablar va majburiyatlar orasidagi farq.	+	Miqdor
Bank sektorining konsentratsiya darajasi (aktivlar bo'yicha)	Bank sektoridagi konsentratsiya va raqobat darajasini ifodalovchi Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI) ko'rsatkichining ortishi, bank tizimida raqobat darajasining pasaygani va konsentratsiya xavfining yuqorilganini ifodalaydi.	Bank tizimi aktivlar bo'yicha Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI) har bir bank aktivlarining jami bank tizimi aktivlaridagi ulushi kvadrlarining yig'indisi.	+	Indeks

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati	Tavsifi	Ta'sir ishorasi	O'lchov birligi
Nobarqaror moliyalashti-rish koeffitsiyenti	Ulgurji moliyalashtirish manbalari egalarining banklar moliyaviy holati va moliyaviy bozordagi boshqa investitsion imkoniyatlarni doimiy kuzatib borishi tufayli, bank tizimida yuzaga kelgan noaniqlar davrida ushbu mablag'lar yirik miqdorda qaytarib olinadi. Shu sababli, ushbu koeffitsiyentning oshishi likvidlilik muammolarining yuzaga kelish ehtimolining ortishini ifodalaydi.	Aholi omonatlaridan tashqari boshqa bank majburiyatlarining jami aktivlarga nisbati.	+	Foiz
Jami majburiyatlar tarkibida nobarqaror moliyalashti-rishning ulushi	Moliyaviy tizimdagi o'zgarishlarga ulgurji moliyalashtirish mablag'larining yuqori ta'sirchanligi tufayli, yuzaga kelgan noaniqlar davrida ushbu mablag'larning katta miqdorda qaytarib olinishi kuzatiladi. Shu sababli, banklarning jami majburiyatlar tarkibida ulgurji moliyalashtirish manbalari ulushining ortishi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan likvidlilik muammolarining oshishini ifodalaydi.	Aholi omonatlaridan tashqari boshqa bank majburiyatlarining jami majburiyatlarga nisbati.	+	Foiz
Uy xo'jalik-lari kreditlari qoldig'ining o'sishi	Chakana kreditlarning yuqori sur'atlarda o'sishi qarz oluvchilarning qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini oshishi tufayli kelgusida iste'mol xarajatlarining kamayishi va iqtisodiyotda yalpi talabning qisqarishiga sabab bo'ladi. Bu esa, kelgusida qarzdorlarning moliyaviy holati yomonlashishi natijasida banklarda kredit yo'qotishlarini oshiradi.	Jismoniy shaxslarga ajratilgan jami kreditlar qoldig'ining yillik o'sish sur'ati.	+	Foiz

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati	Tavsifi	Ta'sir ishorasi	O'lchov birligi
Korporativ kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti	Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining nominal YaIMga nisbatining o'z trendiga nisbatan yuqori shakllanishi korporativ sektor bo'yicha qarz yuki va davriy tizimli xatarlarning yuqorilayotganini ifodalaydi.	Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning nominal YaIMga nisbati va uning uzoq muddatli trendi o'rtasidagi tafovut. Uzoq muddatli trend choraklik ma'lumotlar uchun mo'ljallangan 400 000 silliqlash parametridan foydalangan holda bir tomonlama HP filtri yordamida aniqlanadi.	+	Foiz band
Uy xo'jaliklari kreditlari-ning YaIMga nisbati tafovuti	Chakana kreditlarning YaIMga nisbati ko'rsatkichining o'z trendidan yuqori shakllanishi aholi qarz yuki darajasi va davriy tizimli xatarlarning ortib borayotganini ifodalaydi.	Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning nominal YaIMga nisbati va uning uzoq muddatli trendi o'rtasidagi tafovut. Uzoq muddatli trend choraklik ma'lumotlar uchun mo'ljallangan 400 000 silliqlash parametridan foydalangan holda bir tomonlama HP filtri yordamida aniqlanadi.	+	Foiz band
Jami kreditlar tarkibida korporativ kreditlar ulushi	Ushbu ko'rsatkichning ortishi bank kredit portfelida yuridik shaxslar bo'yicha konsentratsiya xavfi oshganini anglatib, korxonalarning moliyaviy holatini yomonlashishi tufayli banklarning kredit yo'qotishlari ehtimoli ortishini ifodalaydi.	Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining jami kreditlarga nisbati.	+	Foiz
Korporativ kreditlarning o'sish sur'ati	Korporativ kreditlarning yuqori sur'atlarda o'sishi real iqtisodiyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar natijasida yirik qarzdorlar to'lov qobiliyatining yomonlashishi tufayli banklarda sezilarli kredit yo'qotishlari ehtimolini oshiradi.	Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining yillik o'sish sur'ati.	+	Foiz

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati	Tavsifi	Ta'sir ishorasi	O'lchov birligi
Jami kreditlar tarkibida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ulushi	Kredit portfelida chakana kreditlar ulushining ortishi qarzdorlarning moliyaviy holatini yomonlashishi natijasida banklarda kredit yo'qotishlari ehtimoli oshirishi mumkin.	Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining jami kreditlar qoldig'iga nisbati.	+	Foiz
Jismoniy shaxslar bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati	Jismoniy shaxslarning qarzga xizmat ko'rsatish nisbatining ortishi aholining qarz yuki darajasi yuqorilaganidan dalolat berib, qarz oluvchilarning kreditlarni o'z vaqtida to'lay olmaslik va kredit yo'qotishlari yuzaga kelish ehtimolini oshiradi.	Bankdan kredit olgan jismoniy shaxslarning bank, nobank va nomoliyaviy tashkilotlar bilan tuzilgan amaldagi kredit va qarz shartnomalari bo'yicha jami oylik to'lov miqdorining oylik daromadga nisbati.	+	Foiz
Uy-joy narxining aholi ixtiyoridagi daromadga nisbati	Uy-joy narxlarining aholi ixtiyoridagi daromadga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi uy-joy narxlarining shakllanishida fundamental omillarga bog'liq bo'lmagan boshqa omillarning ta'siri yuqoriligini ifodalaydi.	Uy-joylar o'rtacha bozor narxlarining aholi ixtiyoridagi daromadga nisbati.	+	Miqdor
Ipoteka kreditlari-ning o'sish sur'ati	Ipoteka kreditlari qoldig'ining yuqori sur'atlarda o'sishi ko'chmas mulk bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga bank tizimi ta'sirchanligining oshganligini anglatadi.	Jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari qoldig'ining yillik o'sish sur'ati.	+	Foiz
Ipoteka kreditlari qoldig'i bo'yicha leveraj	Mamlakat YaIMiga nisbatan ipoteka kreditlari hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi jismoniy shaxslarning ipoteka kreditlari bo'yicha qarz yuki darajasi oshganligidan dalolat beradi.	Jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari qoldig'ining nominal YaIMga nisbati.	+	Foiz
Uy-joy narxlarining o'sish sur'ati	Uy-joy narxlari yillik o'sish sur'ati absolyut qiymatining yuqori darajada oshishi ko'chmas mulk bozorida	Respublika bo'yicha o'rtacha uy-joy narxlarining yillik o'sish sur'ati.	+	Foiz

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati	Tavsifi	Ta'sir ishorasi	O'lchov birligi
	o'zgaruvchanlikni oshganligini va xatarlarni yig'ilib borayotganligini dalolat beradi.			
O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalar G-spredi	O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalari G-spredining ortishi benchmark obligatsiyalarga nisbatan xatarlilik darajasi ortganligi, shuningdek xalqaro moliya bozorlarida investorlarning mamlakat suveren qarzi bo'yicha talab qiladigan xavf mukofoti oshganligidan dalolat beradi.	Xorijiy valyutada joylashtirilgan O'zbekiston suveren obligatsiyalari daromadliligi va benchmark obligatsiyalar daromadliligi o'rtasidagi farq. Barcha yevroobligatsiya-lar bo'yicha umumiy G-spred ko'rsatkichini aniqlashda har bir yevroobligatsiya bo'yicha G-spred va obligatsiyalar hajmidan kelib chiqqan holda tortilgan arifmetik o'rtacha hisoblanadi.	+	Foz band

Izoh: (+) ko'rsatkichning o'sishi moliyaviy zaifliklarning ortishini, (-) esa ko'rsatkichning o'sishi moliyaviy zaifliklarning aksincha kamayishini ifodalaydi.

Ekstremal qiymatlar nazariyasiga asoslangan yondashuv

Ekstremal qiymatlar nazariyasiga (Extreme Value Theory, EVT) asoslangan yondashuv bank tizimiga salbiy ta'sir qiluvchi xatarlarning ekstremal qiymatlarini miqdoriy jihatdan aniqlashga va ushbu xatarlarning tizim orqali tarqalishini tahlil qilishga qaratilgan²⁰³. Xususan, ushbu yondashuv valyuta kursining tarixiy o'zgaruvchanligidan kelib chiqib, valyuta kursining keyingi davrda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekstremal qiymatlarini baholash imkonini beradi.

EVT asosida baholangan valyuta kursining o'zgarishi bank balansidagi xorijiy valyutadagi aktivlar va xorijiy valyutadagi majburiyatlarning so'mdagi nominal qiymatini o'zgarishiga olib keladi. Ushbu o'zgarishlar ta'sirida xorijiy valyutadagi aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi nomutanosiblik tufayli banklarga salbiy ta'sir kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga, valyuta kursi xatari tufayli hosil bo'ladigan yirik yo'qotishlar ta'sirida ayrim banklarda yuzaga kelgan defolt holatlarining tarqalish xatarini keltirib chiqarishi mumkinligi ham tahlil qilinadi.

Valyuta kursi o'zgaruvchanligi logarifmik shaklda quyidagicha aniqlanadi:

$$r_t = \log\left(\frac{FX_t}{FX_{t-1}}\right) = \log(FX_t) - \log(FX_{t-1})$$

Bu yerda,

r_t – t davrdagi valyuta kursi logarifmik o'zgaruvchanligi;

FX_t – t davrdagi milliy valyuta kursining xorijiy valyutadagi nominal qiymati;

FX_{t-1} – $(t - 1)$ davrdagi milliy valyuta kursining xorijiy valyutadagi nominal qiymati.

Asosiy e'tibor milliy valyuta kursining qadsizlanishiga qaratilganligi sababli valyuta kursi o'zgaruvchanligi manfiy ishora bilan qayta aniqlanadi va $y_t = -r_t$ deb belgilanadi²⁰⁴. Valyuta kursi manfiy o'zgaruvchanligining dinamikasi quyidagi ko'rinishda stoxastik jarayon²⁰⁵ sifatida modellashtiriladi:

$$y_t = \mu_t + \varepsilon_t$$

$$\varepsilon_t = Z_t \sigma_t$$

²⁰³ Nikzad, R. (2011). Extreme Value Theory with an Application to Bank Failures through Contagion. University of Ottawa.

²⁰⁴ Titov, C. (2022). Forecasting Exchange Rate Value-at-Risk and Expected Shortfall: A GARCH-EVT Approach. School of Economics and Management, Lund University.

²⁰⁵ Stoxastik jarayon – bu vaqt davomida tasodifiylik ta'sirida rivojlanib boradigan jarayon.

Bu yerda,
 y_t – valyuta kursining manfiy o'zgaruvchanligi;
 μ_t – shartli o'rtacha;
 σ_t – shartli standart og'ish;
 $z_t \sim F(0, 1)$ – standart Styudent-t taqsimotiga²⁰⁶ ega bo'lgan mustaqil va bir xil taqsimlangan tasodifiy jarayon.

Shartli o'rtacha va shartli dispersiya qiymatlari $(t - 1)$ vaqtgacha bo'lgan ma'lumotlar to'plamiga nisbatan baholanadi va ushbu ma'lumotlar to'plami G_{t-1} orqali belgilanadi. Shartli o'rtacha μ_t va shartli dispersiya σ_t^2 qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu_t = E(y_t | G_{t-1})$$

$$\sigma_t^2 = Var(y_t | G_{t-1})$$

Bu yerda, $E(y_t | G_{t-1})$ va $Var(y_t | G_{t-1})$ mos ravishda shartli o'rtacha va shartli dispersiyani bildiradi.

EVT yondashuvi uchun ma'lumotlar mustaqil va bir xil taqsimlangan bo'lishi talab qilinadi. Mustaqil va bir xil taqsimlangan qoldiqlarga yaqinlashish uchun vaqt qatorlariga avtoregressiv harakatlanuvchi o'rtacha (Autoregressive Moving Average, ARMA) va turli umumlashtirilgan avtoregressiv shartli heteroskedastiklik (Generalized Autoregressive Conditional Heteroskedasticity, GARCH) modellaridan biri qo'llaniladi.

Avtoregressiv (Autoregressive, AR) model – bu vaqt qatorining joriy qiymatini uning o'tgan davrdagi qiymatlari yordamida tushuntiruvchi statistik model hisoblanadi. AR modeliga kechikkan tasodifiy xatoliklarni (ε_{t-j}) qo'shish orqali avtoregressiv harakatlanuvchi o'rtacha (ARMA) modeli hosil qilinadi. Vaqt qatorining ARMA(r,s) tasviri quyidagicha ifodalanadi:

²⁰⁶ Standart Styudent-t taqsimoti quyidagi ko'rinishdagi ehtimollik zichlik funksiyasiga ega bo'ladi:

$$t_v(x) = \frac{\Gamma\left(\frac{v+1}{2}\right)}{\sqrt{\pi v} \Gamma\left(\frac{v}{2}\right)} \left(1 + \frac{x^2}{v}\right)^{-\frac{v+1}{2}}$$

$$v = t - 1$$

$$\Gamma(p) = \int_0^\infty x^{p-1} e^{-x} dx$$

Bu yerda,
 $t_v(x)$ – ehtimollik zichlik funksiyasi;
 v – erkinlik darajasi;
 t – namuna hajmi;
 $\Gamma(p)$ – Gamma funksiyasi.

$$y_t = c + \sum_{i=1}^r \varphi_i y_{t-i} + \sum_{j=1}^s \gamma_j \varepsilon_{t-j} + \varepsilon_t$$

Bu yerda,

y_t – ma'lumotlarning i davrdagi qiymati;

c – o'zgarmas son;

y_{t-i} – ma'lumotlarning i davr oldingi davrdagi qiymatlari;

ε_{t-j} – tasodifiy xatoliklarning j davr oldingi davrdagi qiymatlari;

φ_i, γ_j – noma'lum koeffitsiyentlar.

Ko'pgina moliyaviy vaqt qatorlarining tarixiy dispersiyasi vaqt o'tishi bilan o'zgarish xususiyatiga ega. Ya'ni, ushbu ko'rsatkichlarda vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchan shartli heteroskedastiklikni²⁰⁷ kuzatiladi.

Umumlashtirilgan avtoregressiv shartli heteroskedastiklik (GARCH) modeli esa, moliyaviy vaqt qatorlarining o'zgaruvchan xususiyatlarini aniqlash usuli hisoblanadi. GARCH modelida musbat va manfiy tasodifiy xatoliklar dispersiyaga simmetrik ta'sir qiladi. Bunda, GARCH(p,q) modelining shartli dispersiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma_t^2 = \omega + \sum_{i=1}^p \alpha_i \varepsilon_{t-i}^2 + \sum_{j=1}^q \beta_j \sigma_{t-j}^2$$

$$\sum_{i=1}^p \alpha_i + \sum_{j=1}^q \beta_j < 1$$

$$\omega > 0, \alpha_i \geq 0, \beta_j \geq 0$$

Bu yerda,

ε_{t-i} – i davr oldingi davrlardagi tasodifiy xatoliklar;

σ_{t-j}^2 – j davr oldingi davrlardagi shartli dispersiyalar;

$\omega, \alpha_i, \beta_j$ – koeffitsiyentlar.

Yuqoridagi tenglikdagi koeffitsiyentlarning barchasi nomanfiy deb qabul qilinishi manfiy bo'lmagan dispersiyani ta'minlash uchun zarur. Shartli dispersiya tenglamasidagi α_i koeffitsiyenti oldingi davrdagi tasodifiy xatoliklar shartli dispersiyaga qanchalik ta'sir qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, β_j koeffitsiyenti shartli dispersiyaning barqarorlik darajasini ko'rsatadi.

GARCH modellarida eng keng tarqalgan yondashuv faqat birinchi tartibli tasodifiy xatoliklar va shartli dispersiya kechikishlaridan foydalanish hisoblanadi. Standart GARCH(1,1) modeli quyidagicha ifodalanadi:

²⁰⁷ Heteroskedastiklik – bu tasodifiy o'zgaruvchilar ketma-ketligining dispersiyasi vaqt qatorining turli nuqtalarida bir xil bo'lmay, o'zgarib turadigan holatdir.

$$\sigma_{t+1}^2 = \omega + \alpha \varepsilon_t^2 + \beta \sigma_t^2.$$

Bundan tashqari, integratsiyalangan GARCH (Integrated GARCH) modeli standart GARCH modeliga o'xshash bo'lib, musbat va manfiy tasodifiy xatoliklar dispersiyaga simmetrik ta'sir qiladi. GARCH modeli bilan farqi shundaki, IGARCH modelida α_i va β_j koeffitsiyentlarining yig'indisi birga teng:

$$\begin{aligned} \sigma_t^2 &= \omega + \sum_{i=1}^p \alpha_i \varepsilon_{t-i}^2 + \sum_{j=1}^q \beta_j \sigma_{t-j}^2 \\ \sum_{i=1}^p \alpha_i + \sum_{j=1}^q \beta_j &= 1 \end{aligned}$$

Bu yerda,

$$\omega > 0, \alpha_i \geq 0, \beta_j \geq 0;$$

ε_{t-i} – i davr oldingi davrlardagi tasodifiy xatoliklar;

σ_{t-j}^2 – j davr oldingi davrlardagi shartli dispersiyalar.

GJR-GARCH (Glosten, Jagannathan and Runkle GARCH) modeli asimmetrik GARCH modeli bo'lib, manfiy tasodifiy xatoliklar musbat tasodifiy xatoliklarga qaraganda shartli dispersiyaga ko'proq ta'sir qiladi. GJR-GARCH(p,q) modelining shartli dispersiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{aligned} \sigma_t^2 &= \omega + \sum_{i=1}^p (\alpha_i + \gamma_i I_{t-i}) \varepsilon_{t-i}^2 + \sum_{j=1}^q \beta_j \sigma_{t-j}^2 \\ I_{t-i} &= \begin{cases} 1, \text{ agar } \varepsilon_{t-i} < 0 \\ 0, \text{ agar } \varepsilon_{t-i} \geq 0 \end{cases} \end{aligned}$$

Bu yerda,

$$\omega > 0, \alpha_i \geq 0, \gamma_i \geq 0, \beta_j \geq 0;$$

ε_{t-i} – i davr oldingi davrlardagi tasodifiy xatoliklar;

σ_{t-j}^2 – j davr oldingi davrlardagi shartli dispersiyalar.

Ekspontensial GARCH (Exponential GARCH) modeli keng qo'llaniladigan asimmetrik GARCH modellaridan biri bo'lib, shartli dispersiyani logarifmik ko'rinishda modellashtiradi. EGARCH(p,q) modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$\ln(\sigma_t^2) = \omega + \sum_{i=1}^p \left(\frac{\alpha_i \varepsilon_{t-i} + \gamma_i |\varepsilon_{t-i}|}{\sigma_{t-i}} \right) + \sum_{j=1}^q \beta_j \log(\sigma_{t-j}^2)$$

Bu yerda,

$\varepsilon_{t-j} - i$ davr oldingi davrdagi tasodifiy xatoliklar;

$\sigma_{t-j}^2 - j$ davr oldingi davrlardagi shartli dispersiyalar.

Dastlab yuqorida keltirilgan $\varepsilon_t = z_t \sigma_t$ ushbu tenglikdagi ε_t ni o'rniga qo'yish yordamida EGARCH(p,q) modelini quyidagicha yozish mumkin:

$$\ln(\sigma_t^2) = \omega + \sum_{i=1}^p (\alpha_i z_{t-i} + \gamma_i |z_{t-i}|) + \sum_{j=1}^q \beta_j \log(\sigma_{t-j}^2)$$

Bu yerda, α_i va β_j larga hech qanday cheklovlar qo'yilmaydi va γ musbatligi talab qilinadi. Shartli dispersiya logarifmiga musbat tasodifiy xatolikning ta'siri ($\alpha_i + \gamma_i$) va salbiy tasodifiy xatolikning ta'siri ($\alpha_i - \gamma_i$) ko'rinishda bo'ladi.

Darajali GARCH (Power GARCH) modeli asimmetrik GARCH modellaridan bo'lib, shartli dispersiyani δ darajali shaklda modellashtiradi. PGARCH (p,q) modelining shartli dispersiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma_t^\delta = \omega + \sum_{i=1}^p (\alpha_i |\varepsilon_{t-i}| + \gamma_i \varepsilon_{t-i})^\delta + \sum_{j=1}^q \beta_j \sigma_{t-j}^\delta$$

Bu yerda,

$\omega > 0, \alpha_i \geq 0, -1 < \gamma_i < 1, \beta_j \geq 0, \delta > 0$;

$\varepsilon_{t-i} - i$ davr oldingi davrlardagi tasodifiy xatoliklar;

$\sigma_{t-j} - j$ oldingi davrlardagi shartli standart og'ishlar.

Yuqorida keltirilgan barcha ARMA-GARCH modellari kombinatsiyasi maksimal ehtimollik²⁰⁸ funksiyasi yordamida baholanadi. Maksimal ehtimollik funksiyasi shakli GARCH modellarining parametrik tuzilishiga bog'liq.

EVT kamdan-kam uchraydigan hodisalarni tahlil qilish uchun asosiy vositadir. Ko'plab parametrik yondashuvlar vaqt qatorlarini modellashtirishda normal taqsimotga yaqinlashuvdan foydalanadi. Biroq, moliyaviy ma'lumotlardagi ekstremal qiymatlarni bunday usul bilan modellashtirishning kamchiligi shundaki, normal taqsimot ekstremal hodisalar ehtimolini kam baholaydi. EVTni modellashtirishda katta yo'qotishlarning kichik namunasiga tayangan holda faqat

²⁰⁸ Maksimal ehtimollik bahosi – bu kuzatilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan ehtimollik funksiyasini maksimallashtirish orqali model parametrlarini baholash usuli.

taqsimotning ekstremal qiymatlariga e'tibor beriladi. Bu yondashuv, an'anaviy modellashtirish yondashuvlaridan farqli o'laroq, butun taqsimotni emas, faqat ekstremal qiymatlarni modellashtirishga qaratilgan. Shu tariqa EVT yondashuvi ma'lumotlar qatorining ekstremal qiymatlarini modellashtirish orqali yuqoridagi muammolarni bartaraf etishga harakat qiladi.

Ekstremal qiymatlar nazariyasida katta yo'qotishlar ma'lum bir chegaradan oshib ketuvchi kuzatuvlar sifatida qaraladi. Agar, $X = \{x_1, x_2, \dots, x_T\}$ ketma-ketlik F taqsimot funksiyasiga ega bo'lgan mustaqil va bir xil taqsimlangan ma'lumotlar ketma-ketligi, u tanlangan chegara qiymati bo'lgan holatda, y tanlangan chegaradan oshgan qiymatlarni bildirsa shartli taqsimot funksiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$F_u(y) = p(X - u \leq y | X > u) = \frac{F(y + u) - F(u)}{1 - F(u)}$$

Bu yerda, $x - u = y$ va $y > 0$.

Agar chegara yetarlicha yuqori qiymatga ega bo'lsa, shartli taqsimot funksiyasi $F_u(y)$ umumlashgan Pareto taqsimotiga (Generalized Pareto Distribution, GPD) yaqinlashadi, ya'ni $F_u(y) \approx G_{\xi, \eta}(y)$. GPD quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$G_{\xi, \eta}(y) = \begin{cases} 1 - \left(1 + \frac{\xi y}{\eta}\right)^{-\frac{1}{\xi}}, & \xi \neq 0 \\ 1 - \exp\left(-\frac{y}{\eta}\right), & \xi = 0 \end{cases}$$

Bu yerda,

ξ – shakl parametri (shape parameter);

η – masshtab parametri (scale parameter).

Chegara qiymatini tanlash masalasi chegaradan oshgan qiymatlar yondashuvida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ushbu tadqiqotda chegara sifatida yo'qotishlar taqsimotining 85-95% darajadagi kvantillari orasidagi qiymatlar qarab chiqiladi. Har bir tanlangan chegara uchun GPD taqsimoti modellarga alohida moslashtiriladi va modelning mosligi Anderson-Darling (AD²⁰⁹) hamda Cramer-von Mises (CvM) testlari yordamida baholanadi. Shuningdek, har bir holatda GPD parametrlarining (ξ va η) statistik ahamiyatliligi ham tahlil qilinib, optimal chegara tanlanadi.

²⁰⁹ Nemukula, M., & Sigauke, C. (2020). A Point Process Characterisation of Extreme Temperatures: an Application to South African Data. Springer.

$F(u)$ va $G_{\xi,\eta}(y)$ lar birlashtirilib, $x > u$ uchun umumiy taqsimot funksiya quyidagicha ifodalanadi:

$$F(x) = (1 - F(u))G_{\xi,\eta}(y) + F(u) \approx 1 - \frac{k}{T} \left(1 + \frac{\xi(x - u)}{\eta} \right)^{-\frac{1}{\xi}}$$

Bu yerda,

k – chegaradan oshgan kuzatuvlar soni;

T – umumiy namuna hajmi.

GPD parametrlari maksimal ehtimollik usuli yordamida baholanadi. Taqsimot $F(x)$ uchun oldindan belgilangan ishonch darajasidagi maksimal yo‘qotishi (Value at Risk, VaR) qiymati quyidagicha baholanadi:

$$VaR_q^{EVT} = u + \frac{\eta}{\xi} \left[\left(\frac{T(1 - q)}{k} \right)^{-\xi} - 1 \right]$$

Bu yerda,

u – chegara qiymati;

η – GPD ning masshtab parametri (scale parameter);

ξ – GPD ning shakl parametri (shape parameter);

T – umumiy namuna hajmi;

q – ishonch darajasi;

k – chegaradan oshgan kuzatuvlar soni.

Yuqoridagi ifoda standartlashtirilgan qoldiqlar (z) uchun $VaR(95)$ qiymatini baholaydi. Dinamik o‘zgaruvchanlik modeli doirasida manfiy o‘zgaruvchanlik qiymatlari quyidagicha ifodalanadi:

$$VaR_{q,t+1} = \mu_{t+1} + \sigma_{t+1} VaR_q^{EVT}$$

Bu yerda, μ_{t+1} va σ_{t+1} ARMA-GARCH modeli asosida baholangan qilingan qiymatlar. Baholangan VaR_q^{EVT} qiymatidan oshgan yo‘qotishlarning o‘rtacha qiymati (Expected Shortfall, ES) quyidagicha baholanadi:

$$ES_q^{EVT} = \frac{VaR_q^{EVT}}{1 - \xi} + \frac{\eta - \xi u}{1 - \xi}.$$

Dinamik o‘zgaruvchanlik modeli doirasida ES qiymati quyidagicha ifodalanadi:

$$ES_{q,t+1} = \mu_{t+1} + \sigma_{t+1} ES_q^{EVT}.$$

Ushbu yakuniy formula yordamida $t + 1$ davr uchun milliy valyuta kursi manfiy logarifmik o'zgaruvchanligining ekstremal qiymatlardagi prognozi baholanadi.

Baholangan ekstremal qiymatlardagi valyuta kursi o'zgaruvchanligi ta'sirida banklar balansida o'zgarishlar yuzaga keladi. Milliy valyuta kursining qadrsizlanishi hisobiga banklarning xorijiy valyutadagi aktivlari xorijiy valyutadagi majburiyatlaridan yuqori bo'lgan banklarda uzun valyuta mavqei oshadi. Aksincha, xorijiy valyutadagi aktivlari xorijiy valyutadagi majburiyatlaridan past bo'lgan banklar qisqa valyuta pozitsiyasida ortish kuzatiladi.

Milliy valyuta kursining qadrsizlanishi hisobiga banklar aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi miqdori bankning kapital qiymatidan oshib ketgan taqdirda bank defolt holatiga uchragan deb qaraladi. Bank defolt bo'lgan taqdirda, banklararo bog'liqlik hisobiga tarqalish xatari yuzaga keladi. Defoltga uchragan bankning o'z oldidagi majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasligi oqibatida, mazkur bankka nisbatan kreditor mavqeida turgan banklarning aktivlari qiymati kamayadi. Bu esa banklararo tarqalish xatari tufayli kreditor banklarda kredit yo'qotishlari yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi.

Banklararo tarqalish xatarini aniqlash uchun banklararo majburiyatlar matritsasiidan foydalaniladi. Agar bank tizimida bir-biriga kredit berishi yoki depozit joylashtirishi mumkin bo'lgan N ta bank bo'lsa, banklararo majburiyatlar ($N \times N$) matritsasi quyidagicha ifodalanadi:

$$X = \begin{bmatrix} 0 & \cdots & x_{1j} & \cdots & x_{1N} \\ \vdots & \ddots & \vdots & \ddots & \vdots \\ x_{i1} & \cdots & 0 & \cdots & x_{iN} \\ \vdots & \ddots & \vdots & \ddots & \vdots \\ x_{Ni} & \cdots & x_{Nj} & \cdots & 0 \end{bmatrix}$$

Bu yerda,

x_{ij} – j bankning i bank oldidagi majburiyatlarini ifodalaydi;

$\sum_j x_{ij}$ – i bankning boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan umumiy mablag'larini ifodalaydi;

$\sum_i x_{ij}$ – j bankning boshqa banklar oldidagi umumiy majburiyatlarini ifodalaydi.

Ushbu model ma'lumotlarga qo'llanildi va tahlil jarayonida ikki turdagi tanlov amalga oshirildi. Birinchi bosqichda besh xil GARCH modellarining ichida parametrlarning statistik ahamiyatliliigi hamda modellarning ma'lumotlarga mosligi AIC (Akaike Information Criterion) va BIC (Bayesian Information Criterion) orqali

baholandi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, EGARCH modeli ma'lumotlarga eng yaxshi moslashgan model sifatida tanlab olindi.

Ikkinchi bosqichda standartlashtirilgan qoldiqlar uchun optimal chegara aniqlandi. Eng yaxshi moslikni ta'minlovchi chegara sifatida 92 foizli kvantil tanlab olindi. Ushbu chegaradan oshgan qiymatlar uchun GPD taqsimot parametrlari statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi hamda GPD modelini modellashtirishda taqsimotning mosligi AD va CvM testlari orqali belgilandi.

Uy-joylarning fundamental narxini aniqlashning potensial talab modeli

Ko'chmas mulk bozorida uy-joylar fundamental narxini hisoblashning potensial talab (Potential Demand) modeli iqtisodiyotda band bo'lgan jami aholi tomonidan yaratilishi mumkin bo'lgan talabga asoslanadi. Bunda, aholi ixtiyoridagi jami daromaddan aholining mavjud kreditlari qoldig'i bo'yicha oylik to'lovlar miqdorini chegirib tashlash orqali aholining uy-joy sotib olish qobiliyati aniqlanadi²¹⁰:

$$PC_t = ADI_t - DB_t$$

Bu yerda,

PC – xarid qilish qobiliyati;

ADI – aholi ixtiyoridagi jami daromad;

DB – aholi kreditlari bo'yicha oylik to'lov miqdori;

t – choraklar.

Aholi ixtiyoridagi jami oylik daromad miqdori soliq va majburiy to'lovlarni to'lagandan keyingi aholi ixtiyoridagi o'rtacha oylik daromadni mehnat bilan band bo'lgan aholi soniga ko'paytirish orqali hisoblanadi:

$$ADI_t = DI_t * EP_t$$

Bu yerda,

ADI – aholi ixtiyoridagi jami oylik daromad;

DI – aholi ixtiyoridagi o'rtacha oylik daromad;

EP – mehnat bilan band bo'lgan aholi soni;

t – choraklar.

Aholining mavjud kreditlari bo'yicha oylik to'lov miqdori jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining umumiy hajmi, o'rtacha tortilgan foiz stavkasi va muddatidan kelib chiqib hisoblanadi:

²¹⁰ Cesnak, M., Klasco, J., Kupkovič, P., Moravčík, A., Rychtárik, Š., & Vrbovský, R. (2024). Assessing Residential Real Estate prices in Slovakia: Possible Approaches and Indices. NBS Occasional Paper.

$$DB_t = VL_t * \frac{r_{1,t}(1 + r_{1,t})^{n_{1,t}}}{(1 + r_{1,t})^{n_{1,t}} - 1}$$

Bu yerda,

DB – kreditlar bo'yicha oylik to'lov miqdori;

VL – jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i;

r_1 – jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i bo'yicha o'rtacha tortilgan oylik foiz stavkasi;

n_1 – jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i bo'yicha o'rtacha tortilgan oylik to'lov muddati;

t – choraklar.

Ko'chmas mulk bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial talab miqdori aholining xarid qobiliyatidan kelib chiqib aniqlanadi:

$$D_t = PC_t * \frac{(1 + r_{2,t})^{n_{2,t}} - 1}{r_{2,t}(1 + r_{2,t})^{n_{2,t}}}$$

Bu yerda,

D – potensial talab;

PC – xarid qilish qobiliyati;

r_2 – jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha o'rtacha tortilgan oylik foiz stavkasi;

n_2 – jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha o'rtacha tortilgan oylik to'lov muddati;

t – choraklar.

Uy-joylarning fundamental narxi potensial talab va model bo'yicha baholangan koeffitsiyentlar orqali hisoblanadi:

$$FP_t = e^{\alpha * \ln(D_t) + \beta}$$

Bu yerda,

FP – uy-joylarning fundamental narxi;

D – potensial talab;

α, β – noma'lum koeffitsiyentlar;

t – choraklar.

Uy-joylarning bozor narxi va potensial talab miqdori o'rtasidagi tarixiy bog'liqlikdan kelib chiqib, noma'lum koeffitsiyentlar eng kichik kvadrat usuli (Ordinary Least Square, OLS) modeli orqali aniqlanadi. Bunda, model natijasi statistik ahamiyatga ega bo'lishi uchun modeldagi o'zgaruvchilarning natural logarifmlangan qiymatidan foydalaniladi:

$$\ln (MP_t) = \alpha * \ln (D_t) + \beta$$

Bu yerda,

MP – uy-joylarning bozor narxi;

D – potensial talab;

α, β – noma'lum koeffitsiyentlar;

t – choraklar.

Eng kichik kvadratlar usuli modelining asosiy xossasiga ko'ra, noma'lum parametrlar erksiz o'zgaruvchining haqiqiy qiymati va uning ushbu model orqali baholanadigan qiymati orasidagi farqlar kvadratlari yig'indisining eng kichik qiymati bo'yicha aniqlanadi²¹¹:

$$\begin{aligned} u_t &= \ln (MP_t) - (\alpha * \ln (D_t) + \beta) \\ \sum u_t^2 &= \sum (\ln (MP_t) - (\alpha * \ln (D_t) + \beta))^2 \\ \sum u_t^2 &= f(\alpha, \beta) \rightarrow \min \end{aligned}$$

Funksiyaning minimumini aniqlash uchun α va β noma'lum koeffitsiyentlari bo'yicha xususiy hosilalar olinadi hamda nolga tenglashtiriladi:

$$\alpha \text{ bo'yicha: } \frac{\partial f}{\partial \alpha} = -2 \sum \ln(D_t) * (\ln (MP_t) - \beta - \alpha * \ln (D_t)) = 0$$

$$\beta \text{ bo'yicha: } \frac{\partial f}{\partial \beta} = -2 \sum (\ln (MP_t) - \beta - \alpha * \ln (D_t)) = 0$$

Tenglamalarni soddalashtirib, quyidagi tenglamalar sistemasi ko'rinishiga keltiriladi:

²¹¹ Gujarati, D.N. (2009). Basic Econometrics Fifth Edition. McGraw-Hill.

$$\begin{cases} n\beta + \alpha \sum D_t = \sum MP_t \\ \beta \sum D_t + \alpha \sum D_t^2 = \sum (D_t * MP_t) \end{cases}$$

$$\beta = \frac{\sum MP_t - \alpha \sum D_t}{n}$$

$$(\overline{MP_t} - \alpha \overline{D_t}) \sum PD_t + \alpha \sum D_t^2 = \sum (D_t * MP_t)$$

$$\alpha = \frac{\sum (D_t * MP_t) - n \overline{MP_t} * \overline{D_t}}{\sum D_t^2 - n * \overline{D_t}^2}$$

$$\begin{cases} \alpha = \frac{\sum ((D_t - \overline{D_t}) * (MP_t - \overline{MP_t}))}{\sum (D_t - \overline{D_t})^2} \\ \beta = \overline{MP_t} - \alpha * \overline{D_t} \end{cases}$$

Ushbu tenglamalar sistemasi bo'yicha noma'lum koeffitsiyentlar aniqlanadi. Uy-joylarning fundamental narxi potensial talab va model bo'yicha baholangan noma'lum koeffitsiyentlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Uy-joylarning bozor narxi va model orqali baholangan fundamental narxlar orasidagi farq ko'chmas mulk bozorida taklif etilayotgan narxlarning fundamental omillardan chetga chiqishini ifodalaydi. Bunda, ko'chmas mulk bozoridagi talabni belgilovchi muhim omillar sifatida mehnat bilan band bo'lgan jami aholi soni, aholi ixtiyoridagi daromadi, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i, ipoteka kreditlarining foiz stavkasi va so'ndirish muddati hisoblanadi.

4-jadval. To'lov qobiliyati bo'yicha yuqoridan pastga qaratilgan (top-down) makro stress-test vositasi tafsiri

Asosiy parametrlar	Jami 34 ta tijorat banklari, shundan 7 tasi tizimli ahamiyatga molik banklar inobatga olingan. 2026-yil 1-yanvar holatiga, makro stress-testda qamrab olingan tijorat banklari aktivlari bank tizimi aktivlarining 100 foizini tashkil qilgan. Barcha tijorat banklari Markaziy bank tomonidan joriy qilingan kapital monandlik talablariga rioya qilishi lozim.
Vaqt qamrovi	3 yil (2025-yil yakuni – 2027-yil yakuni)
Stress-test bo'yicha farazlar (assumptions)	Dinamik balans: – jami kreditlar va boshqa bank aktivlari miqdori (Moliya vazirligi yoki Markaziy bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, xususiy tashkilotlar qimmatli qog'ozlari, boshqa banklarga va Markaziy bankka talablar) ssenariylar bo'yicha yillik kredit qoldig'i o'sishiga asosan oshib boradi; – aktivlar tarkibi stress-test amalga oshiriladigan davr davomida o'zgaradi; – banklar o'z kapitalini taqsimlanmagan foyda hisobiga shakllantiradi.
Makroiqtisodiy ssenariylar	Makroiqtisodiy ssenariylar ko'rsatkichlarning prognozlarini ifoda etmaydi. Balki, yuzaga kelish ehtimoli juda past bo'lgan yuqori darajadagi xatarlar (tail risks) xatarli ssenariylarni shakllantirish hamda O'zbekiston tijorat banklarining jiddiy xatarlarga bardoshlilikini baholash uchun ishlab chiqilgan. Asosiy ssenariyda iqtisodiy o'zgarishlarning joriy tendensiyalari saqlanib qolinishi natijasida iqtisodiyotning istiqboldagi ehtimoliy holati ifodalanadi. Xatarli ssenariyda kelgusida yuzaga kelish ehtimoli past hamda bank tizimi uchun salbiy ta'siri yuqori bo'lgan ichki va tashqi shoklar inobatga olingan. Xatarli ssenariy bo'yicha real YaIM o'sish sur'ati Growth-at-Risk (GaR) modeli orqali aniqlangan. Bunda, iqtisodiy o'sish sur'atiga ta'sir etuvchi omillar sifatida moliyaviy sikl indeksi hamda real YaIMning oldingi davrdagi qiymatidan foydalanilgan. Xatarlarni to'liq qamrab olish maqsadida xatarli ssenariy bo'yicha real YaIM o'sish sur'atini baholashda moliyaviy sikl indeksiga uch standart chetlanish miqdorida qo'shimcha shok berilgan.

	Inflyatsiya darajasi va real YaIM o'sish sur'atlarining o'zaro ko'paytmasi asosida aniqlanadigan nominal YaIM o'sish sur'atiga teng bo'lgan kredit o'sish sur'ati xatarli ssenariy bo'yicha aniqlangan. Kredit va depozit foiz stavkalari Markaziy bank asosiy stavkasi ta'sirini inobatga olgan holda modellar orqali milliy hamda xorijiy valyutalar bo'yicha baholangan. Ssenariylar bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning keyingi davrlar uchun baholangan yillik ko'rinishdagi qiymatlarini yordamchi regression modellarda foydalanish uchun Kubik splayn interpolyatsiyasi orqali choraklik ko'rinishga o'tkazilgan.
Regulyativ normativlar	Jami regulyativ kapital, CET1 va Tier 1 uchun kapital monandlik talablari, kapital buferlari, leveraj koeffitsiyenti uchun minimal talab o'rnatilgan. Banklar kredit tavakkalchiligi uchun tavakkalchilikka tortilgan aktivlar hisob-kitobida standart yondashuvdan (standardized approach)²¹² foydalanadi. Aktivlar sifati bo'yicha 5 xil guruhga tasniflanadi va ular uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan quyidagi zaxiralar yaratiladi²¹³: – “standart” aktivlar uchun 1 foiz; – “substandart” aktivlar uchun 20 foiz; – “qoniqarsiz” aktivlar uchun 25 foiz; – “shubhali” aktivlar uchun 50 foiz; – “umidsiz” aktivlar uchun 100 foiz.
Metodologiya va inobatga olingan xatar turlari	Makroiqtisodiy ssenariylar asosida foyda va zarar moduli komponentlari baholanadi. Kredit xatari. Milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha kredit portfelidagi defolt ehtimoli (probability of default, PD) yordamchi regression modellar orqali makroiqtisodiy ssenariy bo'yicha kelgusi davrlar uchun baholanadi. Milliy valyuta bo'yicha defolt ehtimolini baholashda o'zining davr oldingi qiymati, YaIM o'sishi hamda milliy valyutadagi real kredit foiz stavkasining ssenariylar bo'yicha qiymatlaridan foydalaniladi.

²¹² Bank for International Settlements. Calculation of RWA for credit risk, standardized approach.

²¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 19-noyabrdagi “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi 27/7–sonli qarori.

	Xorijiy valyuta bo'yicha defolt ehtimoli davr oldingi qiymati, valyuta almashinuv kursi va YaIM o'sishining ssenariylar bo'yicha qiymatlaridan foydalanib kelgusi davrlar uchun baholanadi. Asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha kredit yo'qotishlar hajmi kreditlar qoldig'i, defolt ehtimoli hamda defolt bo'yicha yo'qotishlar (loss given default, LGD) darajalarini o'zaro ko'paytirish orqali hisoblanadi. Defolt bo'yicha yo'qotishlar darajasi sifatida kredit portfelining zaxiralar bilan ta'minlanmaganlik darajasidan foydalaniladi. Bunda, yaratilgan zaxiralarni chegirib tashlash orqali aniqlangan sof kreditlarni jami kreditlardagi ulushi kreditlarni zaxiralar bilan ta'minlanmaganlik darajasi sifatida hisoblanadi. Kredit xatarini baholashda 9-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (IFRS 9) asosida shakllantirilgan jami kreditlar tarkibidagi muammoli kreditlar ulushi (NPL) to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Bozor va valyuta xatari. O'zbekistonda amaldagi tartibga ko'ra, banklar tomonidan o'z ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlarni bozor narxida qayta baholash talab qilinmaydi. Shu sababli, qimmatli qog'ozlarning balans qiymati bazaviy narxlarda aks ettirilgan. Bozor foiz stavkalarining o'zgarishi qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qilmaydi. Biroq, amaldagi tartibga asosan, ma'lum vaqt davomida daromad keltirmaydigan qimmatli qog'ozlar uchun zaxiralarni yaratish talab etiladi. Shuning uchun, xatarli ssenariyda xususiy tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari uchun qo'shimcha zaxiralarni yaratish inobatga olingan. Shuningdek, makro stress-testda xorijiy valyuta almashuv kursidagi o'zgarishlar sababli banklar tomonidan e'lon qilingan valyuta pozitsiyalari asosida xorijiy valyutadagi talab va majburiyatlarning qayta baholanishida foyda yoki yo'qotishlar ham inobatga olinadi. Sof foizli daromadlar. Sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha yordamchi regression modellar orqali baholanadi. Milliy valyuta bo'yicha sof foizli daromadlarning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati ushbu ko'rsatkichning oldingi davrdagi qiymati, kredit o'sish sur'ati, milliy valyutadagi foiz stavka marjasi (kredit va depozit foiz stavkalari orasidagi farq) hamda real YaIM o'sishining ssenariylar bo'yicha qiymatlari asosida kelgusi davrlar uchun baholanadi.
--	---

	Xorijiy valyuta bo'yicha sof foizli daromadni foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbatining ssenariylar asosida keyingi davrlardagi qiymatini baholash uchun ushbu ko'rsatkichning oldingi davrdagi qiymati, xorijiy valyutadagi kredit va depozit foiz stavkalari hamda valyuta almashinuv kursi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha sof foizli daromad miqdori foizli daromad keltiruvchi aktivlarning hamda yordamchi regression modellar orqali baholangan sof foizli daromadning foizli daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati ko'rsatkichining qiymatlarini o'zaro ko'paytirish orqali aniqlanadi. Sof foizsiz daromadlar. Sof foizsiz daromadning jami aktivlarga nisbati yordamchi regression model (satellite model) orqali YaIM o'sishi va valyuta almashuv kursining ssenariylar bo'yicha qiymatlaridan foydalanib kelgusi davrlar uchun baholanadi. Sof foizsiz daromad miqdori jami aktivlarni yordamchi regression model orqali baholangan sof foizsiz daromadning jami aktivlarga nisbati ko'rsatkichiga ko'paytirish orqali hisoblanadi. Operatsion xarajatlar. O'tgan davrlarda operatsion xarajatlarning jami aktivlarga nisbati ko'rsatkichining deyarli o'zgarishsiz shakllanganligi tufayli, kelgusi davrlar uchun operatsion xarajatlarning o'sishi jami aktivlarning o'sish sur'atlari bilan bir xil shakllangan. Jami aktivlarning o'sish sur'ati jami aktivlar tarkibida yuqori ulushga ega foizli daromad keltiruvchi aktivlarning o'sish sur'atlari bilan bir xil bo'lishi belgilangan. Dividendlar. Soliq to'langanidan keyingi sof foydasi ijobiy bo'lgan banklar tomonidan keyingi davrlar uchun dividendlar to'lovlari to'lanishi inobatga olinadi. Soliq to'langan keyingi sof foydasi hisobidan dividendlarni to'lash nisbati har bir bank bo'yicha oldingi davrlardagi dividend to'lovlari ko'rsatkichlaridan kelib chiqib belgilangan.
--	---

Kapital talablari	Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun kapital monandiligiga qo'yiladigan talablarga ko'ra (tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan foizda)²¹⁴: – I darajali asosiy kapitalning monandlik koeffitsiyenti (CET1): 4,5 foiz – I darajali kapitalning monandlik koeffitsiyenti (Tier 1): 6 foiz – Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsiyenti (CAR): 8 foiz – Kapital konservatsiya buferi (CCoB): 2,5 foiz – Kontrsiklik kapital bufer (CCyB): 1,5 foiz – Tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital bufer (D-SIB buffer): 1 foiz. II darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdorining 100 foizdan oshib ketgan holda, oshgan summa regulyativ kapital tarkibiga kiritilmaydi. Bundan tashqari, II darajali kapitalning monandlik koeffitsiyentiga kiritilgan "standart" tasnifidagi kreditlar bo'yicha zaxiralar tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 1,25 foizidan yuqori bo'lmasligi lozim. Leveraj koeffitsiyenti uchun belgilangan minimal talab 3 foizni tashkil etadi²¹⁵.
Konsentratsiya xatari	Xatarli ssenariyga qo'shimcha shok sifatida banklar bo'yicha eng yirik qarz oluvchilarning defoltga uchrashini bank tizimi jami kapitaliga ta'siri inobatga olingan. Bunda, defoltga uchragan yirik qarz oluvchilar kredit qoldig'ining shartli ravishda 50 foizi banklar tomonidan yo'qotilishi (loss given default, LGD) farazi inobatga olinadi.
Aktivlar narxlari keskin arzonlashishining bank tizimi barqarorligiga ta'siri	Xatarli ssenariyga qo'shimcha shok berish sifatida aktivlar narxlari keskin arzonlashishining banklar kredit portfeli sifatiga hamda jami kapitaliga ta'siri baholangan. Bunda, xatarlar sharoitidagi uy-joylar narxi (House price at risk, HaR) modeli orqali ko'chmas mulk bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar ta'sirida kelgusi davrlarda uy-joy narxlaridagi ehtimoliy tuzatishlar darajasi aniqlangan. Aktivlar narxlarining keskin arzonlashishi tufayli kredit ta'minoti sifatida jalb etilgan aktivlar narxlarining bozor qiymatini kamayishi banklarda kredit yo'qotishlari ehtimolini oshiradi. Bunda, tijorat banklari tomonidan ajratilgan ipoteka kreditlari uchun garov sifatida olingan ko'chmas mulk bozor qiymatining

²¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 21/6–sonli qarori.

²¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 21/6–sonli qarori.

	kamayishi hisobiga LTV ko'rsatkichi ortishi inobatga olingan. Shuningdek, uy-joy narxlarining keskin tushishi natijasida kredit miqdorini garov qiymatiga nisbati 120 foizdan yuqori bo'lgan kreditlarning shartli ravishda qarz oluvchilar tomonidan qaytarilmaslik farazi ilgari surilgan.
Tarqalish xatari	Xatarli ssenariyda bank defoltining boshqa banklarga tarqalish xatari bank defoltining yo'qotishlari kapitalga bog'langan hamda umuman qaytmaslik usullari bo'yicha baholanadi: – Bank defoltining yo'qotishlari kapitalga bog'langan holatidagi tarqalish xatari yondashuvida banklar tarqalish xataridan qancha yo'qotishi defoltga uchrashi mumkin bo'lgan bankning kapital monandlik koeffitsiyenti qiymatiga bog'lanadi. Bunda, defoltga uchrashi mumkin bo'lgan bankning kapital monandlik koeffitsiyenti qanchalik past darajada bo'lsa, bu bank bilan moliyaviy aloqalari (kredit ajratgan yoki depozit joylashtirgan) bo'lgan bank proporsional ravishda ko'p zarar ko'radi. – Bank defoltining yo'qotishlari umuman qaytmasligi holatidagi tarqalish xatari yondashuvida banklar defoltga uchrash ehtimoli yuqori ya'ni kapital monandlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi minimal talabdan past bo'lgan bankka ajratgan jami kreditlari yoki depozitlarini to'liqligicha yo'qotadi.
Yakuniy natija	Jami bank tizimi va har bir bank bo'yicha makro stress-test o'tkazilganidan keyingi kapital monandlik ko'rsatkichlari (CET1, Tier 1 va CAR) hamda leveraj koeffitsiyenti stress-testning yakuniy natijalari hisoblanadi.

Xatarlar sharoitida uy-joy narxlari modeli (House Price at Risk, HaR)

Xatarlar sharoitida uy-joy narxlari modeli (House Price at Risk, HaR) ko'chmas mulk bozoridagi salbiy o'zgarishlarning yuzaga kelgan sharoitida uy-joy narxlaridagi tuzatishlar darajasini baholashga xizmat qiladi. HaR²¹⁶ modeli ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda ta'sir etuvchi omillarning uy-joy narxlarining o'sishiga ta'siri turli kvantillar bo'yicha kvantil regressiya modeli²¹⁷ orqali baholanadi. Ikkinchi bosqichda kvantil regressiya modeli natijalaridan kelib chiqqan holda kelgusi davrlardagi uy-joy narxlari o'sishining shartli uzluksiz taqsimoti hosil qilinadi.

Kvantil regressiya modeli

Uy-joy narxlari o'sishiga {10; 25; 50; 75; 90} kvantillar bo'yicha turli ko'rsatkichlarning ta'siri kvantil regressiya modeli orqali baholanadi:

$$y_t^\tau = \alpha^\tau + \beta^\tau X_{t-h} + \gamma^\tau y_{t-h} + \epsilon_t^\tau$$

Bu yerda,

y_t^τ – t davrdagi uy-joy narxlarining o'sishi;

X_{t-h} – jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining o'sishi;

y_{t-h} – h davr oldingi uy-joy narxlarining o'sishi;

α^τ – o'zgarmas son;

β^τ, γ^τ – noma'lum koeffitsiyentlar;

ϵ_t^τ – nisbiy xatolik;

τ – kvantil darajasi.

²¹⁶ Hafemann, L. (2023). Technical Paper. A house prices at risk approach for the German residential real estate market. Deutsche Bundesbank.

²¹⁷ Kvantil regressiya modeli metodologiyasi 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan.

Kvantil regressiya modelidagi noma'lum parametrlar nisbiy xatoliklarning absolyut qiymatlari vaznli yig'indisining eng kichik qiymatini baholash orqali aniqlanadi:

$$Q(\beta^\tau) = \sum_{t:\epsilon_t^\tau \geq 0} \tau |\epsilon_t^\tau| + \sum_{t:\epsilon_t^\tau < 0} (1 - \tau) |\epsilon_t^\tau|$$

Bu yerda,

$Q(\beta^\tau)$ – maqsad funksiyasi;

τ – kvantil darajasi;

ϵ_t^τ – t chorakdagi nisbiy xatolik.

Maqsad funksiyasining minimal qiymatidagi ($Q(\beta^\tau) \rightarrow \min$) noma'lum parametrlarni aniqlashda matematik dasturlashning optimallashtirish modelidagi chiziqli dasturlash turidan foydalaniladi. Bunda, chiziqli dasturlash orqali noma'lum parametrlarning optimal qiymati simpleks usulidan²¹⁸ foydalangan holda aniqlanadi²¹⁹.

Kelgusi davrdagi uy-joy narxlari o'sishining shartli uzluksiz taqsimoti

Keyingi davrlardagi uy-joy narxlari o'sishi kvantil regressiya modeli orqali turli kvantillar bo'yicha hisoblangandan keyingi bosqichda uy-joy narxlari o'sishining shartli uzluksiz taqsimoti yaratiladi. Uy-joy narxlarining kelgusi davrdagi o'sishini taqsimlash kvantil regressiya modeli orqali baholangan qiymatlariga Azzalini va Kapitanio tomonidan keltirilgan ko'p o'lchovli asimmetrik-t (egri-t) taqsimotni (Multivariate Skew-t Distribution)²²⁰ moslashtirish orqali hosil qilinadi.

²¹⁸ Simpleks usuli chiziqli dasturlash masalasini yechishning asosiy usullaridan biri bo'lib, ushbu usulda ketma-ket yaqinlashib borish orqali maqsad funksiyasining maksimal yoki minimal qiymatini yuzaga keltiradigan o'zgaruvchilarning optimal qiymati topiladi.

²¹⁹ Nelder, J.A. & Mead. R. (1965). Simplex method for function minimization. Oxford University Press: The Computer Journal.

²²⁰ Egri-t (skew-t) taqsimoti – o'rtacha, standart chetlanish, egrilik (skewness) va erkinlik (freedom) darajasi parametrlari orqali tavsiflanadigan asimmetrik shakldagi taqsimot turi bo'lib, o'rtachasi nol va standart chetlanishi bir bo'lgan Student-t taqsimoti yordamida hosil qilinadi.

Ko'p o'lchovli asimmetrik-t taqsimotni o'rtacha, standart chetlanish, egrilik (skewness) va erkinlik (freedom) darajasi parametrlari orqali tavsiflanadi²²¹:

$$f(y, \mu, \sigma, \alpha, n) = \frac{2}{\sigma} t\left(\frac{y - \mu}{\sigma}; n\right) T\left(\alpha \frac{y - \mu}{\sigma} \sqrt{\frac{n + 1}{n + \left(\frac{y - \mu}{\sigma}\right)^2}}; n + 1\right)$$

Bu yerda,

y – uy-joy narxlari o'sishi;

α – egrilik darajasi;

n – erkinlik darajasi;

σ – standart chetlanish;

μ – o'rtacha qiymati;

$t(\cdot)$ – ehtimollik zichlik funksiyasi;

$T(\cdot)$ – ehtimollik taqsimot funksiyasi.

Ko'p o'lchovli asimmetrik-t taqsimoti o'rtachasi nol va standart chetlanishi bir bo'lgan Styudent-t taqsimoti²²² yordamida hosil qilinadi. Bunda, egri-t taqsimoti asimmetrik shaklda bo'lib, taqsimotning ehtimollik zichlik funksiyasi²²³ quyidagi ko'rinishda shakllantiriladi:

$$f(y, \alpha, n) = \frac{2}{\sigma} t(y; n) T\left(\alpha y \sqrt{\frac{n + 1}{n + y^2}}; n + 1\right)$$

Bu yerda,

y – uy-joy narxlari o'sishi;

α – egrilik darajasi;

n – erkinlik darajasi;

$t(\cdot)$ – ehtimollik zichlik funksiyasi;

$T(\cdot)$ – taqsimot funksiyasi.

²²¹ Azzalini, A., & Capitanio, A. (2002). Distributions generated by perturbation of symmetry with emphasis on a multivariate skew t-distribution. University of Padua.

²²² Styudent-t taqsimoti – tasodifiy miqdorning standart chetlanishi ma'lum bo'lmaganda o'rtacha ko'rsatkichni baholashda foydalaniladigan simmetrik taqsimot turi. Namuna hajmi qanchalik katta bo'lsa, ushbu taqsimot normal taqsimotga yaqinlashadi.

²²³ Ehtimollik zichlik funksiya bo'lish sharti: $\int_{-\infty}^{\infty} f(x) d(x) = 1$.

Noma'lum parametrlarning optimal bahosi ko'p o'lchovli asimmetrik-t taqsimotning teskari taqsimot funksiyasi hamda 10, 25, 50, 75 va 90 kvantillar bo'yicha baholangan uy-joy narxlari o'sishi orasidagi farqni kvadratlari yig'indisini minimallashtirish orqali aniqlanadi:

$$\{\hat{\mu}, \hat{\sigma}, \hat{\alpha}, \hat{n}\} = \underset{\tau}{\operatorname{argmin}} \sum \left(\hat{Q}_{y_t|x_{t-h}}(\tau|x_{t-h}) - F^{-1}(\mu, \sigma, \alpha, n) \right)^2$$

Bu yerda,

$\hat{Q}_{y_{t+h}|x_t}(\tau|x_t)$ – kvantil regressiya modeli orqali baholangan uy-joy narxlarining o'sishi;

$F^{-1}(\mu, \sigma, \alpha, n)$ – egri-t taqsimotining teskari taqsimot funksiyasi.

Kornish-Fisher kengaytmasi (Kornish-Fisher expansion) yordamida egri-t taqsimotining teskari taqsimot funksiyasi aniqlanadi²²⁴. Bunda, momentlarga asoslangan holda Kornish-Fisher kengaytmasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{aligned} F^{-1} \approx & z_{\tau} + \frac{1}{6}(z_{\tau}^2 - 1)E(X^3) + \frac{1}{24}(z_{\tau}^3 - 3z_{\tau})E(X^4) - \frac{1}{36}(2z_{\tau}^3 - 5z_{\tau})E(X^3)^2 \\ & + \dots + \frac{1}{288}(14z_{\tau}^5 - 103z_{\tau}^3 + 107z_{\tau})E(X^3)^2E(X^4) \\ & - \frac{1}{7776}(252z_{\tau}^5 - 1688z_{\tau}^3 + 1511z_{\tau})E(X^3)^4 + \dots \end{aligned}$$

Bu yerda,

F^{-1} – egri-t taqsimotining teskari taqsimot funksiyasi;

z_{τ} – standart normal taqsimotning teskari taqsimot funksiyasi;

$E(X^n)$ – n tartibli momentlar.

Kornish-Fisher kengaytmasi orqali hosil qilingan egri-t taqsimotining taxminiy teskari taqsimot funksiyasi minimallashtirish muammosiga qo'yiladi va egri-t taqsimotining noma'lum parametrlari aniqlanadi. Aniqlangan egri-t taqsimotining bir yoki besh foiz ehtimollikdagi qiymati HaR modelining natijasi hisoblanadi.

²²⁴ Amedee-Manesme, C., & Barthelemy, F. (2012). Cornish-Fisher Expansion for Real Estate Value at Risk. CergyPontoise University.

5-jadval. Likvidlilik stress-testi tafsiri

Asosiy parametrlar	Jami 34 ta tijorat banklari, shundan 7 tasi tizimli ahamiyatga molik banklar inobatga olingan. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, likvidlilik stress-testida qamrab olingan tijorat banklari aktivlari bank tizimi aktivlarining 100 foizini tashkil qiladi. Likvidlilik stress-test uchun boshlang'ich davr: 2026-yil 1 yanvar.
Vaqt qamrovi	1 yil (2026-yil 1-yanvar – 2027-yil 1-yanvar)
Mohiyati	Likvidlilik stress-testida ssenariylar bo'yicha banklarda kutilayotgan pul oqimi asosida banklarning likvidlilik xatarlariga bardoshliligi baholanadi. Xususan, likvidlilik stress-testi o'tkaziladigan davr oraliqlari bo'yicha mos pul kiriminig mos pul chiqimidan kam bo'lishi banklarda likvidlilik xatarlari yuzaga kelishi mumkin deb qaraladi.
Ssenariylar	Likvidlilik stress-testida asosiy hamda xatarli ssenariylar bo'yicha bank tizimi va banklar qirqimida pul oqimi ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Asosiy ssenariyda Bazel qo'mitasining tavsiyalari asosida banklar uchun kutilayotgan kirim va chiqim miqdorlarini hisoblash koeffitsiyentlari belgilanadi. Xususan, banklarda kutilayotgan pul kirimi miqdorini hisoblash koeffitsiyentlarini belgilashda bank aktivlarining sifati hamda likvidlilik darajalari inobatga olinadi. Kutilayotgan pul chiqimi miqdorini hisoblash koeffitsiyentlari bank majburiyatlari xususiyatini inobatga olgan holda belgilanadi. Xatarli ssenariyda tashqi va ichki shoklar ta'sirida asosiy ssenariyga qaraganda kutilayotgan yuqoriroq pul chiqimi hamda kamroq pul kirimi yuzaga kelish holatlari inobatga olinadi. Bunda, kreditlar va davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha kamroq pul kirimi, depozitlar bo'yicha ko'proq pul chiqimi holatlarining yuzaga kelishi baholanadi. To'lov qobiliyati makro stress-testi xatarli ssenariysi bo'yicha kreditlar defolt ehtimolining ortishi hisobiga kredit yo'qotishlarining yuzaga kelishi likvidlilik stress-testiga integratsiya qilingan. Xatarli ssenariy bo'yicha kredit yo'qotishlarining ortishi natijasida banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning qaytishi bo'yicha pul kirimi kamayadi. Bundan tashqari, xatarli ssenariy bo'yicha geosiyosiy vaziyat, savdo tariflari bo'yicha beqarorlik hamda global inflyatsion bosim qimmatli qog'ozlar bozor narxining arzonlashishiga ta'sir

	ko'rsatadi. Jumladan, xalqaro moliya bozorlaridagi noaniqliklar tufayli investorlar nisbatan xavfsiz aktivlarga investitsiya kiritishni afzal ko'radi. Bu esa, xorijiy valyutada joylashtirilgan O'zbekiston suveren yevroobligatsiyalariga bo'lgan talabni kamaytirib, qimmatli qog'ozlar bozor narxining nominal qiymatiga nisbatan arzonlashishi sabab bo'ladi. Xatarli ssenariy bo'yicha milliy va xorijiy valyutadagi davlat qimmatli qog'ozlari bozor narxining arzonlashishi banklar aktivlari tarkibidagi davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha pul kirimi ko'rsatkichini pasaytiradi. Davlat qimmatli qog'ozlarining arzonlashish darajasi tarixiy kuzatuvlar yondashuvi orqali baholandi. Shuningdek, likvidlilik stress-testi xatarli ssenariyida banklardagi kafolatlanadigan omonatlar chegarasining o'rnatilishi, kredit yo'qotishlarining ortishi, to'lov qobiliyatining pasayishi hamda banklar moliyaviy ko'rsatkichlarining yomonlashishi sababli omonatchilar xulq-atvorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar ta'sirida kafolatlanmagan omonatlarning qaytarib olinishi inobatga olinadi. Jumladan, xatarli ssenariy bo'yicha jismoniy shaxslarning, shuningdek hukumat va davlat korxonalaridan boshqa yuridik shaxslarning kafolatlanmagan omonatlarini to'liq chiqib ketishi banklarda pul chiqimini oshiradi. Jismoniy shaxslar omonatlari bo'yicha umumiy pul chiqimi koeffitsiyentini hisoblashda jismoniy shaxslar depozit portfeli kafolatlangan va kafolatlanmagan qismlarga ajratiladi. Bunda, jismoniy shaxslarning kafolatlangan omonatlari bo'yicha pul chiqimi koeffitsiyenti Bazel tavsiyalarida keltirilgan asosiy ssenariydagi pul chiqimi koeffitsiyenti bo'yicha qoldirilib, kafolatlanmagan depozitlar to'liq qaytarib olinishi farazi inobatga olingan. Yuridik shaxslar omonatlari bo'yicha xatarli ssenariyda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pul chiqimi koeffitsiyentini baholashda yuridik shaxslar depozit portfeli kafolatlangan omonatlar, hukumat va davlat korxonalari omonatlari, shuningdek boshqa kafolatlanmagan omonatlarga ajratiladi. Yuridik shaxslarning kafolatlangan omonatlari hamda hukumat va davlat korxonalari omonatlari bo'yicha pul chiqimi koeffitsiyenti Bazel tavsiyalarida keltirilgan asosiy ssenariydagi pul chiqimi koeffitsiyentlari bilan bir xil darajada saqlab qolingan. Hukumat va davlat korxonalaridan tashqari yuridik shaxslarning kafolatlanmagan omonatlari to'liq qaytarilishi farazi ilgari surilgan.
--	--

Likvidlilik holati	Mos vaqt oraliqlari bo'yicha jami valyutalar, milliy va xorijiy valyutalar qirqimida banklarning kutilayotgan pul kirimi pul chiqimidan kam bo'lmasligi lozim. Xususan, banklarda muddatlar orasidagi nomutanosiblik sababli likvidlilik muammosining yuzaga kelmasligi uchun, kutilayotgan sof pul kirimlarining yig'indisi vaqt oraliqlarida (time buckets) doimo musbat bo'lishi lozim.
Pul oqimi ko'rsatkichlari	Banklarning kutilayotgan likvidlilik holatini doimiy nazorat qilish maqsadida har 30 kunda likvidlilik stress-testlari o'tkazilishi mumkin. Likvidlilik stress-testida ssenariylar asosida banklarning kutilayotgan sof pul kirimi miqdori baholanadi. Turli mos davr oraliqlari bo'yicha banklarda kutilayotgan pul kirimi va pul chiqimi o'rtasidagi farq kutilayotgan sof pul kirimini ifodalaydi. Banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan likvidlilik xatari kutilayotgan sof pul kirimi miqdorlarini muddatlar bo'yicha yig'ib borish orqali tahlil qilinadi. Pul kirimi tahlilida bank aktivlari tarkibidagi kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari, Markaziy bankdagi majburiy zaxiralarni inobatga olmaganidagi mablag'lar, qimmatli qog'ozlar va ularga qilingan investitsiyalar, mijozlarga berilgan kredit va lizinglar hamda boshqa aktivlar so'ndirish muddatlari bo'yicha taqsimlanadi. Muddatlar qirqimida kutilayotgan pul kirimi miqdorlari bank aktivlari hajmini ssenariylar bo'yicha belgilangan koeffitsiyentlarga (aktivlar bo'yicha kutilayotgan pul kirimi darajalari) mos ravishda ko'paytirish orqali aniqlanadi. Pul chiqimi tahlilida bank majburiyatlari tarkibidagi depozitlar, Markaziy bankka hamda boshqa banklarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar, olingan kredit va lizinglar bo'yicha majburiyatlar, balansdagi va balansdan tashqari boshqa majburiyatlarni so'ndirish muddatlari bo'yicha taqsimlanadi. Muddatlar qirqimida kutilayotgan pul chiqimi miqdorlari banklarning balansdagi va balansdan tashqari turli majburiyatlari hajmini ssenariylar bo'yicha belgilangan koeffitsiyentlarga (majburiyatlar bo'yicha kutilayotgan pul chiqimi darajalari) mos ravishda ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Afzalliklari	Likvidlilik stress-testida LCR va NSFR ko'rsatkichlaridan farqli ravishda pul oqimi ko'rsatkichlari muddatsiz, 1 kundan 7 kungacha, 7 kundan 30 kungacha, 30 kundan 90 kungacha, 90 kundan 180 kungacha, 180 kundan 365 kungacha bo'lgan vaqt oraliqlarida tahlil qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan likvidlilik muammolarini sodir bo'lish davrini aniqlash imkonini beradi.
Valyuta kursi xatari	Xatarli ssenariyga qo'shimcha shok sifatida valyuta kursining qadrsizlanishini kutilayotgan pul oqimiga ta'siri baholangan. Bunda, to'lov qobiliyati bo'yicha makro stress-testining xatarli ssenariydagi valyuta kursiga berilgan shok likvidlilik stress-testiga integratsiya qilingan.
Depozit konsentratsiyasi xatari	Xatarli ssenariyda eng yirik depozitorning o'z mablag'ini qaytarib olishini qo'shimcha shok berish orqali banklar likvidlilik holatiga ta'siri baholangan. Bunda, har bir bank depozit portfelidagi milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha eng yirik depozitor mablag'ining chiqib ketish farazi inobatga olingan.
Yakuniy natija	Bank tizimi va har bir bank bo'yicha sof pul kirimi ko'rsatkichlari (pul kirimi va pul chiqimi orasidagi tafovut) likvidlilik stress-testining yakuniy natijalari hisoblanadi. Shuningdek, likvidlilik muammosi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan banklarning bank tizimiga ta'sirini baholash maqsadida valyuta turlari bo'yicha manfiy sof pul kirimiga ega bo'lgan banklar aktivlarining jami bank tizimi aktivlaridagi ulushi baholanadi.

6-jadval. Likvidlilik stress-testida asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha pul oqimi ko'rsatkichlari uchun o'rnatilgan koeffitsiyentlar

Pul oqimi ko'rsatkichlari	Asosiy ssenariy	Xatarli ssenariy
I. Pul kirimi ko'rsatkichlari		
1. Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	100	100
2. Bankning Markaziy bankdagi mablag'lari (majburiy zaxirasiz)	100	100
3. Boshqa banklar va moliyaviy tashkilotlardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kungacha)	100	100
4. Boshqa banklar va moliyaviy tashkilotlardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kundan ortiq)	50	50
5. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (milliy valyutada)	100	85
6. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (xorijiy valyutada)	100	80
7. Tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlarning qimmatli qog'ozlari	85	85
8. XVF, Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infrastruktura investitsiya banki, YTTB, Yevropa investitsiya banki, Yevropa investitsiya jamg'armasi, Islom taraqqiyot banki va Yevropa Kengashining taraqqiyot banki tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	100	100
9. Tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlarning yetakchi kompaniyalari qimmatli qog'ozlari	50	50
10. Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi qimmatli qog'ozlari	75	65
11. Boshqa qimmatli qog'ozlar	100	100
12. Mijozlarning akkreditiv va trast hujjatlari bilan kafolatlangan trattalari bo'yicha majburiyatlari, sof	100	100
13. Mijozlarning bank oldidagi to'lanmagan akseptlari bo'yicha majburiyatlari, sof	100	100
14. Markaziy bankka berilgan kredit va lizinglar, sof (181 kungacha)	100	100
15. Markaziy bankka berilgan kredit va lizinglar, sof (181 kundan ortiq)	50	50
16. Boshqa banklarga berilgan kredit va lizinglar, sof (181 kungacha)	100	100
17. Boshqa banklarga berilgan kredit va lizinglar, sof (181 kundan ortiq)	50	50
18. Mijozlarga berilgan kredit va lizinglar, sof (1 yilgacha)	50	50
19. Mijozlarga berilgan kredit va lizinglar, sof (1 yildan 2 yilgacha)	50	45
20. Mijozlarga berilgan kredit va lizinglar, sof (2 yildan ortiq)	50	35
21. REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar	100	100
22. Hosilaviy instrumentlarning revalvatsiyasi natijasida o'zlashtirilmagan foyda (muddatsiz)	0	0

Pul oqimi ko'rsatkichlari	Asosiy ssenariy	Xatarli ssenariy
23. Hosilaviy instrumentlarning revalvatsiyasi natijasida o'zlashtirilmagan foyda (muddatli)	100	100
24. Valyuta savdosi va valyuta pozitsiyalari	100	100
25. Boshqa aktivlar (muddatsiz)	0	0
26. Boshqa aktivlar (muddatli)	100	100
27. Garovga qo'yilgan yuqori likvidli aktivlar	100	100
II. Pul chiqim ko'rsatkichlari		
1. Aholining talab qilib olinguncha omonatlari	5	40
2. Kredit ta'minoti sifatida jalb etilgan aholi omonatlari (181 kungacha)	100	100
3. Kredit ta'minoti sifatida jalb etilgan aholi omonatlari (181 kundan ortiq)	50	50
4. Kredit ta'minoti sifatida jalb etilgan boshqa depozitlar (181 kungacha)	100	100
5. Kredit ta'minoti sifatida jalb etilgan boshqa depozitlar (181 kundan ortiq)	50	50
6. Yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha depozitlari	40	70
7. Yuridik shaxslarning muddatli depozitlari	40	70
8. Aholining muddatli depozitlari	5	40
9. Jismoniy shaxslarning bank plastik kartalaridagi mablag'lari	5	40
10. Yuridik shaxslarning bank plastik kartalaridagi mablag'lari	40	70
11. Mijozlarning akkreditiv bo'yicha depozitlari	-5	-40
12. Yuridik shaxslarning boshqa depozitlari	40	70
13. Markaziy bankka to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar	40	40
14. Markaziy bankka to'lanishi lozim bo'lgan boshqa mablag'lar (tezkor to'lovlar hamda kliring tizimlari)	25	25
15. Boshqa banklarning vakillik hisobvaraqlariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kungacha)	100	100
16. Boshqa banklarning vakillik hisobvaraqlariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kundan ortiq)	50	50
17. Boshqa banklarning hisobvaraqlari – Depozitlar (181 kungacha)	100	100
18. Boshqa banklarning hisobvaraqlari – Depozitlar (181 kundan ortiq)	50	50
19. Bank kartalaridan amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha banklarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kungacha)	100	100
20. Bank kartalaridan amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha banklarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar (181 kundan ortiq)	50	50
21. Boshqa moddalar (181 kungacha)	100	100
22. Boshqa moddalar (181 kundan ortiq)	50	50
23. Bankning to'lanmagan akseptlari (181 kungacha)	100	100
24. Bankning to'lanmagan akseptlari (181 kundan ortiq)	50	50
25. Olingan kredit va lizinglar (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar (181 kungacha)	5	5
26. Olingan kredit va lizinglar (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar (181 kundan ortiq)	2,5	2,5
27. Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (181 kungacha)	100	100

Pul oqimi ko'rsatkichlari	Asosiy ssenariy	Xatarli ssenariy
28. Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (181 kundan ortiq)	50	50
29. Subordinar qarz majburiyatlari (181 kungacha)	100	100
30. Subordinar qarz majburiyatlari (181 kundan ortiq)	50	50
31. REPO bitimlari bo'yicha sotilgan yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar	100	100
32. REPO bitimlari bo'yicha sotilgan boshqa qimmatli qog'ozlar (181 kungacha)	100	100
33. REPO bitimlari bo'yicha sotilgan boshqa qimmatli qog'ozlar (181 kundan ortiq)	50	50
34. Hosilaviy instrumentlar bo'yicha revalvatsiya natijasida amalga oshmagan zararlar va boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar (181 kungacha)	100	100
35. Hosilaviy instrumentlar bo'yicha revalvatsiya natijasida amalga oshmagan zararlar va boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar (181 kundan ortiq)	50	50
36. Kliring tranzaksiyalari (181 kungacha)	100	100
37. Kliring tranzaksiyalari (181 kundan ortiq)	50	50
38. Boshqa majburiyatlar (muddatsiz)	0	0
39. Boshqa majburiyatlar (1 kundan 181 kungacha)	100	100
40. Boshqa majburiyatlar (181 kundan ortiq)	50	50
41. Balansdan tashqari majburiyatlar	5	20

7-jadval. O‘zbekistonda moliya tizimi barqarorligini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan choralar (2026-yil 1-yanvar holatiga)

Yo‘nalish	Vosita	Amaldagi me‘yor	
		Banklar (mikromoliya banklari mustasno)	Mikromoliya banklari
Bank tizimida likvidlilikni ta’minlash	Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi	10%	5%
	Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti	25%	
	Likvidlilikni qoplash me‘yori koeffitsiyenti (LCR)	100%	
	Sof barqaror moliyalashtirish me‘yori koeffitsiyenti (NSFR)	100%	
Bank tizimida kapital yetarliligini ta’minlash	Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsiyenti	8%	13%
	I darajali kapitalning monandlik koeffitsiyenti	6%	10%
	I darajali asosiy kapitalning monandlik koeffitsiyenti	4,5%	8%
	Kapitalning konservatsiya buferi	2,5%	
	Kontrsiklik kapital buferi	1,5%	
	Tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi	1%	
Bank tizimida leveraj va xatarga moyillikni kamaytirish	Tavakkalchilik darajalari	Yillik foiz stavka va boshqa ko‘rsatkichlarga asoslangan holda	
	Leveraj koeffitsiyenti	3%	
	Konsentratsiya cheklovi	25% (avtokredit) 25% (mikroqarz) 25% (overdraft va kredit karta)	
Dollarlashuv darajasini pasaytirish	Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutada kreditlar ajratish cheklovi	Xorijiy valyutada kreditlar ajratilmaydi	
	Tabaqalashtirilgan majburiy rezerv normativlari	4% (milliy valyuta) 8,5% (xorijiy valyuta)	
	Xorijiy valyutalarda LCR	100%	
	Xorijiy valyutalarda NSFR	100%	

Qarz yukini tartibga solish	Qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati (DSTI)	50%	
	Kredit yoki mikroqarz bo'yicha foiz to'lovlarining asosiy qarz qoldig'iga nisbatan kunlik cheklovi	0,25%	
	Kreditning garovga nisbati (LTV)	75% (avtokredit) 80% va 85% (ipoteka krediti)	
Yirik tavakkalchiliklarni oldini olish	Bankning bir qarz oluvchi yoki o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori cheklovi	25% (I darajali kapitaliga nisbatan)	5 milliard so'm
	Bankning bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi ta'minotsiz kredit tavakkalchiligining eng ko'p miqdori	5% (I darajali kapitaliga nisbatan)	
	Bankning barcha yirik tavakkalchiliklarining umumiy miqdori cheklovi	I darajali kapitalining 5 barobarigacha	
	Bankka aloqador bitta shaxsga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko'p miqdori cheklovi	15% (I darajali kapitaliga nisbatan)	5 milliard so'm
	Bankka aloqador bo'lgan barcha shaxslarga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko'p miqdori cheklovi	25% (I darajali kapitaliga nisbatan)	

Manba: Markaziy bank.

8-jadval. Mamlakatlar bo'yicha kapital buferlar, RWA nisbatan foizda (2026-yil 1-yanvar)

Mamlakat	CCoB	CCyB	SyRB	D-SIB buffer
Avstraliya	2,5	1	0	1
Avstriya	2,5	0	1	0,45–1,75
Albaniya	2,5	0,5	0	0,5–1
Armaniston	2,5	1,75	0	1,5
Belgiya	2,5	1	6	0,75–1,5
Birlashgan Qirollik	2,5	2	0	1–2
Bolgariya	2,5	2	3	0,5–1
Vengriya	2,5	1	1	0,5–2
Germaniya	2,5	0,75	1	0,25–2
Gongkong	2,5	0,5	0	1–2,5
Gretsiya	2,5	0,25	0	1–1,25
Gruziya	2,5	0,5	0	0,5–3
Daniya	2,5	2,5	7	1–3
Janubiy Koreya	2,5	1	0	1
Irlandiya	2,5	1,5	0	0,5–1,5
Islandiya	2,5	2,5	2	3
Ispaniya	2,5	0,5	0	0,25–1,25
Italiya	2,5	0	1	0,25–1,5
Kanada	2,5	0	0	1
Kipr	2,5	1	0	0,5–2,25
Latviya	2,5	1	0	1,25–2
Litva	2,5	1	2	1–2
Lixtenshteyn	2,5	0	1	2
Lyuksemburg	2,5	0,5	0	0,5–1
Malayziya	2,5	0	0	0,5–1
Malta	2,5	0	1,5	0,5–2
Moldova	2,5	0	1	0,5–1,5
Niderlandiya	2,5	2	0	0,25–2
Norvegiya	2,5	2,5	4,5	1–2
Polsha	2,5	1	0	0,25–2
Portugaliya	2,5	0,75	4	0,25–1
Ruminiya	2,5	1	0–2	0,5–2,5
Saudiya Arabistoni	2,5	0	0	0,5–2,5
Singapur	2,5	0	0	2
Slovakiya	2,5	1,5	0	0,25–2
Sloveniya	2,5	1	0,5	0,25–1,25
Finlandiya	2,5	0	1	0,5–2,5
Fransiya	2,5	1	0	0,25–1,5
Xorvatiya	2,5	1,5	1,5	0,25–2,25
Chernogoriya	2,5	1	1,5	2
Chexiya	2,5	1,25	0,5	0,5–2,5
Chili	2,5	0,5	0	1–1,75
Shvetsiya	2,5	2	3	1
Shimoliy Makedoniya	2,5	1,75	0	1–3,5
Estoniya	2,5	1,5	0	0,5–2
Yangi Zelandiya	3,5	0	0	2

Manbalar: vakolatli davlat organlari va Yevropa tizimli xatarlar kengashi.

9-jadval. O'rnatilgan va kelgusi davr uchun e'lon qilingan kontrsiklik kapital bufer talabi, RWAg nisbatan foizda

Mamlakat	2026-yil 1-yanvardan amalda	Keyingi davrda kuchga kirishi kutilayotgan
Avstraliya	1	
Avstriya	0	
Albaniya	0,5	
Armaniston	1,75	
Belgiya	1	01.07.2026: ↑1,25
Birlashgan Qirollik	2	
Bolgariya	2	
Vengriya	1	
Germaniya	0,75	
Gonkong	0,5	
Gretsiya	0,25	01.10.2026: ↑0,5
Gruziya	0,5	15.03.2026: ↑0,75 15.03.2027: ↑1
Daniya	2,5	
Janubiy Koreya	1	
Irlandiya	1,5	
Islandiya	2,5	
Ispaniya	0,5	01.10.2026: ↑1
Italiya	0	
Kipr	1	14.01.2026: ↑1,5
Chili	0	
Latviya	1	
Litva	1	
Lixtenshteyn	0	
Lyuksemburg	0,5	
Malayziya	0	
Malta	0	
Moldova	0	30.01.2026: ↑0,5 13.05.2026: ↑1,5
Niderlandiya	2	
Norvegiya	2,5	
Polsha	1	30.09.2026: ↑2
Portugaliya	0,75	
Ruminiya	1	
Saudiya Arabistoni	0	25.05.2026: ↑1
Singapur	0	
Slovakiya	1,5	
Sloveniya	1	
Finlandiya	0	
Fransiya	1	
Xorvatiya	1,5	01.01.2027: ↑2
Chernogoriya	1	
Chexiya	1,25	
Chili	0,5	
Shveysariya	0	
Shvetsiya	2	
Shimoliy Makedoniya	1,75	01.10.2026: ↑2
Estoniya	1,5	
Yangi Zelandiya	0	

Manbalar: vakolatli davlat organlari.

Atamalar

Aktivlarning shoshilinch sotuvi – aktiv egasining kreditor talablarini qondirish uchun aktivlarini chegirmali narxda majburan sotishi.

Davriy tizimli xatar – moliyaviy hamda boshqa iqtisodiy subyektlar tomonidan protsiklik, ya'ni moliyaviy siklning o'sish bosqichida tavakkalchilik darajasini oshirish va aksincha, pasayish davrida esa xatardan keragidan ortiqcha qochishi sababli paydo bo'ladi. Ushbu protsiklik tendensiyalar o'zini moliyaviy institutlardagi (shuningdek, boshqa iqtisodiy subyektlarda ham) ortiqcha leveraj hamda moliyaviy sektordagi muddatlar o'rtasidagi nomutanosibliklar natijasida yuzaga kelgan kredit va likvidliklik sikllari sharoitida namoyon bo'ladi.

Defolt holatida yo'qotishlar hajmi – bankning qarz oluvchi o'z qarzini to'lashga qodir bo'lmaganda yoki uni to'lashni istamaganda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish; kredit yoki garov nominal qiymatining defolt sodir bo'lgandan keyin qoplanmaydigan qismi.

Ijobiy neytral kontrsiklik kapital buferi (pnCCyB) – tizimli xatarlar darajasi yuqori bo'lmagan sharoitlarda banklar tomonidan kontrsiklik kapitalning noldan yuqori bo'lgan buferi shakllantirishni nazarda tutuvchi makroprudensial vosita hisoblanadi. Ushbu bufer moliyaviy siklning standart xatar muhiti fazasida o'rnatilib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tizimli xatarlarga nisbatan bank tizimi bardoshlilikini oshiradi.

Kapital buferlar – banklarning turli shoklarga bardoshlilikini oshirish maqsadida birinchi darajali asosiy kapital tarkibida shakllantiriladigan hamda regulativ kapital me'yorlarga qo'shimcha tarzda joriy qilinadigan talablar.

Kapital konservatsiya buferi (CCoB) – banklarda yo'qotishlarni yetarli darajada sifatli kapital bilan qoplash maqsadida kapital monandlik koeffitsiyentlariga o'rnatilgan minimal talablarga qo'shimcha ravishda joriy etiladigan kapital bufer. Mazkur bufer bankning jami tavakkalchilikka tortilgan aktivlariga nisbatan belgilanib, I darajali asosiy kapital (CET1) shartlariga muvofiq bo'lgan kapital elementlari hisobiga shakllantiriladi.

Kontrsiklik kapital bufer – kredit tashkilotlari tomonidan sektordagi davriy tizimli xatarlar ortib borayotganda keyinchalik yo'qotishlar yuzaga keladigan stress davrida bank tizimining bardoshlilikini oshirish maqsadida to'planadigan kapital bufer. Mazkur buferlar iqtisodiyotni kreditlar bilan ta'minlash darajasini bir maromda saqlab qolish hamda moliyaviy siklning pasayish davridagi yo'qotishlarni yumshatishga hissa qo'shadi. Shuningdek, kontrsiklik kapital buferlari moliyaviy siklning o'sish davrida kreditlarning keragidan ortiqcha oshish darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur bufer bankning jami tavakkalchilikka tortilgan aktivlariga nisbatan belgilanib, I darajali asosiy kapital (CET1) shartlariga muvofiq bo'lgan kapital elementlari hisobiga shakllantiriladi.

Kreditning garovga nisbati (LTV) – kredit summasining kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan aktiv qiymatiga nisbatini ifodalovchi ko'rsatkich. Qarz oluvchilar olishi mumkin bo'lgan maksimal kredit summasini garov qiymatiga nisbatan cheklash kredit xatarini pasaytiradi.

Kreditning defolt ehtimoli (Probability of default, PD) – banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning qarz oluvchilar tomonidan qaytarilmaslik ehtimolligi. Kreditlarning defolt ehtimoli orqali banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit yo'qotishlari baholanadi.

Leveraj koeffitsiyenti – bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich bo'lib, bankning umumiy xatarini nazorat qilish uchun foydalaniladi. Uning asosiy maqsadi bankning o'z kapitalidan foydalanishi mumkin bo'lgan maksimal darajaga cheklov o'rnatishdir. Leveraj koeffitsiyentida tavakkalchilikka tortilgan aktivlar hisobga olinmaydi va shu bilan kapital monandlik talablaridan farq qiladi. Bu aktivlarning kapitalga nisbatan nomutanosib ravishda oshib ketishiga qarshi oddiy va samarali vosita hisoblanadi.

Leverajni kamaytirish (Deleveraging) – banklar tomonidan o'z qarzlarini kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon. Leverajni kamaytirish ixtiyoriy bo'lganda asosan xatarlarni yumshatish ko'zda tutilsa, ba'zan moliyaviy holatning yomonlashuvi natijasida kelib chiqadigan bankrotlikdan qochish uchun ham foydalaniladi.

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti – likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti banklarning qisqa muddatli likvidlilik shoklariga bardoshlilikini oshiruvchi vosita hisoblanadi. Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Makro stress-test – butun moliyaviy tizimning xatarli ssenariylardagi o'ta xavfli, ammo sodir bo'lishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan tizimli xatar omillariga bardoshlilikini o'lchash hamda stress holati yuzaga kelganda barqarorlikni saqlab qolish uchun yetarli kapital va likvid aktivlarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan vositalar majmui.

Makroprudensial siyosat – tizimli xatarlarni cheklash va ularning salbiy oqibatlarini yumshatish, iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydigan buferlar joriy etish orqali moliyaviy tizimning barqarorligini oshirishga qaratilgan harakatlar majmuasidan iborat. Makroprudensial siyosat quyidagilar bilan tavsiflanadi: (a) uning maqsadi tizimli xatarlarni cheklashdan iborat; (b) qo'llanilish doirasi individual institutlarga emas, balki butun moliyaviy tizimga (jumladan, real va moliyaviy sektorlarning o'zaro munosabatlariga) qaratilgan siyosatdir; (s) birinchi navbatda, tizimli xatarlarning manbalariga yo'naltirish uchun moslashtirilgan makroprudensial vositalardan foydalanadi.

Makroprudensial siyosat vositalari – makroprudensial siyosatning bosh va oraliq maqsadlariga erishish uchun mo'ljallangan vositalar va cheklovlar.

Makroprudensial siyosatning transmission (uzatish) kanallari – makroprudensial siyosatga doir qarorlarning moliyaviy tizim bardoshlilikiga va kredit sikliga ta'sir qilish kanallari hisoblanadi. Makroprudensial siyosat vositalarining qat'iyalashtirilishi moliyaviy tizim va real iqtisodiyotga narx, miqdor, bardoshlilik va kutilmalar kanallari orqali uzatiladi.

Moliyaviy barqarorlik – bank tizimining, ya'ni kredit tashkilotlari va bozor infratuzilmalarining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shoklarga bardoshli bo'lib, moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajarishda uzilishlar yuz berish ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlikka erishish deganda, individual moliyaviy tashkilotlarning emas, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlash tushuniladi;

Moliyaviy tizimning xatarlarni aniqlash, baholash, boshqarish hamda iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, shuningdek, tashqi va ichki shoklar yuz berishiga qaramasdan moliyaviy xizmatlarni uzluksiz ko'rsata olish qobiliyati hisoblanadi. Moliyaviy tizim iqtisodiy faoliyatni

ragʻbatlantirish hamda kutilmagan moliyaviy nomutanosibliklarni bartaraf etishga qodir boʻlganda barqaror hisoblanadi.

Moliyaviy sikl – toʻgʻridan-toʻgʻri moliyaviy tizim sababli kelib chiqadigan yoki u tomonidan kuchaytiriladigan iqtisodiy tebranishlar sifatida qaralishi mumkin. Odatda, moliyaviy sikl oʻzini kredit agregatlari va aktivlar narxlarini oʻrtasidagi birgalikdagi harakat sifatida namoyon qiladi, bu esa real iqtisodiy oʻzgarishlarga ham taʼsir qilishi mumkin.

Risk-profil – portfel uchun investitsiya aktivlarini toʻgʻri taqsimlashni aniqlash uchun zarur boʻlgan baholashdir. Individual investorlar, moliyaviy tashkilotlar yoki kompaniyalar oʻziga xos risk-profillariga ega, chunki ularning risk appetitlari psixologik faktorlar, yoʻqotishlarni qoplash qobiliyati, investorlarning yoshi va boshqa investitsion maqsadlari boʻyicha farqlanishi mumkin; bu investorning tavakkalchilikka boʻlgan munosabatini ifoda etadi va investitsion portfeldagi aktivlarni samarali taqsimoti uchun muhim ahamiyatga ega. Risk-profilidan kelib chiqqan holda investorlarni konservativ, ratsional va agressiv turlarga ajratish mumkin.

Sof barqaror moliyalashtirishning meʼyoriy koeffitsiyenti – uzoq davr davomida moliyalashtirishning barqarorligini taʼminlashga qaratilgan boʻlib, banklardan uzoq muddatli aktivlarni uzoq muddatli majburiyatlar bilan moliyalashtirishni talab qiladi va shu orqali muddatlar oʻrtasidagi nomutanosiblik (maturity mismatch) darajasini cheklaydi. Mazkur vositadan likvidlikni qoplash meʼyori koeffitsiyentini toʻldiruvchi qoʻshimcha talab sifatida foydalaniladi.

Sugʻurta xizmatlarining ommalashish darajasi – sugʻurta sektorining iqtisodiyotdagi ulushini hamda sugʻurta xizmatlarining umumiy iqtisodiy faoliyatga integratsiyalashganlik darajasini ifodalovchi koʻrsatkich. Ushbu koʻrsatkich jami sugʻurta mukofotlarining nominal YaIMga nisbati orqali hisoblanadi.

Sugʻurta xizmatlarining zichligi – sugʻurta bozorining aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan rivojlanganlik darajasini tavsiflovchi koʻrsatkich boʻlib, jami sugʻurta mukofotlarini aholi soniga nisbati orqali aniqlanadi.

Tavakkalchilikka tortilgan aktivlar zichligi – bankning tavakkalchilikka tortilgan aktivlarining jami aktivlaridagi ulushini aks ettiruvchi koʻrsatkich.

Tarkibiy tizimli xatar – moliya tizimi boʻylab xatarlarning taqsimlanishi va moliyaviy tashkilotlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqliklar hamda umumiy tavakkalchiliklar natijasida paydo boʻluvchi xavf.

Tartibga solish arbitraji – moliyaviy bozor ishtirokchilari cheklovlarni chetlab oʻtish maqsadida nisbatan kamroq nazorat qilinadigan bozor segmentlarida oʻz faoliyatlarini koʻchirishi va (yoki) boshlashi natijasida nisbiy afzalliklarga ega boʻlishi.

Tizimli ahamiyatga molik bank – bank tizimining barqarorligi qaysi bankning faoliyatiga bogʻliq boʻlsa, oʻsha bank tushuniladi; oʻz hajmi, murakkabligi va tizimli oʻzaro bogʻliqligi natijasida nazorat qilib boʻlmaydigan muvaffaqiyatsizligi butun bank tizimi hamda iqtisodiy faoliyatda jiddiy uzilishlarga olib kelishi mumkin boʻlgan banklardir.

Tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi – tizimli ahamiyatga molik deb topilgan banklarning faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan shok yoki yoʻqotishlarga bardoshlilikni oshirish maqsadida kapitalga qoʻshimcha talablar joriy etilishidir. Tizimli ahamiyatga ega boʻlgan banklarning toʻlov qobiliyati yuqoriligi nafaqat moliyaviy tizimining,

balki umuman iqtisodiyotning barqarorligi va xavfsizligini mustahkamlaydi. Mazkur bufer bankning jami tavakkalchilikka tortilgan aktivlariga nisbatan belgilanib, I darajali asosiy kapital (CET1) shartlariga muvofiq bo'lgan kapital elementlari hisobiga shakllantiriladi.

Tizimli xatar – umumiy moliya tizimida yoki uning ma'lum bir sektorida jiddiy muvaffaqiyatsizlik natijasida yuzaga keladigan va real iqtisodiyot uchun jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy xizmatlar ko'rsatishdagi keng miqyosdagi uzilishlar xavfi. Makroprudensial chora-tadbirlar qo'llashdan asosiy ko'zlangan maqsad tizimli xatarlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini yumshatish orqali moliyaviy inqirozlarning yuzaga kelish davriyligi va keskinligini kamaytirish hisoblanadi. Tizimli xatarlar odatda ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: tarkibiy va davriy tizimli xatarlar.

Tizimli xatar buferi – kontrsiklik kapital buferi yoki tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferlari kabi makroprudensial vositalar orqali qamrab olinmagan tizimli xatarlar mavjud bo'lganda, ularni bartaraf etishga qaratilgan vosita. Mazkur bufer umumiy darajadagi tizimli xatarlarni yoki bank tavakkalchiliklari to'plamlariga bog'langan xatarlarni bartaraf qilish uchun ishlatilishi mumkin.

“Tanazzulga uchramoq uchun haddan ziyod yirik” tashkilot – ma'lum bir moliyaviy tashkilot yuqori darajada tizimli ahamiyatga ega ekanligini hamda uning qulashi butun moliyaviy tizimda nobarqarorlikni va umuman iqtisodiyotning inqirozga uchrashiga olib kelishini anglatadi.

Qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati (DSTI) – qarz oluvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan jami qarzga xizmat ko'rsatish to'lovlarining qarz oluvchi ixtiyoridagi jami daromadga nisbatini ifodalovchi ko'rsatkich. Qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati cheklovi qarz oluvchilarning daromadiga nisbatan qarzga xizmat ko'rsatish to'lovlarini cheklash orqali qarz oluvchilarning bardoshlilikini oshirishga qaratilgan makroprudensial vosita hisoblanadi.

Qarzning daromadga nisbati (DTI) – jismoniy shaxslarning kredit/qarz summasining daromadga nisbatan baravar miqdorda cheklovchi ko'rsatkich.

Qat'iy qoidaga asoslanmagan (moslashuvchan) boshqaruv – makroprudensial vositalar moliyaviy tizimga turlicha ta'sir qila olishini inobatga olgan holda, mazkur vositalarni faollashtirish yoki faolsizlantirish hamda ularning darajalarini moslashtirish bo'yicha makroprudensial siyosat qarorlari faqatgina qat'iy qoidalarga tayanmasligi va shu orqali markaziy bank uchun qaror qabul qilish jarayoniga sifat omillari va asoslantirilgan ekspert xulosalarini inobatga olish uchun yuqori darajadagi ixtiyoriylik imkoniyatining berilishi.

I darajali asosiy kapital (CET1) – eng yuqori sifatli regulyativ bank kapitali bo'lib, bankning moliyaviy barqarorligini baholashda foydalaniladigan ko'rsatkich. Mazkur kapital yuzaga keladigan yo'qotishlarni tezda qoplash imkoniyatiga ega bo'lgan elementlardan iborat bo'lib, banklarning to'lov qobiliyatini ifodalaydi.